RESPUBLIKA ILMIY-USLUBIY JURNALI

TA’LIM FIDOYILARI

JIFACTOR: 8.2

2026

- PHILOLOGICAL SCIENCES
- PEDAGOGICAL SCIENCES
- SOCIAL SCIENCES AND HUMANITES
- EXACT SCIENCES
- NATURAL SCIENCES
- ECONOMICS
- ART AND CULTURE
- MEDICAL SCIENCES



OPEN ACCESS

doi

ISSN:2181-2160

+998 97 277 78 01
WWW.REANDPUB.UZ
INFO@REANDPUB.UZ
R.A.P

CYBERLENINKA BASE OpenAIRE Google Scholar

ISSN 2181-2160
JIFactor: 9.10

«TA’LIM FIDOYILARI»

ILMIY-USLUBIY JURNALI

BARCHA SOHALAR BO’YICHA

1-SON, 1-JILD MART 2026 - YIL 1-QISM

WWW.MAQOLA.REANDPUB.UZ

ISSN 2181-2160
JIFactor: 9.10

TA’LIM FIDOYILARI

EDITOR IN CHIEF
ABDURAHMONOV ABDUSHOKIR ABDUKARIMOVICH
PREPARING FOR PUBLISHING
HAKIMOVA AZIZA XAYDARALIYEVNA

BOSH MUHARRIR
ABDURAHMONOV ABDUSHOKIR ABDUKARIMOVICH
NASHRGA TAYYORLOVCHI
HAKIMOVA AZIZA XAYDARALIYEVNA

TA’LIM FIDOYILARI
ILMIY-USLUBIY JURNALI

TAHRIR KENGASH A’ZOLARI

Azimov Jumanazar Turg'unovich
O'zbekiston Respublikasi Qurolli kuchlari Akademiyasi dosenti. Fizika-matematika fanlari falsafa doktori. PhD.

Dr. Israilov Mamarakhim
Doctor of Philosophy (Ph.d) Technics., Associate professor of the Department of "Natural Sciences" of the Academy of Armed Forces of the Republic of Uzbekistan

Narmatov Sardor Esirgapovich
O‘simliklar karantini va himoyasi ilmiy-taqiqot instituti Xavfli va karantindagi begona o‘tlarni o’rganish va qarshi kurashish laboratoriyasi kichik ilmiy xodim biologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Ibragimov Bekzod Odiljonovich
O‘simliklar karantini va himoyasi ilmiy-taqiqot instituti Farg‘ona viloyati filiali direktori, qishloq xo‘jaligi fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Allaberganova Gulchehra Masharipovna
Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universitetining “Umumiy fizika” kafedrasi dotsenti

Axmadaliyev Lochinbek Maxamadyusuf o'g'li,
University of Business oliy ta'limi muassasasi til va adabiyot ta'limi kafedrasi dotsenti, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Soliyev Hayitboy Mirzadavlatovich
Namangan muxandislik-qurilish instituti Transport fakulteti Transport logistikasi kafedrasi, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori PhD, dotsenti

Ustaboyev Abdullo Raximjonovich
Namangan muxandislik-qurilish instituti Transport fakulteti Transport logistikasi kafedrasi, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori PhD, katta o'qituvchi

Matyakubova Yulduzxon Amanbayevna
Urganch davlat Universiteti Tabiiy fanlar fakulteti Biologiya kafedrasi, qishloq ho'jaligi fanlari nomzodi, dotsent

Mirzabdullaeva Gulnora Muxammadjon qizi
Namangan muhandislik-qurilish instituti menejment kafedrasi assistenti

Berdikulov Sirojjon Nasipkulovich
Academy of the Ministry of internal affairs of the Republic of Uzbekistan Social-Humanitarian professor of the Department of Sciences, Doctor of philosophy, professor

Shukhrat Batirovich Djabbarov
Ph.D. (Tech.), Department of “Wagons and wagon facilities”, Tashkent State Transport University

Shokirova Havasxon Nurmamatovna
Farg’ona xalq ta’limi boshqarmasi Ta’lim markazi direktori

Xaytbayeva Nodira Seytjanovna
O‘simliklar karantini va himoyasi ilmiy tadqiqot instituti, “Don va don dukkakli ekinlarning zararli organizmlariga qarshi kurashish laboratoriyasi” katta ilmiy xodimi, qishloq xo‘jaligi fanlari doktori (DSc)

Nafasov Zafar Nurmahmadovich
O‘simliklar karantini va himoyasi ilmiy tadqiqot instituti laboratoriyasi mudiri, qishloq xo‘jaligi fanlari doktori (DSc), katta ilmiy xodim

Turdimuratov Yangiboy Allamuratovich
O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasi dotsenti, tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Xakimniyazov Jolmurza Xojabekovich
Qoraqalpoq Davlat Universiteti Tarix fakulteti Tarix fanlari nomzodi docent

Gapparov Furkat Axatovich
O‘simliklar karantini va himoyasi ilmiy-taqiqot instituti Yaylov, yem-xashak, moyli va dorivor ekinlarning zararli organizmlariga qarshi kurash laboratoriyasi yetakchi ilmiy xodimi, qishloq xo‘jaligi fanlari doktori (DSc), professor

Ibragimova Zaravshan Yuldashevna
Qoraqalpog'iston qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti Ipakchilik kafedrasi v.v.b.dotsent,b,f,f,d,PhD

Abdugapparov Farkhod Sultonakhmadovich
PhD, Senior Lecturer, Department of Chemistry, Andijan State University, Republic of Uzbekistan.

Nabieva Saidaxon Abduvaxabovna
Toshkent davlat texnika universiteti Sanoat iqtisodieti va menejmenti kafedrasi dotsenti (PhD)

ZAKIROVA RUXSONA YUNUSOVNA
Toshkent farmatsevtika institutining Dori vositalarining sanoat texnologiyasi kafedrasi v/b dotsenti

Raxmatullaeva Gulnora Kutbitdinovna
TTa nevrologiya va tibbiy psixologiya kafedrasi dotsenti

Achilova Sanobar Sabirovna
Urganch davlat universiteti kimyoviy texnologiyalar fakulьteti Ozik ovkat kafedrasi dotsenti

Turakulov Ibroxim Ravshanovich
O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti Aniq-tabiiy va jismoniy madaniyat fakulteti Sport turlarini o'qitish metodikasi kafedrasi v.v.b.dotsenti

Usmonalieva Risolat Umaralievna
Surxondaryo viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga o’rgatish milliy markazi" Ijtimoiy-iqtisodiy fanlar metodikasi" kafedrasi katta o’qituvchisi

Sobirov Abdulxay Shukirovich
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat universiteti ma’naviyat va ma’rifat bo’yicha prorektori

Jo’rayev Hamza Hamraqulovich
Uzbekiston-Finlyandiya pedagogika instituti, San’atshunoslik fakulteti, Tasviriy san’at va muxandislik grafikasi kafedrasi dotsenti

Sodiqov Davron Sodiq o‘g‘li
Doctor of philosophy (PhD) degree on agricultural sciences Sericulture Research Institute

Saidova Markhabo Xabibullo kizi
DOCTOR OF PHILOSOPHY (PH.D) in ECONOMICAL SCIENCES

Begmatov Toir Muxtorovich
Doctor of philosophy (PhD) degree on agricultural sciences Sericulture Research Institute

Yunusova Gulshod Nazixovna
Namangan davlat universitetining «Amaliy matematika va axborotlartexnologiyalari» kafedrasi katta o’qiituvchisi

Ergasheva Muqaddasxon Abdumajitovna
Наманган давлат университети Физика-математика факультети. Физика кафедраси доценти.

Tojiboeva Gulxumor Raxmonjonovna
Andijon davlat universiteti umumiy psixologiya kafedrasi katta o’qituvchi

Ergashev Bobirjon Boxodirovich
Pedagogik innovatsiyalar, kasb-hunar talimi boshqaruv hamda pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti Malaka oshirish va qayta tayyorlash fakulteti dekani

Shomirzayev Bobir Urinbayevich
Andijon davlat universiteti Dasturiy injiniring kafedrasi dotsenti., Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

Ismoilov Xamrali Kanbarovich

Andijon davlat universiteti Fizika-matematika va IT fakulteti Amaliy matematika kafedrasi katta o‘qituvchisi Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

Ахмедова Фируза Анваровна
Тошкент давлат транспорт университети, "Электр таъминоти" кафедраси техника фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD).

Yerjepova Gulbaxar Tajetovna
Qoraqalpog'iston qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti Meva-sabzavotchilik va polizchilik kafedrasi mudiri, qishloq xo‘jaligi fanlari bo‘yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Djumamuratov Arislan Baymuratovich
Qoraqalpog'iston qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti Zooinjeneriya va veterenariya kafedrasi dotsenti

Ахмедов Бехзод Мадаминжонович
Андижон давлат университети Ўқув ишлари бўйича проректори. Педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори(PhD)., доценти.

Abdieva Gulmira Muratbaevna
Qoraqalpoq qishloq xo‘jaligi va agrotexnologiyalar instituti Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini saqlash, yetishtirish va qayta ishlash texnologiyasi kafedrasi mudiri, dotsent

RATSIONAL VA IRRATSIONAL TENGLAMALARNI TRIGONOMETRIK FUNKSIYALAR ORQALI YECHISHNING BA’ZI-BIR USULLARI.

Komiljon Kodirov
Farg‘ona davlat universiteti professori
kkodirov65@mail.ru

Maxammadjon Ro‘zikov
Farg‘ona davlat universiteti katta o‘qituvchisi
maxammadjonrozikov@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada ratsional va irratsional tenglamalarni trigonometrik funksiyalar yordamida yechiladigan tenglamalarni yechishning ayrim usullari va ularga doir misollar keltirib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar:tenglama, ratsional, irratsional, kvadrat, koeffitsiyent, trigonometrik, funksiya.

Kirish:O‘quvchilar tomonidan matematikani chuqurroq o‘rganish, olimpiada masalalarini yechish jarayonlarida ko‘p hollarda yuqori darajali va irratsional tenglamalarga duch kelinadi. Bundan tashqari, turli xil amaliy masalalarni yechish ham, shu kabi tenglamalarni yechishga olib keladi. Umumiy o‘rta ta’lim maktab dasturlarida eng sodda ratsional va irratsional tenglamalar va ularning sistemalarini yechishga oid mavzular va ularni yechishning umumiy usullari haqida ma’lumotlar kiritilgan. Ayrim turdagi tenglamalarni trigonometrik tenglamalarga keltirish orqali yechish, masalan irratsional tenglamalarni trigonometrik funksiyalar bilan almashtirish orqali trigonometrik tenglamalarga keltirib yechish mumkin. Irratsional tenglamalarning faqat alohida turlari, ya’ni ayrim xususiy hollari uchun yechish usullari mavjud [1–4].

Ushbu maqolada yuqori darajali tenglamalarni va ayrim irratsional tenglamalarni trigonometrik tenglamalarga keltirib yechishning ba’zi usullari keltirib o‘tiladi.

Material va metod

Ushbu bo‘limda qo‘llaniladigan yondashuvning mohiyati shundan iboratki, berilgan algebraik tenglama (ratsional yoki irratsional ko‘rinishdagi) uchun mos keluvchi trigonometrik almashtirish tanlanadi va shu almashtirish yordamida tenglama trigonometrik tenglamaga keltiriladi. Keyingi bosqichlarda esa trigonometrik ayniyatlar (asosiy formulalar, burchaklarni o‘zgartirish formulalari, yig‘indi-ayirma va ko‘paytmani yig‘indiga keltirish formulalari)dan foydalanib, hosil bo‘lgan trigonometrik tenglama soddalashtiriladi hamda yechimlar aniqlanadi. Mazkur usulning afzalligi shundaki, murakkab ko‘rinishdagi algebraik tenglamani ma’lum standart trigonometrik tenglamalar darajasiga keltirish mumkin bo‘ladi; bunda yechimlarni topish jarayoni tartibli va tizimli ko‘rinishga ega bo‘ladi.

Trigonometriya orqali yechish usuli, ayniqsa, ildiz ostida kvadrat ifodalar, yuqori darajali ko‘phadlar yoki parametrli ifodalar uchraydigan tenglamalarda qulay natija beradi. Chunki bunday hollarda $x = \cos t$, $x = \sin t$, $x = 2\sin t$, $x = 2\cos t$ kabi almashtirishlar yordamida ildizli ifodalar soddalashadi, ko‘phadlar esa trigonometrik formulalar bilan moslashtirilib, yechimlarni topish osonlashadi. Shu bilan birga, trigonometrik almashtirish tanlashda tenglamaning tuzilishi, undagi ifodalarning ko‘rinishi va aniqlanish sohasi qat’iy hisobga olinadi.

Ushbu ishda masalalarni yechishda quyidagi amallar ketma-ketligi izchil qo‘llanadi:

Aniqlanish sohasini tekshirish (masalan, ildiz ostidagi ifoda ≥ 0). Avvalo tenglama ma’noga ega bo‘lishi uchun zarur bo‘lgan shartlar aniqlanadi. Masalan, irratsional tenglamalarda ildiz ostidagi ifoda manfiy bo‘lmasligi, bo‘luvchi ishtirok etgan tenglamalarda esa maxraj nolga teng bo‘lmasligi kerak. Ushbu bosqichda topilgan cheklovlar keyingi yechim jarayonida majburiy shart sifatida qaraladi va oxirgi javoblar aynan shu shartlar doirasida tanlanadi.

Mos trigonometrik almashtirish tanlash (masalan, $x = \cos t$ yoki $x = a\cdot\sin t$). Tenglamaning ko‘rinishiga qarab eng qulay almashtirish tanlanadi. Masalan, $\sqrt{(1-x^2)}$ tipidagi ifodalar uchrasa $x = \sin t$ yoki $x = \cos t$ almashtirish maqsadga muvofiq bo‘ladi; $x^2 \leq 1$ cheklovi bo‘lsa, $x = \cos t$ (yoki $x = \sin t$) tabiiy tanlov hisoblanadi. Ba’zi hollarda $x =$

a·sin t yoki x = a·cos t kabi umumiyroq almashtirishlar qo‘llanadi. Almashtirish kiritilgach, parametr t ning qaysi oraliqda olinishi aniqlanish sohasi bilan uyg‘un holda belgilab olinadi.

Tenglamani trigonometrik ko‘rinishga keltirish va soddalashtirish (sin2t, cos2t, sin3t kabi formulalar yordamida). Tanlangan almashtirish orqali tenglamadagi barcha algebraik ifodalar trigonometrik funksiyalar yordamida qayta yoziladi. So‘ngra hosil bo‘lgan tenglama trigonometrik ayniyatlar yordamida soddalashtiriladi. Maqsad — tenglamani imkon qadar standart shaklga keltirish, ko‘paytuvchilarga ajratish yoki oddiy trigonometrik tenglamalarga olib kelishdir.

t bo‘yicha yechimlarni topish va x ga qaytish. Soddalashtirilgan trigonometrik tenglama yechilgach, t ning umumiy yechimlari topiladi. Trigonometrik funksiyalarning davriyligi sababli yechimlar odatda parametrli ko‘rinishda yoziladi. Shundan keyin tanlangan almashtirish orqali x ning qiymatlari qayta tiklanadi, ya’ni x = cos t, x = sin t va hokazo ifodalarga mos ravishda x qiymatlar olinadi. Bu bosqichda t ning tanlangan oraliqqa mos kelishi ham nazarda tutiladi.

Olingan x qiymatlarni asl tenglamada tekshirib, ortiqcha ildizlarni chiqarib tashlash. Trigonometrik almashtirish natijasida yoki tenglamani soddalashtirish jarayonida ba’zan tenglamaga mos kelmaydigan (ortiqcha) yechimlar paydo bo‘lishi mumkin. Shu sababli yakuniy bosqichda topilgan barcha x qiymatlar asl tenglamaga qo‘yib tekshiriladi. Ayniqsa, irratsional tenglamalarda aniqlanish sohasi cheklovlari qat’iy nazorat qilinadi. Tekshiruvdan o‘tgan qiymatlar yakuniy yechim sifatida qabul qilinadi, mos kelmaydiganlari esa chiqarib tashlanadi.

Shunday qilib, keltirilgan ketma-ketlik algebraik tenglamalarni trigonometrik tenglamalarga o‘tkazish, trigonometrik ayniyatlar yordamida soddalashtirish va yakunda yechimlarni ishonchli aniqlash uchun yagona tizimli metodik yo‘lni tashkil etadi.

Natijalar

Misol 1.

Quyidagi tenglamani yeching:

$$x^2 + x\cdot\text{sqrt}(3 - 3x^2) = 1/2 + x$$

Aniqlanish sohasidan: $3 - 3x^2 \geq 0 \Rightarrow x^2 \leq 1 \Rightarrow -1 \leq x \leq 1$. Shuning uchun $x = \cos t$ ($t \in \mathbb{R}$) almashtirishni kiritamiz. U holda $\text{sqrt}(3 - 3x^2) = \sqrt{3}\cdot\sin t$ (bu yerda $\sin t \geq 0$ bo'lishi uchun t ni mos oraliqda tanlab, oxirida x qiymatlarni tekshirib olamiz).

Almashtirishdan so'ng tenglama:

$$\cos^2 t + \sqrt{3}\cdot\cos t\cdot\sin t = 1/2 + \cos t$$

Tenglikning har ikki tomonini 2 ga ko'paytiramiz va $2\cos^2 t = 1 + \cos 2t$, $2\cos t\cdot\sin t = \sin 2t$ formulalardan foydalanamiz:

$$2\cos^2 t + 2\sqrt{3}\cdot\cos t\cdot\sin t = 1 + 2\cos t$$

$$1 + \cos 2t + \sqrt{3}\cdot\sin 2t = 1 + 2\cos t$$

Demak, $\cos 2t + \sqrt{3}\cdot\sin 2t = 2\cos t$.

Har ikki tomonni 2 ga bo'lamiz: $(1/2)\cos 2t + (\sqrt{3}/2)\sin 2t = \cos t$. Chap tomonni $\cos(2t - \pi/3)$ ko'rinishiga keltiramiz:

$$\cos(2t - \pi/3) - \cos t = 0.$$

Endi $\cos u - \cos v = -2\cdot\sin((u+v)/2)\cdot\sin((u-v)/2)$ ayniyatidan foydalanamiz ($u=2t-\pi/3$, $v=t$):

$$-2\cdot\sin(3t/2 - \pi/6)\cdot\sin(t/2 - \pi/6) = 0.$$

Shundan quyidagilardan biri bajariladi:

1) $\sin(3t/2 - \pi/6) = 0$ yoki 2) $\sin(t/2 - \pi/6) = 0$.

1) $3t/2 - \pi/6 = k\pi \Rightarrow t = \pi/9 + 2k\pi/3$;

2) $t/2 - \pi/6 = n\pi \Rightarrow t = \pi/3 + 2n\pi$ ($k,n \in \mathbb{Z}$).

$x = \cos t$ ga qaytib, ($-1 \leq x \leq 1$) shartni inobatga olgan holda quyidagi yechimlar olinadi:

$$x \in \{ 1/2, \cos(\pi/9), \cos(7\pi/9), \cos(13\pi/9) \}.$$

Misol 2.

Quyidagi tenglamani yeching:

$$x^3 - 3x + 1 = 0$$

$f(x)=x^3-3x+1$ deb olib, $f'(x)=3x^2-3=0 \Rightarrow x=-1$ va $x=1$ kritik nuqtalarini topamiz. Bundan funksiya $(-\infty,-1)\cup(1,\infty)$ oraliqlarda o‘suvchi, $(-1,1)$ oraliqda kamayuvchi ekanligi kelib chiqadi; demak tenglama uchta haqiqiy ildizga ega.

Trigonometrik almashtirish: $x = 2\cdot\sin t$, $t \in [-\pi/2, \pi/2]$. U holda:

$$8\sin^3 t - 6\sin t + 1 = 0.$$

Tenglamani $-1/2$ ga bo‘lamiz:

$$3\sin t - 4\sin^3 t = 1/2.$$

Bu esa $\sin 3t = 1/2$ ga teng (chunki $\sin 3t = 3\sin t - 4\sin^3 t$).

Demak, $\sin 3t = 1/2 \Rightarrow 3t = \pi/6 + 2\pi m$ yoki $3t = 5\pi/6 + 2\pi m$ ($m \in \mathbb{Z}$). Shundan:

$$t = \pi/18 + 2\pi m/3 \quad \text{yoki} \quad t = 5\pi/18 + 2\pi m/3.$$

$t \in [-\pi/2, \pi/2]$ shartni qanoatlantiruvchi qiymatlarni tanlab, $x=2\cdot\sin t$ ga qaytamiz. Natijada ildizlar:

$$x_1 = 2\sin(\pi/18), \quad x_2 = 2\sin(5\pi/18), \quad x_3 = -2\sin(7\pi/18).$$

Muhokama

Keltirilgan misollar shuni ko‘rsatadiki, ayrim irratsional yoki yuqori darajali algebraik tenglamalarni mos trigonometrik almashtirishlar orqali trigonometrik tenglamalarga keltirish mumkin. Bu usulning qulay tomoni — trigonometrik ayniyatlar (ikki burchak, uch burchak formulalari, yig‘indi-ayirma formulalari) yordamida tenglamani ko‘paytuvchilarga ajratish va yechimlarni tizimli olish imkonidir.

Biroq, trigonometrik parametr t bo‘yicha davriylik sababli bir xil x qiymat turli t lar orqali takrorlanishi mumkin. Shuningdek, irratsional tenglamalarda aniqlanish sohasi (ildiz osti ifodalar) va kerak bo‘lsa sin t ning ishorasi shartlarini inobatga olib, yakuniy x yechimlarni asl tenglamada tekshirish tavsiya etiladi.

Xulosa

Maqolada ratsional va irratsional tenglamalarni trigonometrik funksiyalar orqali yechishning ba’zi usullari ko‘rsatildi. Aniqlanish sohasi tekshirilgach, $x=\cos t$ yoki $x=2\cdot\sin t$ kabi almashtirishlar yordamida tenglamani trigonometrik ko‘rinishga keltirib,

standart trigonometrik ayniyatlar orqali yechimlar topildi. Usul olimpiada va amaliy masalalarda uchraydigan ayrim algebraik tenglamalarni samarali yechishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Kodirov K. R., Nishonbaev A. S. On the scientific basis of forming students’ logical competence // ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal. – 2021. – T. 11. – №. 3. – C. 123–128.

2. Raximovich K. K. et al. Some Methods for Solving Fourth-Order Equations // International Journal of Innovative Analyses and Emerging Technology. – 2022. – T. 2. – №. 4. – C. 127–130.

3. Kodirov K. R. et al. COMPETENCE-BASED APPROACH IN TEACHING SOME ELEMENTS OF MATHEMATICS LESSON DESIGN METHODOLOGY // Scientific Bulletin of Namangan State University. – 2020. – T. 2. – №. 9. – C. 390–394.

ИНФРАСТРУКТУРА ЗАБВЕНИЯ

(Архитектура смерти в условиях дефицита земли и новая этика соседства с мертвыми в плотной городской застройке)

Отабеков Улуғбек Ғайрат ўғли
Расулова Зебинисо Дониер кизи
Университет науки и технологий

Аннотация: Статья посвящена формированию нового архитектурного направления — «инфраструктуры забвения», возникающего на стыке танатопрактик, урбанистики и этики памяти в условиях острого дефицита городских территорий. В работе впервые систематизируются типологические модели интеграции погребальных пространств в структуру плотной жилой и общественной застройки: вертикальные кладбища, колумбарии в составе жилых комплексов, мемориальные парки на месте реконструируемых некрополей, гибридные форматы «жилья с памятью». Автор вводит понятие «проксимити смерти» как нового фактора архитектурного программирования и анализирует психоэмоциональные, санитарно-гигиенические, юридические и композиционные аспекты сосуществования живых и мертвых в едином городском каркасе. На примере реализованных проектов в Японии, Скандинавии, Латинской Америки и экспериментальных концепций европейских архитектурных школ рассматривается эволюция от сегрегации к интеграции как доминирующей парадигме обращения с памятью в мегаполисах XXI века. Особое внимание уделяется трансформации традиционного ритуала прощания и адаптации религиозных норм к условиям сверхплотной застройки. Статья адресована архитекторам, урбанистам, исследователям memory studies и специалистам в области похоронного дела.

Ключевые слова: инфраструктура забвения, архитектура смерти, вертикальные кладбища, колумбарии, мемориальные парки, проксимити смерти, танатопрактики, интеграция некрополей, жилые комплексы с колумбариями, редевелопмент кладбищ, архитектура памяти, городская морфология, этика соседства, постумный урбанизм..

Смерть как градостроительная проблема

Город исторически формировался как пространство живых. Кладбища выносились за крепостные стены, позднее — на периферию, в санитарные зоны, отделенные от жилья промышленными полосами, транспортными магистралями или зелеными насаждениями. Эта модель сегрегации, закрепленная наполеоновским указом 1804 года и русским Сенатским указом 1723 года о запрете захоронений при церквях в черте города, доминировала более двух столетий.

Однако к 2020-м годам сложились принципиально новые условия:

1. Физический дефицит земли. В мегаполисах (Токио, Сан-Паулу, Москва, Лондон) свободные территории исчерпаны, а расширение кладбищ за счет пригородных зон вступает в конфликт с потребностями жилой застройки. Средний

коэффициент заполняемости городских некрополей в Европе достигает 92%, в Японии — 98%.

2. Демографический сдвиг. Высокая плотность населения и одновременно высокая смертность в стареющих обществах требуют принципиально иной пропускной способности инфраструктуры памяти.

3. Секуляризация и трансформация ритуалов. Уход от строгих конфессиональных предписаний делает возможным эксперименты с формой и местом захоронения.

4. Новая чувствительность. Современный горожанин готов к эстетизации смерти при условии деликатности архитектурного решения.

Возникает парадокс: смерть возвращается в центр города, но в принципиально новой оптике — не как угроза (эпидемиологическая или мистическая), а как инфраструктурный и этический вызов.

1. Проксимити смерти: Переопределение границ

Ключевым понятием, требующим введения, является проксимити смерти (proximity of death) — степень допустимой пространственной близости живого человека к месту физического нахождения останков или праха умершего. В традиционной культуре проксимити регулировалась жестко: церковный погост в центре поселения допускал соседство в несколько метров, однако секулярные кладбища XIX века формировали буферные зоны. Современные исследования показывают, что психологический дискомфорт у городских жителей возникает не столько от факта близости захоронений, сколько от визуальной и тактильной неконтролируемости этой близости.

Архитектура инфраструктуры забвения решает задачу контролируемой проксимити:

· визуальная нейтрализация (отсутствие прямого обзора мест захоронения из жилых окон);

· тактильное дистанцирование (раздельные входные группы, лифты, инженерные системы);

· семиотическое маркирование (деликатное обозначение границы без агрессивной символики).

2. Типология интеграционных моделей

2.1.Вертикальные кладбища

Наиболее радикальная форма уплотнения — кладбище как высотная доминанта. Пионером выступает Япония, где дефицит земли катастрофичен, а кремация является доминирующей практикой (99,9% захоронений).

Проект «Vertical Cemetery» (Аргентина, архитектор Матиас Москера, 2012) — конкурсная работа, предполагающая 26-этажную башню с ячейками для урн и католическими капеллами на каждом этаже. Конструктивно решена как вертикальный город: лифтовые ядра, общественные пространства на промежуточных уровнях, смотровая площадка на вершине. Критики указывали на «небесный билбординг» — превращение смерти в символ статуса.

Реализованный проект: Ruriden (Токио, 2014) — буддийский колумбарий нового типа. 2046 статуй будды, каждая из которых является светодиодным колумбарием. При посещении умершего родственник вставляет карту доступа, статуя подсвечивается. Это пример не столько вертикального кладбища, сколько информационно-насыщенного мемориального пространства, где архитектура становится интерфейсом памяти.

2.2.Колумбарии в структуре жилых комплексов

Наиболее спорная и этически напряженная модель. В 2018 году в Санкт-Петербурге девелопер «Легенда» анонсировал строительство жилого комплекса с встроенным колумбарием на первых этажах. Проект вызвал общественный резонанс и не был реализован, однако сама постановка вопроса знаменательна.

В отличие от российского опыта, в скандинавских странах и Германии интеграция колумбариев в жилые кварталы происходит через нейтральные архитектурные формы, не считываемые однозначно как «кладбищенские». Пример — колумбарий в районе Хаммарбю Шестад (Стокгольм), встроенный в подземный паркинг жилого дома. Выход на поверхность оформлен как скульптурная группа без крестов и надписей.

Архитектурные приемы деликатной интеграции:

· Заглубление колумбариев ниже уровня земли (цокольные, подземные этажи);

· Использование «нейтральных» материалов (кортеновская сталь, матовое стекло, бетон);

· Отсутствие ритуальной атрибутики во внешнем облике;

· Выделение отдельных входов, не связанных с парадными жилой части.

2.3. Реконструкция некрополей в мемориальные парки

Московский опыт реконструкции Донского кладбища и Ваганьковского показывает, что исторические некрополи при сохранении статуса действующих все более активно используются как рекреационные зоны. Однако подлинная инновация — проекты частичной музеефикации и десакрализации территорий.

Проект «Парк памяти» (Барселона, 2020) — реконструкция старого кладбища Монжуик. Предложено сохранить надгробия XIX века как артефакты ландшафтного дизайна, удалив останки в общую мемориальную стену. Территория открывается для свободного посещения без ритуальных функций.

Более радикальный подход — концепция кладбища-парка с ротацией захоронений. В Южной Корее действует система «30 лет»: через три десятилетия после захоронения, если родственники не продлевают аренду, останки кремируются и перемещаются в общий мемориал, а индивидуальное надгробие демонтируется. Архитектура таких кладбищ проектируется как трансформируемая, допускающая многократную смену «наполнения» при неизменном ландшафтном каркасе.

2.4. Гибридные форматы: Крематории + публичные пространства

Современный крематорий перестает быть «фабрикой смерти» и превращается в многофункциональный центр. Пример — крематорий в Хельсингборге (Швеция,

архитектор Йохан Селлман, 2019). Здание включает не только ритуальные залы, но и кафе, конференц-зал, художественную галерею. Это не маскировка, а архитектурная нормализация смерти: она становится одной из функций города наравне с образованием, досугом, торговлей.

3. Новая этика соседства: Эмпирические исследования

В 2021–2023 годах в Высшей школе урбанистики НИУ ВШЭ проводилось исследование отношения москвичей к возможному размещению колумбариев в структуре жилых кварталов.

Выборка: 1200 респондентов, жители спальных районов и Центрального округа.

Результаты:68% высказали принципиальное согласие при условии архитектурной нейтральности; 23% категорически против любых форм соседства; 9% не определились.

Главным фактором неприятия оказался не страх смерти, а опасение снижения рыночной стоимости недвижимости.

Исследование фиксирует сдвиг: от сакрального/профанного к прагматическому/эстетическому. Соседство с мертвыми перестает быть табу, становясь вопросом качества архитектурного решения.

4. Архитектурная морфология памяти

Инфраструктура забвения формирует собственный формальный язык:

1. Атектоничность. Колумбарии стремятся к исчезновению, растворению в ландшафте. Зеркальные фасады, зеленые кровли, заглубленные объемы.

2. Серийность и модульность. Ячейка как базовый элемент. Отказ от уникального надгробия в пользу унифицированного модуля (влияние экономики и идеи равенства перед смертью).

3. Свет как материал. Подсветка ячеек, световоды, доставляющие дневной свет в подземные колумбарии. Свет становится субститутом вечного огня.

4. Тактильность. Материалы, меняющие фактуру со временем: кортеновская сталь, дерево, медь. Архитектура, демонстрирующая собственную темпоральность.

5. Правовые и санитарные барьеры

Современное законодательство большинства стран (в том числе РФ) запрещает размещение кладбищ в селитебных зонах. Однако колумбарии с урнами юридически находятся в «серой зоне»: санитарные правила о разрывах в 300 метров писаны для грунтовых захоронений.

В 2020 году Мосгордума рассматривала законопроект о размещении колумбариев закрытого типа в составе многофункциональных комплексов. Документ не принят, но сама постановка вопроса на законодательном уровне свидетельствует о назревании изменений.

6. Культурная специфика и глобальные тренды

Япония. Максимальная интеграция. Колумбарии в торговых центрах, подземных переходах, офисных зданиях. Объясняется синкретизмом синтоизма и буддизма, отсутствием строгого запрета на контакт с мертвыми.

Латинская Америка. Вертикальные кладбища — элитарный формат (выше этажом — дороже место). Прямая корреляция высоты захоронения и социального статуса.

Скандинавия. Экологический дискурс. Кремация с минимальным выбросом CO2, биоразлагаемые урны, захоронения в лесопарках без фиксации координат.

Постсоветское пространство. Высокий уровень сопротивления, однако нарастающий запрос на достойную инфраструктуру памяти в условиях переполненности кладбищ-гигантов.

Заключение

От инфраструктуры забвения к архитектуре присутствия

Парадокс «инфраструктуры забвения» в том, что, решая утилитарную задачу утилизации останков, она неизбежно возвращает мертвых в город. Вертикальные кладбища и жилые комплексы с колумбариями — не столько про смерть, сколько про непрерывность присутствия.Архитектура перестает обслуживать разрыв и начинает обслуживать связь. Память материализуется не в вынесенных на периферию монументах, а в повседневном каркасе города. Эта тенденция будет только усиливаться по мере исчерпания территорий и трансформации ритуальных практик.

Задача архитектора — не имитировать отсутствие смерти, а проектировать условия для достойного сосуществования. Инфраструктура забвения становится, таким образом, одной из самых гуманитарно насыщенных областей современного урбанизма.

Список использованной литературы и источников

1. Ariès P. Человек перед лицом смерти / Пер. с фр. — М.: Прогресс, 1992. — 528
2. Rugg J. The emergence of the modern cemetery // Urban History. — 2000. — Vol. 27, № 2. — P. 213–233.
3. Kellaher L., Worpole K. Bringing the dead back home: Urban burial spaces and the challenge of the public/private divide // Mortality. — 2020. — Vol. 25, № 4. — P. 398
4. Woodthorpe K. Sustaining the contemporary cemetery: Implementing policy alongside conflicting perspectives // Mortality. — 2011. — Vol. 16, № 3. — P. 259
5. Mosquera M. Vertical Cemetery: Architectural competition entry // Arquine. — 2012.
6. Boret S.P. Japanese death memorials: Materiality, consumption and ritual // Journal of Material Culture. — 2018. — Vol. 23, № 2. — P. 189–207.
7. Nordh H., Evensen K.H. Qualities and functions of cemetery landscapes in Scandinavia // Landscape Research. — 2020. — Vol. 45, № 6. — P. 723–737.
8. Grau D. Memory parks: Barcelona's new approach to urban cemeteries // Urban Design International. — 2021. — Vol. 26. — P. 112–124.
9. Park S. Cremation and land use policy in South Korea // Asian Journal of Social Science. — 2019. — Vol. 47, № 3. — P. 341–359.

10. Sellman J. Architecture for the living and the dead: Helsingborg Crematorium // Arkitektur. — 2020. — № 3. — P. 28–37.

«RESEARCH AND PUBLICATIONS»
ILMIY NASHRLAR MARKAZI

ASOSIY MIQDORLAR BILAN BOG‘LIQ MATERIALNI O‘RGANISH ORQALI TALABALARDA AXBOROT MODELLASHTIRISH KO‘NIKMASINI TARKIB TOPTIRISH

O.Ch.Kuziyev –Xalqaro innovatsion universiteti

Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent

Sh.O.Jo‘rayeva - Xalqaro innovatsion universiteti

“Boshlang‘ich ta’lim” yo‘nalishi 4- kurs talabasi

E-mail:okuziyev4@gmail.com Tel:+998972132121

Annotatsiya: Ushbu maqolada oliy ta’lim muassasalari bitiruvchilarida boshlang‘ich sinf matematika kursi asosiy miqdorlari — uzunlik, massa, vaqt, hajm, tezlik, harorat kabi mavzuni o‘qitish metodikasini takomillashtirish orqali ularda axborot-modellashtirish ko‘nikmasini shakllantirish, axborot modellari va uning turlaridan foydalanishning ahamiyati, modellashtirish hamda loyihalashtirish metodlarining tarixi, ulardan ijtimoiy va iqtisodiy sohalarda foydalanish, shuningdek, matematikaning asosiy miqdorlarini o‘rganish mashg‘ulotlarida faol interaktiv metodlari, STEAM elementlari, hayotiy vaziyatlar asosidagi topshiriqlardan foydalanishning samaradorligi ilmiy asosda bayon etilgan.

Аннотация: В данной статье описываются научные основы совершенствования методики обучения выпускников начальной школы основным математическим величинам — длине, массе, времени, объему, скорости, температуре — с целью формирования навыков информационного моделирования, важность использования информационных моделей и их типов, история методов моделирования и проектирования, их применение в социально-экономической сфере, а также эффективность использования активных интерактивных методов, элементов STEAM и заданий, основанных на реальных жизненных ситуациях, при изучении основных математических величин.

Annotation: This article describes the scientific basis for improving the methodology for teaching elementary school graduates the basic quantities of mathematics - length, mass, time, volume, speed, temperature - in order to form information modeling skills, the importance of using information models and their types, the history of modeling and design methods, their use in the social and economic spheres, as well as the effectiveness of using active interactive methods, STEAM elements, and tasks based on real-life situations in the study of basic mathematical quantities.

Kalit so‘zlar: axborot-modellashtirish, model, miqdor, ta’lim, metodika, STEAM, kompetensiya, kasbiy faoliyat, integratsiya, strategiya, ijtimoiy taraqqiyot.

Ключевые слова: информационное моделирование, модель, количество, образование, методология, STEAM, компетентность, профессиональная деятельность, интеграция, стратегия, социальное развитие.

Keywords: information modeling, model, quantity, education, methodology, STEAM, competence, professional activity, integration, strategy, social development. Jahonda iqtisodiy munosabatlarni rivojlanishi, o‘sish va raqobatbardoshlikni ta’minlash har bir davlat aholisi farovonligini oshirish shartlaridan biridir. Insonlar ongida ertangi kun iqtisodiyoti bilim va yuqori texnologiyalar iqtisodiyoti degan fikr o‘z tasdig‘ini topib bormoqda. Davlatning strategik salohiyatini energiya manbalari emas, balki ilm, bilim, ma’lumot belgilaydi. Shu munosabat bilan, bo‘lajak pedagoglarning zamonaviy ta’lim berish metodlarini, dunyoning sohadagi ilg‘or tajribasiga tayanish, axborot texnologiyalarni o‘zlashtirishi dolzarblik kasb etadi. Ularning faoliyat modelini yaratish, har bir faoliyat jarayonni jumladan ta’lim jarayonini ham modellashtirish, ta‘lim muassasasining salohiyatini oshirish, rivojlantirish istiqbollarini bashorat qilish va tadqiqotlar o‘tkazish bilan bog‘liqdir masaladir.[5] Mustaqil O‘zbekistonimizda o‘qitishning samarali metodlari va axborot texnologiyalari o‘zgarishiga, pedagoglar tayyorlash sifatini baholash mezonlariga bog‘liq bo‘lgan ta’lim texnologiyalari asosida o‘quv faoliyatini tashkillashtirish metodlari bilan uyg‘unlashuvi pedagog-tadqiqotchilar faoliyati uchun keng imkoniyatlar taqdim etmoqda. Mamlakatimizda ta’lim jarayoniga jahon amaliyotida qabul qilingan yondashuvlar bosqichma-bosqich tatbiq etilmoqda. “Ilmiy-tadqiqot va innovatsiya bilan bog‘liq faoliyatini rag‘batlantirish, ilmiy va innovatsiya yutuqlarini amaliyotga joriy etishning samarali mexanizmlarini yaratish” hamda Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining asosiy faoliyat yo‘nalishlaridan biri ta’lim tizimida innovatsiyalarni ishlab chiqishni va joriy etishni ta’minlash kabi ustuvor vazifalar belgilangan.[3] Boshlang‘ich sinf matematika kursida asosiy miqdorlarni o‘rgatish o‘quvchilarning real hayot bilan bog‘liq matematik tasavvurlarini shakllantirishda muhim o‘rin tutadi. Miqdorlar ustida ishlash nafaqat son, sonli ifodalar va amaliy hisob-kitob bilan bog‘liq bilim va malakalarning rivojlanishiga xizmat qiladi, balki o‘quvchilarning kundalik faoliyatida qo‘llashi mumkin bo‘lgan amaliy ko‘nikmalarni ham rivojlantiradi. Uzunlik, massa, vaqt, hajm, harorat kabi miqdorlar boshlang‘ich yoshdagi bolalarning atrof muhitni o‘lchash va tushunish qobiliyatlarini mustahkamlaydi.[5] Mamlakatimizda ta’lim tizimida amalga oshirilayotgan yangilanishlar, xususan, kompetensiyaviy yondashuv, zamonaviy pedagogik texnologiyalar, STEAM elementlarini joriy etish jarayoni asosiy miqdorlarni o‘rgatish metodikasini ham takomillashtirishni talab qiladi. Boshlang‘ich sinfda miqdorlar haqida to‘g‘ri tasavvur shakllantirish matematik savodxonlikka qo‘yilgan dastlabki ilk qadam hisoblanadi. Shu munosabat bilan ta’lim jarayonida pedagoglar duch keladigan muammolar va ularni samarali usullar orqali bartaraf etish, ilmiy-uslubiy yondashuvlar, o‘quv mashg‘ulotlarini ilmiylik asosida tashkil etish, takomillashtirish bo‘yicha mulohazalar keltiriladi.[6] Matematik tushincha bo‘lgan miqdor — bu predmet yoki hodisaning o‘lchash mumkin bo‘lgan belgisi. Boshlang‘ich ta’limda o‘rgatiladigan asosiy miqdorlar bilan bog‘liq axborotlarni keltib o‘tadigan bo‘lsak

bular quyidagilardir: • Uzunlik: metr, santimetr, millimetr asosida o‘lchanadi. • Massa: kilogramm, gramm birliklarida ifodalanadi. • Vaqt: soat, daqiqa, soniya kabi birliklarda o‘lchanadi. • Hajm: litr, millilitr tushunchalari orqali beriladi. • Harorat: Selsiy shkalasi yordamida o‘lchanadi. • Tezlik: birlik vaqt ichida bosib o‘tilgan masofa orqali aniqlanadi (km/soat). Boshlang‘ich sinf ta’limda miqdor (kattalik) tushunchalarini shakllantirish jarayoni o‘quvchilar ongida o‘lchash, taqqoslash va matematik tasavvurlarni mustahkamlashga xizmat qiladi. Dastlab, o‘quvchilar tasavvurida miqdor haqida oddiy va aniq tushuncha hosil bo‘lishi lozim; bu esa amalda kundalik hayotiy faoliyat orqali amalga oshiriladi. Masalan, umumiy o‘rta ta’lim uchun mo‘ljallangan darsliklarda rasm yoki o‘quv qurollari - qalam, daftar, kitoblar kabi predmetlarni o‘lchamlarini taqqoslash orqali uzunlik yoki massa kattaligining dastlabki belgilari namoyon bo‘ladi. Pedagogning vazifasi shunday vaziyatlarni tashkil qilishki, o‘quvchi ko‘zi bilan sezganini sinchkovlik bilan o‘lchashni o‘rganishi lozim bo‘lsin. Bu bosqichda aynan o‘lchash asboblarini yuzaki emas, balki amaliy qo‘llash yo‘li bilan tanishtirish muhim: chizg‘ich bilan uzunlikni belgilash, oddiy tarozi bilan massani solishtirish vositalari bilan og‘irlikni idrok etish, soat va uning millari orqali vaqtni his qilish — bular o‘quvchi uchun miqdor tushunchasini hayotiy ma’noda qabul qilishini va bu borada modellashtirish uchun zamin bo‘ladigan ko‘nikmani hosil qilib boradi.[2] Keyingi muhim jihat — o‘lchash natijalarini to‘g‘ri talqin qilish va ularni taqqoslash bilan bog‘liq axborotlarni anglash , qayta ishlash va uzatish, model sifatida baholash qobiliyatini rivojlantirish. Masofa, massa, vaqtni faqat raqamlar bilan emas, balki ularning munosabati, qiymati, amaliy mazmuni orqali anglash kerakligi bilan ahamiyatli ekanini his qildirishdir. Masalan, uzunlik haqida so‘z borganda, o‘quvchi taqqoslashda faqat “uzun” yoki “qisqa” kabi so‘zlarni eslab qolmasdan, o‘lchash birliklari qanday ishlatilishi, bir birlik nechta kichik birlikdan iboratligi, va ular orasidagi munosabatni o‘rganishi lozim. Bu bilimlarni mustahkamlashda sodda amaliy topshiriqlar juda samarali: bog‘da yoki sinfda turli buyumlarni tanlab, ularni metr va santimetr yordamida o‘lchab, natijalarni bir-biri bilan solishtirish va yozib qo‘yish orqali o‘quvchilar bilimni amalda sinab ko‘radilar. Shu narsa ularning fikrlash jarayonini mantiqiy va tizimli yo‘nalishga yo‘naltiradi.[1] Miqdor tushunchalarini o‘rgatish jarayonida ularning birliklari bilan ishlashga alohida e‘tibor qaratish zarur. Bir kattalik birligini boshqasi bilan munosabatini amaliy masalalar, misollar asosida ko‘rsatish lozim. Masalan, metrni santimetr, kilogrammni gramm bilan munosabatini ular orasidagi tafovutni anglashga zamin yaratadi. Miqdorlarni hayotiy vaziyatlarga bog‘lash o‘qitish jarayonining samaradorligini oshiradi. O‘quvchilarga kundalik hayotdan olingan masalalarni yechishga imkon beruvchi topshiriqlar ularning matematika va uning elementlarini hayotda qanday qo‘llash, tadbiq etish mumkinligini anglashlariga xizmat qiladi. Masalan, texnologik xarita bo‘yicha dori-darmon tayyorlashda ulushlar hajmini hisoblash, harakatlanish bilan bog‘liq masalalarda vaqt va tezlik bog‘liqligini tushunish, predmetlarning massasini uning tovar narxini hisoblash kabi topshiriqlar orqali bola o‘rganayotgan tushunchaning haqiqiy qiymatini sezadi. Bunday yondashuv o‘quvchilarda motivatsiyani oshiradi, chunki ular o‘z bilimlarini nafaqat darslik uchun, balki real hayot muammolarini hal etishda qo‘llash

imkonini ko‘radilar. O‘quv mashg‘ulotlarini loyihalashda ijodiy yondashib, STEAM elementlarini kiritib, interaktiv metodlarni qo‘llagan holda miqdorlarni o‘rgatish muhim ahamiyatga ega. Zamonaviy texnologiyalar, jumladan interaktiv doskalar va ta’lim ilovalari, virtual o‘lchov simulyatorlari darslarni yanada jonli va esda qolarli qiladi; lekin ularni qo‘llashda uslubiy jihatga e’tibor berish lozim, ya’ni texnologiya o‘quv jarayonini qo‘llab quvvatlashi, asosan, o‘qituvchining pedagogik ta’limiy, tarbiyaviy, umumlashtiruvchi maqsadlariga xizmat qilishi kerak. Bo‘lajak pedagoglarga tavsiya qilish kerak bo‘lgan yana bir muhim jihat — o‘lchash asboblaridan to‘g‘ri foydalanishni muntazam ravishda mashq qilish. Ko‘plab xatoliklar aniq o‘lchash texnikasiga rioya qilinmaganda yuzaga keladi. Shuning uchun o‘quv mashg‘ulotlarida o‘lchash qoidalarini oddiy va tushunarli tarzda takrorlash, o‘quvchilarga o‘lchash jarayonida lozim bo‘lgan jihatlarni amaliy ko‘rsatish kerak. Misol uchun, chizg‘ichni joylashish holati, tarozi ko‘rsatkichini rostlash, termometrni qo‘lda ushlash kabi oddiy qoidalar o‘quvchilarda katta aniqlik keltiradi va o‘lchash madaniyatini shakllantiradi. Dars metodikasini takomillashtirishda baholash usullarini ham qayta ko‘rib chiqish lozim. Baholash nafaqat o‘quvchining axborotlarni qabul qilish, ma’lumotlarni yodlash darajasini, balki uning amaliy ko‘nikmalari, muammoni hal etish qobiliyati va mustaqil fikrlashini ham o‘lchashi kerak. Shu sababdan diagnostik va formatif baholash usullarini ko‘proq qo‘llash, o‘quvchining o‘z-o‘zi baholashini rag‘batlantirish, shuningdek loyiha va portfoliolar orqali o‘quv jarayonidagi natijalarni ko‘rsatish tavsiya etiladi. Bu yondashuv o‘quvchilarning rivojlanish dinamikasini aniqlashga imkon beradi va darslarni individuallashtirishga zamin yaratadi. Boshlang‘ich sinflarda asosiy miqdorlar ustida ishlash metodikasini takomillashtirish o‘quvchilarning matematik savodxonligini rivojlantirishda, amaliy hayotga tayyorlashda va mantiqiy fikrlashni shakllantirishda muhim o‘rin tutadi. Ta’lim jarayonida miqdorlar haqida tasavvur hosil qilishdan boshlab, ularni amaliy vaziyatlarda qo‘llashgacha bo‘lgan jarayon tizimli tashkil qilinishi zarur. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar, STEAM yondashuvi, ko‘rgazmali vositalar, tajribalar va o‘yinlar miqdorlarni o‘rgatishda yuqori samaradorlik beradi. Takomillashtirilgan metodika bir so‘z bilan aytganda o‘quvchilarda mustaqil fikrlash, kuzatish, tahlil qilish va amaliy ko‘nikmalarni shakllantiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1.Mamatova M., Xudoyberdiyeva Sh. Boshlang‘ich ta’lim metodikasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 2020.

2.Qosimova M., Abduqodirova G. Boshlang‘ich sinflarda matematika o‘qitish metodikasi. – Toshkent: Tafakkur, 2018.

3.Xasanov B. Matematika o‘qitishning nazariy asoslari. – Toshkent: O‘zbekiston Milliy universiteti nashriyoti, 2021.

4.Kuziev O. C. MODEL FORMATION OF INFORMATION-SIMULATED SKILLS IN PROFESSIONAL ACTIVITIES OF FUTURE ENGINEERS //Annali d'Italia. – 2021. – №. 22-2. – С. 24-26.

5.Кузиев О. Ч. ТЕХНИКА ЙЎНАЛИШИ ТАЛАБАЛАРИНИ КАСБИЙ АХБОРОТМОДЕЛЛАШТИРИШ КЎНИКМАЛАРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ОМИЛЛАРИ //Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. – 2022. – Т. 2. – №. 10. – С. 1183-1189.

6.Kuziev O. МУҲАНДИСЛАРДА КАСБИЙ АХБОРОТ МОДЕЛЛАШТИРИШ КЎНИКМАЛАРИНИ ШАКЛЛАНТИРИШ БЎЙИЧА МУҲИМ ТАВСИЯЛАР //Science and innovation. – 2022. – Т. 1. – №. A7. – С. 591-595. 7.Kuziev O. MAIN RECOMMENDATIONS FOR THE FORMATION OF PROFESSIONAL SKILLS OF INFORMATION MODELING IN ENGINEERS //Science and Innovation. – 2022. – Т. 1. – №.

7. – С. 591-595.

8.Kuziyev O. C. MODEL OF DEVELOPMENT OF INFORMATION-MODELING SKILLS IN FUTURE ENGINEERS //Academia Repository. – 2023. – Т. 4. – №. 11. – С. 44-49.

9.Кузиев О. Ч. Психолого-педагогические основы профессионально педагогической направленности обучения специальным дисциплинам в республике Узбекистан //Мир образования-образование в мире. – 2012. – №. 3. – С. 66-70.

10.Cho'Liyevich O. Q. Z. MAKTAB GEOMETRIYA KURSIDA ANALOGIYA METODI //Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. – 2021. – Т. 1. – №. 2. – С. 84-95.

11.Кузиев О. Ч. Муҳандислик фаолиятини моделлаштиришнинг ҳозирги ҳолатини таҳлилий жиҳатлари //Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. – 2021. – Т. 1. – №. 6. – С. 318-323.

12.Chuliyevich K. O. Ways of Implementation in the Future of the Formation of Information and Modeling Skills in Students of the Technical Direction //Eurasian Scientific Herald. – 2022. – Т. 11. – С. 22-26.

13.Кузиев О. Ч. Муҳандислик фаолиятини моделлаштиришнинг ҳозирги ҳолатини таҳлилий жиҳатлари //Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. – 2021. – Т. 1. – №. 6. – С. 318-323.

O'ZBEK TILI FANI DARSIDA QO'LLANILADIGAN INTERAKTIV METODLAR

Sayyora Eshbekova To’rabek qizi
Sirdaryo viloyati Guliston tumani 1-umumiy o’rta ta’lim maktabi

O’zbek tili fani o’qituvchisi

Annotatsiya

Ushbu ishda o‘zbek tili fani darslarida interaktiv metodlarning qo‘llanilishi va samaradorligi tahlil qilinadi. Interaktiv metodlar o‘quvchilarning faol ishtirokini ta’minlab, muloqot, tanqidiy fikrlash va nutqiy ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Darslarda guruh ishlari, muhokamalar, rolli o‘yinlar, viktorinalar va multimediya vositalari kabi metodlardan foydalanish o‘quv jarayonini qiziqarli va samarali qiladi, ta’lim sifatini oshiradi hamda o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi o‘zaro faoliyatni kuchaytiradi.

Аннотация:

В данном исследовании анализируется применение и эффективность интерактивных методов на уроках узбекского языка. Интерактивные методы обеспечивают активное участие учащихся и способствуют развитию коммуникативных, критического мышления и речевых навыков. Использование таких методов, как групповая работа, обсуждения, ролевые игры, викторины и мультимедийные инструменты, делает процесс обучения увлекательным и эффективным, повышает качество образования и усиливает взаимодействие между учителем и учениками.

Annotation:

This study analyzes the application and effectiveness of interactive methods in Uzbek language lessons. Interactive methods ensure students’ active participation and help develop communication, critical thinking, and speaking skills. Using methods such as group work, discussions, role-playing, quizzes, and multimedia tools makes the learning process engaging and effective, improves the quality of education, and enhances interaction between teachers and students.

Kalit so’zlar:interaktiv, ,,yashil ruchka “ metodi,o’z-o’zini baholash,feedback, Aqliy hujum,xotira mashqi

Ключевые слова: интерактивный, метод «зелёная ручка», самооценка, обратная связь, мозговой штурм, упражнение на память

Keywords: interactive, “green pen” method, self-assessment, feedback, brainstorming, memory exercise

O‘zbek tili darslarida interaktiv metodlar deganda o‘quvchini faqat tinglovchi emas, balki faol ishtirokchiga aylantiradigan o‘qitish yo‘llari tushuniladi. Bunda o‘quvchilar savol beradi, fikr bildiradi, misollar keltiradi, kichik guruhlarda ishlaydi va o‘rganilayotgan til hodisasini amaliy qo‘llash orqali chuqurroq anglaydi. Natijada dars jonlanadi, o‘quvchining nutqi va fikrlashi faollashadi, o‘z fikrini asoslab aytish ko‘nikmasi rivojlanadi.

Interaktiv metodlar ayniqsa til fanida muhim, chunki til faqat qoida emas, u muloqot va amaliyotdir. Masalan, so‘z turkumlari, gap bo‘laklari yoki imlo qoidalari o‘rganilganda o‘quvchi o‘zi misol tuzsa, tahlil qilsa, xatoni topsa va tuzatsa, bilim mustahkam bo‘ladi. Zamonaviy ta’lim jarayonida o‘quvchilarning faol ishtirokini ta’minlash, ularning mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirish va darsni qiziqarli qilish muhim ahamiyatga ega. An’anaviy usullar ko‘pincha passiv o‘rganishga olib keladi, bu esa tilni o‘rganish jarayonini sekinlashtiradi. Shu bois, interaktiv metodlar o‘zbek tili fani darslarida keng qo‘llanilmoqda. Interaktiv metodlar – bu o‘quvchilarni faol ishtirok etishga undaydigan, muloqot va fikrlash qobiliyatlarini rivojlantiradigan pedagogik yondashuvdir.

Interaktiv metodlarning mohiyati va turlari

Interaktiv metodlar o‘quvchilarning bilim olish jarayonida faol bo‘lishini ta’minlaydi. Ular darsni yagona o‘qituvchi nutqi bilan cheklamasdan, o‘quvchilarni faol qatnashishga undaydi. O‘zbek tili darslarida qo‘llaniladigan asosiy interaktiv metodlar quyidagilardan iborat:

1. Guruh ishlari – o‘quvchilar kichik guruhlarga bo‘linib, muayyan vazifalarni birgalikda bajaradilar. Bu metod o‘zaro muloqot va jamoaviy ish ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

2. Rollar bilan o‘yinlar – o‘quvchilar turli vaziyatlarda rollarni ijro etib, og‘zaki nutq va muloqot ko‘nikmalarini oshiradilar.

3. Viktorina va testlar – bilimlarni mustahkamlash va darsni qiziqarli qilishning samarali usuli.

4. “Yashil ruchka” metodi – o‘quvchilar o‘z ishlarini tekshirib, xatolarini aniqlash va tuzatish orqali o‘z-o‘zini baholash ko‘nikmalarini rivojlantiradilar. ,,Yashil ruchka” metodida o’quvchi o’z-o’zini baholashni o’rganadi va faqatgina xatolarini emas,to’g’ri javoblarini ham ko’ra biladi.Natijada o’rganishga bo’lgan ishtiyoqini ham oshiradi.

5. Aqliy hujum (brainstorming) – o‘quvchilar biror mavzu bo‘yicha erkin fikr almashib, yangi g‘oyalar ishlab chiqadilar. Aqliy hujum darsning boshida qo‘llansa, o‘quvchilarning avvalgi tajribasi faollashadi va yangi mavzuga tabiiy ko‘prik yaratiladi. Darsning o‘rtasida fikrlarni guruhlash orqali o‘qituvchi tartibli bilim tuzilmasini shakllantiradi, bu esa o‘quvchiga metodlarni vazifasiga ko‘ra ajratib olishni o‘rgatadi. Yakunda amaliy mini-topshiriq o‘quvchining faqat sanab berish emas, balki real mavzuga mos metod tanlash kompetensiyasini mustahkamlaydi

6. Xotira mashqlari – so‘z boyligini oshirish, nutqni tezlashtirish va mustahkamlashga yordam beradi.

7. Feedback (fikr-mulohaza) – o‘quvchilar va o‘qituvchi o‘rtasida fikr almashish jarayoni bo‘lib, bilim va ko‘nikmalarni baholash imkonini beradi.

Bu sahna asari buyuk astronom va hukmdor Mirzo Ulug‘bek hayotiga bag‘ishlangan. Unda ilm-fan va siyosatning o‘zaro to‘qnashuvi, bilimga bo‘lgan ehtiyoj va unga qarshi kurashlar badiiy jihatdan aks ettirilgan. Mirzo Ulug‘bekning ilmiy faoliyati va uning siyosiy qarashlari o‘rtasidagi murakkab munosabatlar dramaturgik yo‘sinda yoritilgan. Bu asar o‘z davrida ham, bugungi kunda ham katta qiziqish bilan o‘rganilmoqda. Shayxzodaning she’rlari insoniy tuyg‘ular, adolat va haqiqat mavzulariga bag‘ishlangan bo‘lib, ular bugungi kunda ham dolzarbligini saqlab qolgan.

Maqsud Shayxzoda o‘zbek tiliga jahon adabiyotining eng muhim asarlarini tarjima qilgan. Uning tarjimalari faqatgina so‘zma-so‘z tarjima bo‘lib qolmay, balki asarlarning ma’naviy-estetik mohiyatini saqlab qolgan holda, milliy tafakkur va ruhiyatga moslashtirgan. Uning tarjimalari yuqori badiiy saviyaga ega bo‘lib, bugungi kunda ham o‘z qadrini yo‘qotmagan.

Maqsud Shayxzoda jahon adabiyotini o‘zbek kitobxonlariga tanitgan tarjimonlardan biri hisoblanadi. U rus va jahon adabiyotining mashhur asarlarini o‘zbek tiliga o‘girgan.

1. Aleksandr Pushkin – “ Mis chavandoz”

Shayxzoda rus adabiyotining buyuk shoirlaridan biri Aleksandr Pushkinning mashhur "Bronza chavandoz" dostonini o‘zbek tiliga tarjima qilgan. Tarjimada asarning badiiy uslubi va hissiyotlari aniq saqlanib qolgan:

Pushkin (asl matn):

“На берегу пустынных волн

Стоял он, дум великих полн”

Shayxzodaning tarjimasi:

"Bo‘m-bo‘sh qirg‘oqda u turardi,"

"Buyuk o‘ylar og‘ushida!"

Shayxzoda bu tarjimada asl asarning poetik tuzilishini saqlab qolgan holda, o‘zbek tiliga xos ohang va mazmunni saqlagan.

2. Mixail Lermontov – “Men chiqaman yolg‘iz yo‘lga”

Shayxzoda rus romantik shoirlaridan biri Mixail Lermontovning “Men chiqaman yolg‘iz yo‘lga” she’rini tarjima qilgan.

Lermontov (asl matn):

"Выхожу один я на дорогу;

Сквозь туман кремнистый путь блестит;

Ночь тиха. Пустыня внемлет богу,

И звезда с звездою говорит.."

Shayxzodaning tarjimasi:

"Men chiqaman yolg‘iz yo‘lga,"

"Tumanlar orasida yaltiraydi yo‘l."

Bu misollardan ko‘rinib turibdiki, Shayxzodaning tarjimalari yuqori badiiy saviyaga ega bo‘lib, u asarning ruhini, hissiyotini va poetik uslubini saqlagan holda o‘zbek tiliga mohirlik bilan o‘girgan.

Uning tarjima asarlari bugungi kunda ham katta qimmatga ega bo‘lib, o‘zbek kitobxonlariga jahon adabiyotining eng yaxshi namunalarini taqdim etishda muhim o‘rin tutgan.

Xulosa

Maqsud Shayxzoda o‘zbek adabiyotining yirik namoyandalaridan biri bo‘lib, uning asarlari hanuzgacha dolzarbligini yo‘qotmagan. Uning tarixiy dramalari va she’rlari o‘zbek xalqining milliy g‘ururi va tarixi bilan bog‘liq. Shayxzodaning ijodi nafaqat o‘zbek adabiyoti, balki jahon adabiy merosining muhim qismi sifatida qadrlanadi. Shayxzoda ijodining gultoji hisoblangan "Jaloliddin Manguberdi" va "Mirzo Ulug‘bek" dramalari shunchaki tarixiy xronika emas, balki millatning o‘zligini anglash darsligidir. Adib o‘tmish siymolari orqali bugungi kunning ma’naviy muammolariga yechim izlaydi. Uning talqinida Ulug‘bek — faqatgina munajjim emas, balki jaholatga qarshi ma’rifat bilan kurashgan fojiaviy qahramon, Manguberdi esa — vatan mustaqilligi yo‘lida jonini fido qilgan sadoqat timsolidir. Ushbu asarlar bugungi yosh avlod uchun vatanparvarlik va qat’iyatning yuksak namunasidir. Shayxzodaning she’riyatiga nazar tashlasak, unda Sharqona hikmat va G‘arbiy intellektualizmning uyg‘unligini ko‘ramiz. U o‘zining mashhur "Toshkentnoma" dostonida shaharni shunchaki obidalar majmuasi sifatida emas, balki do‘stlik, madaniyat va sivilizatsiya o‘chog‘i sifatida kuyladi. Uning lirik qahramoni doimo harakatda, izlanishda va koinot sirlarini anglashga tashna ruhdir. "Inson baxti — kurashda, mehnatda va o‘zidan keyin qoladigan ezgu izdadir," — degan g‘oya uning butun ijodiy yo‘lini yoritib turadi. Shayxzoda nafaqat yozuvchi, balki buyuk ko‘prik ham edi. U Shekspir, Pushkin, Lermontov va Nizomiy kabi jahon adabiyoti gigantlarini o‘zbek tilida so‘zlatdi. Ayniqsa, Shekspirning **"Hamlet"** fojiasini o‘zbek tiliga o‘girishi milliy tarjimachilik maktabida inqilobiy voqea bo‘ldi. Bu mehnatlari bilan u o‘zbek tilining naqadar boy, har qanday murakkab falsafiy tushunchalarni ifodalashga qodir ekanligini isbotlab berdi. Bugungi kunda Maqsud Shayxzoda merosi biz uchun "ma’naviy xazina" bo‘lib xizmat qilmoqda. Uning asarlari teatr sahnalaridan tushmayotgani, she’rlari hamon sevib o‘qilayotgani adibning xalq qalbidan

chuqur joy olganidan dalolat beradi. Shayxzoda shaxsiyati va ijodi bizni quyidagilarga chorlaydi:

O‘z tariximizni hurmat qilish va undan saboq olish;

Ilm-fan va ma’rifat yo‘lidan og‘ishmaslik;

Insoniylik va milliy g‘ururni har narsadan baland tutish.

Xulosa qilib aytganda, Maqsud Shayxzoda — o‘zbek adabiyoti osmonida mangu porlovchi yulduzdir. Uning qalamiga mansub har bir satr vaqt sinovlaridan o‘tib, kelajak avlodlar uchun ham mayoq bo‘lib qolaveradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

Shayxzoda, M. (2012). *Tanlangan asarlar* (6 jildlik). Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Nashriyot-matbaa ijodiy uyi.

Shayxzoda, M. (1958). *Mirzo Ulug‘bek* (Tragediya). Toshkent: Davlat badiiy adabiyot nashriyoti.

Shayxzoda, M. (1964). *Toshkentnoma* (Lirik doston). Toshkent: Badiiy adabiyot nashriyoti

G‘afurov, I. (1982). *O‘tli qalb: Maqsud Shayxzoda hayoti va ijodi haqida ocherk*. Toshkent: Yosh gvardiya.

Zokirov, M. (2008). *Maqsud Shayxzoda: Adabiy-tanqidiy ocherk*. Toshkent: Fan.

Sharafiddinov, O. (2004). *Ijodni anglash baxti*. Toshkent: Sharq (Ushbu kitobda Shayxzoda ijodiga bag‘ishlangan maxsus boblar mavjud).

Qo‘shjanov, M. (2000). *O‘zbek adabiyoti durdonalari: Shayxzoda mahorati*. Toshkent: Ma’naviyat.

Karimov, N. va boshqalar. (2005). *XX asr o‘zbek adabiyoti tarixi*. Toshkent: O‘qituvchi.

O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. (2000-2005). "Maqsud Shayxzoda" maddasi. Toshkent: Davlat ilmiy nashriyoti.

KIFRT ASOSIDA BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARNING METODIK KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH

Muallif: Hikmatov Sh. (magistrant, TDTU)
Ilmiy rahbar: Dotsent Boettger Ch

Annotatsiya: Maqolada bo‘lajak o‘qituvchilarning metodik kompetentligini rivojlantirishga qaratilgan KIFRT – Kasbiy identifikatsiya va faol rivojlanish tizimi modeli tahlil qilingan. Bo‘lajak pedagoglarning kasbiy shakllanishini tizimli ravishda tashkil etish, ularning metodik tayyorgarligini rivojlantirish hamda kasbiy identifikatsiyasini mustahkamlash mexanizmi keltirilgan. Tizim diagnostika, rivojlantirish, kasbiy identifikatsiya hamda baholash va barqarorlashtirish bosqichlaridan iborat bo‘lib, bo‘lajak pedagoglarning professional o‘sishini uzluksiz qo‘llab-quvvatlashni nazarda tutadi. KIFRT tizimi bo‘lajak pedagoglarning metodik kompetentligini rivojlantirish, ularning kasbiy motivatsiyasini oshirish va ta’lim jarayonining samaradorligini ta’minlashda muhim ahamiyatga ega ekanligi ko‘rsatilgan.

Kalit so‘zlar: metodik kompetentlik, kasbiy identifikatsiya, pedagogik innovatsiya, professional rivojlanish, ta’lim sifati, KIFRT tizimi.

Kirish

Bugungi kunda ta’lim tizimining modernizatsiyasi bo‘lajak pedagoglardan nafaqat chuqur nazariy bilimlarga ega bo‘lishni, balki zamonaviy metodik yondashuvlarni samarali qo‘llay olishni ham talab etadi. Ta’lim sifati ko‘p jihatdan bo‘lajak o‘qituvchining metodik kompetentligiga, bo‘lajak pedagogik mahoratiga va innovatsion fikrlashiga bog‘liqdir. Shu sababli bo‘lajak pedagoglarning kasbiy rivojlanishini ta’minlashga qaratilgan tizimli mexanizmlarni ishlab chiqish zamonaviy pedagogika fanining muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

Metodik kompetentlik bo‘lajak pedagogning ta’lim jarayonini samarali tashkil eta olish qobiliyatini ifodalaydi. U nazariy bilimlar, amaliy ko‘nikmalar, innovatsion yondashuvlar hamda pedagogik refleksiya elementlarini o‘z ichiga oladi. Zamonaviy bo‘lajak pedagogik tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, bo‘lajak o‘qituvchining metodik kompetentligini rivojlantirish faqatgina bilim berish bilan cheklanmaydi, balki bo‘lajak pedagogning o‘z kasbiy faoliyatini anglash, refleksiya qilish va doimiy ravishda takomillashtirib borish jarayonini ham o‘z ichiga oladi.

Xalqaro tajribada bo‘lajak pedagoglarning professional rivojlanishini ta’minlash uchun turli metodik yondashuvlar ishlab chiqilgan. Jumladan, Lesson Study, Teacher Learning Circles hamda TALIS tadqiqotlari bo‘lajak pedagoglarning kasbiy faoliyatini rivojlantirishda samarali metodlar sifatida e’tirof etilgan. Ushbu yondashuvlar bo‘lajak pedagoglar o‘rtasida hamkorlikni rivojlantirish, tajriba almashish hamda ta’lim jarayonini takomillashtirishga xizmat qiladi.

Shu nuqtai nazardan, bo‘lajak pedagoglarning metodik kompetentligini rivojlantirishga qaratilgan yangi tizimlarni ishlab chiqish muhim ilmiy va amaliy

ahamiyatga ega. Ushbu maqolada bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy rivojlanishini ta’minlashga qaratilgan KIFRT – Kasbiy identifikatsiya va faol rivojlanish tizimi modeli tahlil qilinadi.

Tadqiqot metodologiyasi

Mazkur tadqiqotda bo‘lajak pedagoglarning metodik kompetentligini rivojlantirish jarayonini o‘rganish uchun bir qator ilmiy metodlardan foydalanildi. Jumladan, pedagogik tahlil, taqqoslash, umumlashtirish hamda kuzatish metodlari qo‘llanildi. Shuningdek, bo‘lajak o‘qituvchilarning metodik tayyorgarlik darajasini aniqlash maqsadida diagnostik so‘rovnomalar, kompetensiya xaritalari hamda refleksiya usullaridan foydalanildi.

Tadqiqot davomida xalqaro pedagogik tajriba, xususan, OECD tomonidan o‘tkazilgan TALIS tadqiqotlari hamda zamonaviy pedagogik innovatsiyalar tahlil qilindi. Ushbu yondashuvlar asosida bo‘lajak pedagoglarning metodik kompetentligini rivojlantirishga qaratilgan integratsion model ishlab chiqildi.

KIFRT tizimining nazariy asoslari

KIFRT – Kasbiy identifikatsiya va faol rivojlanish tizimi bo‘lajak pedagoglarning metodik kompetentligini rivojlantirishga qaratilgan kompleks model hisoblanadi. Ushbu tizim bo‘lajak pedagogning kasbiy shakllanish jarayonini tizimli ravishda tashkil etishga xizmat qiladi.

Kasbiy identifikatsiya bo‘lajak pedagogning o‘zini kasb egasi sifatida anglash jarayonidir. Bu jarayon bo‘lajak pedagogning kasbiy qadriyatlari, maqsadlari hamda faoliyat strategiyalarini shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi. bo‘lajak pedagog o‘z kasbini chuqur anglagan holda faoliyat olib borgan taqdirda, u ta’lim jarayonida yuqori natijalarga erishishi mumkin.

KIFRT tizimi bo‘lajak pedagoglarning kasbiy rivojlanishini quyidagi to‘rtta bosqich asosida tashkil etishni nazarda tutadi**:**



1. Diagnostika bosqichi – “Bo‘lajak o‘qituvchini aniqlash”

Maqsad: Bo‘lajak o‘qituvchining mavjud uslubiy tayyorgarlikini, o‘ziga xos yondashuvini, kuchli va zaif tomonlarini aniqlash. Buni quyidagi yondashuvlar asosida amalga oshirsak bo‘ladi.

1.1 So‘rovnoma orqali aniqlash

So‘rovnomalar bo‘lajak pedagoglarning metodik faoliyatini tahlil qilishga yordam beradi. Masalan, darsni rejalashtirish usullari, interfaol metodlardan foydalanish darajasi hamda baholash strategiyalari o‘rganiladi. Bo‘lajak o‘qituvchilarga quyidagi bloklardan iborat maxsus tuzilgan so‘rovnoma beriladi:

A) Metodik kompetensiya bo‘yicha:

- Darsga tayyorgarlik ko‘rishda qanday metodlardan foydalanasiz?
- O‘quvchilarni baholashda qaysi usullarni ko‘proq qo‘llasiz?
- Qanday interfaol metodlarni darsda muntazam qo‘llaysiz?

B) Yondashuv va shaxsiy uslub bo‘yicha:

- Darsni rejalashtirishda nimalarga ko‘proq e’tibor berasiz?
- O‘quvchilarning individualligini hisobga olish siz uchun qanchalik muhim?

C) Refleksiya va o‘zini baholash bo‘yicha:

- So‘nggi o‘rganilgan yangi metodlardan qaysi biri sizga ma’qul keldi?
- O‘zingizning metodik malakalaringizni qanday darajada deb hisoblaysiz?
- Ta’lim jarayonida sizning bo‘lajak pedagogik faoliyatingizga salbiy ta’sir ko‘rsatuvchi omillar

1.2 Kompetensiyalar xaritasini tuzish

Bu bo‘lajak pedagoglarning mavjud kompetensiyalarini aks ettiruvchi tahliliy sxema yoki jadval hisoblanadi. Mazkur xarita orqali pedagogning mavjud bilim, ko‘nikma va malakalari aniqlanadi hamda rivojlantirilishi zarur bo‘lgan yo‘nalishlar belgilab olinadi. Bu

metodda har bir bo‘lajak pedagogning kompetensiyalari quyidagi mezonlar bo‘yicha tahlil qilinadi:

1.2-jadval. Bo‘lajak o‘qituvchining kompetensiyalari tahlil qilish mezonlari

Asosiy ko‘rsatkichlar	Baholash mezoni	Ball (1–5)
Darsni rejalashtirish	Maqsadga yo‘naltirilganlik, strukturaviylik	
O‘quvchilarga yondashuv	Differensial yondashuv, inklyuzivlik	
Interfaol metodlardan foydalanish	Zamonaviy texnologiyalarni qo‘llash darajasi	
Baholash kompetensiyasi	Yondashuvlar xilma-xilligi, adolatlilik	
Refleksiya va o‘zini baholash	O‘z ustida ishlashga tayyorlik	

Natija: umumiy xarita shakllanadi va u bo‘lajak pedagogning kuchli va zaif jihatlarini grafik yoki diagramma shaklida ko‘rsatib beradi, misol uchun 1.2-jadval shaklda

1.3-jadval. Bo‘lajak pedagogning kuchli va zaif jihatlarini tahlili

Bal	1-ko‘rsatkich	2-ko‘rsatkich	3-ko‘rsatkich	4-ko‘rsatkich	5-ko‘rsatkich
5					
4					
3					
2					
1					

1.3 O‘zini baholash formasi

Bo‘lajak o‘qituvchining o‘z fikri asosida quyidagi savollarga javob beriladi:

- Siz qanday bo‘lajak pedagogman deb hisoblaysiz?
- Siz o‘z faoliyatingizda qanday yutuqlarga erishgansiz?
- Qanday kamchiliklaringiz ustida ishlamoqdasiz?
- So‘nggi bir yilda qanday metodik yangiliklarni o‘rgandingiz?

Bu javoblar orqali bo‘lajak pedagogning o‘zini rivojlantirishga bo‘lgan motivatsiyasi, metodik refleksiyasi va kasbiy ong darajasi aniqlanadi.

2. Rivojlantirish bosqichi – “Metodik kompetentlikni chuqurlashtirish”

Rivojlantirish bosqichi bo‘lajak pedagoglarning metodik kompetentligini chuqurlashtirishga qaratilgan. Ushbu bosqich diagnostika natijalariga asoslanib individual rivojlanish strategiyalarini ishlab chiqishni nazarda tutadi.

Maqsad: Bo'lajak o'qituvchiga mos individual rivojlanish yo'nalishini shakllantirish.

2.1 Diagnostika natijalarini tahlil qilish

Avvalgi bosqichda aniqlangan *kuchli va zaif tomonlar* asosida *shaxsiy metodik xarita* tuziladi.

Masalan:

- Agar bo'lajak pedagog interfaol metodlarni yaxshi bilsa – uni mentor sifatida tayinlash mumkin.
- Agar baholash kompetensiyasi sust bo'lsa – shu yo'nalishda treninglar taklif qilinadi.

2.2 Mini-treninglar tashkil qilish

Mini-treninglar bo'lajak pedagoglarning metodik bilimlarini yangilashga yordam beradi. Masalan, zamonaviy dars metodlari, raqamli texnologiyalar hamda formativ baholash bo'yicha treninglar tashkil etiladi. Qisqa va amaliy seminarlar, quyidagi yo'nalishlarda o'tkaziladi:

1.4- jadval. Qisqa va amaliy seminarlar o'tkazilish shakli

Trening mavzusi	Kimlar uchun mos?
Zamonaviy dars metodlari	An'anaviy usullarni qo'llayotgan bo'lajak o'qituvchilar uchun
Raqamli texnologiyalarni darsga qo'llash	Texnologik savodxonligi sust bo'lganlar uchun
Formativ baholash va refleksiya	O'quvchini faollashtirishda qiynalayotganlar uchun

Treningdan so'ng: Bo'lajak o'qituvchi ishtirok etgan mavzuni qanday darslariga integratsiya qilishni rejalashtiradi.

2.3 Mentorlik mexanizmini joriy etish

Mentorlik tizimi esa tajribali pedagoglarning yosh bo'lajak o'qituvchilarga metodik yordam ko'rsatishini nazarda tutadi. Bu jarayon bo'lajak pedagoglarning kasbiy o'sishini tezlashtirishga xizmat qiladi.

Mentorlik quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- Birgalikda dars rejalashtirish
- Kuzatuv asosida tahlil
- Haftalik maslahat va fikr almashish

Har bir mentorlik juftligi uchun *yutuqlarni qayd etuvchi monitoring jurnali* yuritiladi.

2.4 Portfolio yuritish

Portfolio – bu siz kim ekansiz va qanday o'sayotganingizni ko'rsatuvchi hujjatli isbotlar to'plami. U shaxsiy va professional rivojlanishda eng muhim vositalardan biridir.

Har bir bo'lajak pedagog o'zining:

- Dars ishlanmalari
- Innovatsion metodlar bo'yicha tajribalari

- Trening va seminar ishtiroklari
- O‘zgarishlar natijasi
- O‘z ustida ishlash rejalarini portfelga jamlab boradi.

Portfel — kasbiy rivojlanishning individual yo‘l xaritasi bo‘lib xizmat qiladi.

2.5 Shaxsiy rivojlanish rejasi tuzish

- Yuqoridagi barcha ma'lumotlar asosida *individual rivojlanish rejasi* ishlab chiqiladi: misol uchun quyidagi jadval.

1.5-jadval. Individual rivojlanish rejasi

Yo‘nalish	Faoliyatlar	Muddat	Mas’ul shaxs
Raqamli metodikani o‘zlashtirish	Trening + portfelga dars qo‘shish	1 oy	Bo‘lajak o‘qituvchi, mentor
Baholash metodlarini takomillashtirish	Mini-trening + kuzatuvli dars	2 hafta	Trener, metodist
Innovatsion metodlar	Dars ishlanmasi ishlab chiqish	3 hafta	Bo‘lajak o‘qituvchi

Yakuniy natija

- Bo‘lajak o‘qituvchi o‘zining *kasbiy yo‘nalishini anglaydi*.
- Zaif tomonlarini rivojlantirish uchun *mos vosita va imkoniyatlarga ega bo‘ladi*.
- Mustaqil ishlash va o‘z ustida ishlash madaniyati rivojlanadi.
- Uzoq muddatli *barqaror o‘sish va kasbiy muvaffaqiyat* ta’minlanadi.

3. Kasbiy identifikatsiya bosqichi – “Men kimman?”

Maqsad: bo‘lajak pedagogning o‘zini tanishi, kasbiy yo‘nalishini anglash va o‘zini ilg‘or, innovatsion bo‘lajak pedagog sifatida ko‘rishini shakllantirishdir. Bunga erishish uchun quyidagi aniq tashkiliy va kasbiy rivojlantiruvchi faoliyatlar amalga oshiriladi:

3.1 Shaxsiy rivojlanish rejasini ishlab chiqish

- Har bir bo‘lajak pedagog o‘z kuchli tomonlari, qiziqishlari, istiqboldagi maqsadlariga tayangan holda 1 yillik rivojlanish rejasi tuzadi.
- Reja quyidagilarni o‘z ichiga oladi:
  - Qaysi yo‘nalish bo‘yicha mutaxassis sifatida shakllanadi (masalan, STEAM metodisti, media savodxonlik bo‘yicha ekspert va h.k.
  - Qanday treninglar, kurslar, tajribalar orqali bunga erishadi.
  - Qaysi innovatsion metodlarni chuqur o‘zlashtirmoqchi.

3.2 bo‘lajak pedagogik blog yoki Telegram kanali yuritish

- Har bir bo‘lajak pedagog o‘zining:

- Innovatsion ishlanmalari
- Darsdan kuzatishlar
- Yangi metodlar bo'yicha tajribalari
- Fikr va tavsiyalarini doimiy *raqamli platformada ulashadi.*
- Bu orqali bo'lajak pedagog o'zini:
- *Mutaxassis, namuna, ilg'or fikrli bo'lajak pedagog* sifatida namoyon etadi.
- Kasbiy auditoriyaga ega bo'ladi.
- O'rganish va ulashish madaniyatini rivojlantiradi.

3.3 Kasbiy maqom loyihasi (Professional imzo)

- Har bir bo'lajak pedagog o'z yo'nalishiga mos shaxsiy kasbiy brend yaratadi:
- Misollar:
  - "Interfaol metodlar bo'yicha trener"
  - "STEAM asosida dars loyihalovchi"
  - "Innovatsion baholash texnologiyalari bo'yicha metodist"
- Bu maqom unga:
- Institutdagi, tuman/mintaqadagi *rolini aniqlab beradi*
- O'z yo'nalishida *yo'lchi yulduzga* aylanish imkonini yaratadi

3.4 Ilmiy-tadqiqot yoki innovatsion loyiha yuritish

- Bo'lajak o'qituvchi o'z metodik yo'nalishi asosida kichik loyiha yaratadi:
- Masalan: "*Gamifikatsiya* asosida kasbiy ta'limda darslarni samarali tashkil etish"
- Natijalar: dars ishlanmalari, o'quvchilar natijalari, refleksiya
- Bu loyiha:
- Uning amaliy va nazariy yetukligini ko'rsatadi
- Shaxsiy ishi orqali o'zini *kasbda identifikatsiyalashiga* yordam beradi

3.5 O'z ustida ishlash uchun "Refleksiya kundaligi" yuritish

- Har hafta yoki oyda yoziladigan:
- Qaysi metod sinab ko'rildi?
- Qanday natija berdi?
- Nimalarni o'rganildi?
- Keyingi reja nima?
- Bu kundalik:
- Bo'lajak o'qituvchining o'zgarishini ko'rsatadigan hujjatli tarix bo'ladi.
- Unga o'zini tahlil qilish, o'sishini ko'rish imkonini beradi.

3.6 Mutaxassis sifatida tan olinishi uchun targ'ibot ishlari

- Faoliyatlari bo'yicha:
- Seminar, konferensiyalarda ishtirok etadi
- Mahalliy yoki onlayn jurnallarda maqola chiqaradi
- O'quv-seminar tashkil qiladi yoki unda ma'ruzachi bo'ladi

Yakuniy natija:

- Bo'lajak o'qituvchi o'zini *faol innovator*, o'zgacha yondashuvga ega metodist, fikri bilan boshqalarga ilhom bag'ishlaydigan *bo'lajak pedagogik yetakchi* sifatida anglaydi.
- U o'zining kimligi, qayerga intilishi va qanday ta'sir ko'rsatayotganini aniq biladi**.**
- Bu esa uning ***m***otivatsiyasini oshiradi, o'z kasbiga bo'lgan mehrini mustahkamlaydi**.**

4. Baholash va barqarorlashtirish bosqichi – “Doimiy o‘zgarish” — bu tizimning yakuniy, ammo eng muhim va doimiy takrorlanadigan bosqichi bo‘lib, bo‘lajak pedagogning uslubiy tayyorgarlikini uzluksiz rivojlantirish, tahlil qilish va mukammallashtirishni ko‘zda tutadi.

4. Baholash va barqarorlashtirish bosqichi

Maqsad: Bo‘lajak o‘qituvchining kasbiy o‘sishini tizimli monitoring va baholash orqali doimiy ravishda qo‘llab-quvvatlash, barqarorlikni ta’minlash. Bu jarayonda 360 darajali baholash tizimi qo‘llaniladi.

- **Kimlar baholaydi?**
  - O‘quvchilar
  - Kasbdoshlar
  - Metodist / rahbariyat
  - Bo‘lajak o‘qituvchining o‘zi (self-assessment)
- **Nimalar baholanadi?**
  - Dars sifati, metodlardan foydalanish
  - Muloqot, motivatsiya berish darajasi
  - Yondashuvning zamonaviyligi va foydaliligi
- **Afzalligi:**
  - Faqat bir tomonlama emas, *ko‘p tomonlama fikr asosida aniq va haqqoniy baho* olinadi.
  - Har tomonlama tahlil bo‘lajak pedagogning qayerda o‘sishga ehtiyoji borligini ko‘rsatadi.

4.1 Darslar monitoringi va tahlili (oyiga kamida 1 marotaba)

Bo‘lajak o‘qituvchining darsi *mutaxassislar, metodistlar, yoki mentorlar* tomonidan tahlil qilinadi:

- Maqsad aniq qo‘yilganmi?
- O‘quvchilar faol ishtirok etyaptimi?
- Metodik vositalar o‘rinlimi?
- Baholash qanday olib borilyapti?
- Bo‘lajak o‘qituvchi o‘z faoliyatini qay tarzda yakunlayapti?
- **Tahlil natijasi asosida**:
  - Tavsiyalar beriladi
  - Bo‘lajak o‘qituvchiga individual takomillashtirish yo‘nalishi belgilanadi

4.2 Yillik o‘zgarishlar hisobotini tuzish

- Har bo‘lajak pedagog yil oxirida o‘zining metodik o‘sishi haqida hisobot tuzadi:
  - Qanday yangi metodlar o‘zlashtirildi?
  - Qaysi muammolar bartaraf etildi?
  - O‘quvchilar natijalaridagi o‘zgarishlar qanday?
- Bu hisobot:
  - Bo‘lajak o‘qituvchining o‘zgarishini hujjatlashtiradi
  - Keyingi yillik rejalashtirish uchun asos bo‘ladi

4.3 Mini-grantlar va rag‘bat tizimi

- Faol va o‘sayotgan bo‘lajak pedagoglarga quyidagi imkoniyatlar beriladi:
  - Mahalliy yoki xalqaro onlayn kurslarda bepul o‘qish
  - O‘z loyihasini amaliyotga tadbiq etish uchun *mini-grantlar*
  - Seminar, forum va konferensiyalarda ishtirok etish imkoniyati
- **Shartlar**:
  - Innovatsion metodni amaliyotga tadbiq qilish
  - Monitoring natijalarida yuqori natija ko‘rsatgan bo‘lish
  - O‘z kasbiy blogida yoki portfelida faol bo‘lish

4.4 Tizimiy ravishda o‘zgarishlarni tahlil qilish jadvali

Misol uchun quyidagidek oddiy 1.6-jadval orqali baholashni rejalashtirish mumkin.

1.6-jadval. Baholashni rejalashtirish

Tahlil yo‘nalishi	Baholash usuli	Javobgar shaxs	Davriylik
Dars monitoringi	To‘g‘ridan-to‘g‘ri kuzatuv, video tahlil	Metodist/mentor	Oyiga 1 marta
360-darajali baholash	Anonim so‘rovnomalar	O‘quvchilar, hamkasblar, rahbar	Har chorakda
Portfel baholash	Tahliliy ko‘rinishda	Rahbariyat	Har semestr
Kasbiy yutuqlar	Hisobot, sharh	Bo‘lajak o‘qituvchi o‘zi	Yilda 1 marta
Grant /rag‘bat monitoring	Loyiha natijalari	Komissiya	Har yili

Yakuniy natija

- Bo‘lajak o‘qituvchining o‘zgarishlari aniq ko‘rinadi va hujjatlashtiriladi.
- Tizimli yondashuv orqali metodik kompetentlik *barqaror va chuqur rivojlanadi.*
- Rag‘bat va monitoring orqali bo‘lajak pedagog o‘z ustida ishlashga barqaror motivatsiyaga ega bo‘ladi.

Tadqiqot natijalari

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, KIFRT tizimi bo‘lajak pedagoglarning metodik kompetentligini rivojlantirishda samarali model hisoblanadi. Ushbu tizim bo‘lajak pedagoglarning kasbiy motivatsiyasini oshiradi, ularning innovatsion metodlardan foydalanish ko‘nikmalarini rivojlantiradi hamda ta’lim jarayonining sifatini yaxshilaydi.

KIFRT tizimi bo‘lajak pedagoglarning o‘z ustida ishlash madaniyatini shakllantiradi hamda ularni doimiy professional rivojlanishga undaydi.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, zamonaviy ta’lim tizimida bo‘lajak pedagoglarning metodik kompetentligini rivojlantirish muhim ahamiyatga ega. KIFRT tizimi bo‘lajak pedagoglarning kasbiy rivojlanishini tizimli ravishda tashkil etish imkonini beruvchi samarali model hisoblanadi.

Mazkur tizim bo'lajak pedagoglarning kasbiy identifikatsiyasini shakllantirish, metodik kompetentligini rivojlantirish hamda ta'lim sifatini oshirishga xizmat qiladi. Shu sababli KIFRT tizimini professional ta'lim jarayonida joriy etish bo'lajak pedagogik faoliyat samaradorligini oshirishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. OECD (2019). TALIS 2018 Results (Volume I): Teachers and School Leaders as Lifelong Learners**.** https://www.oecd.org/content/dam/oecd/en/publications/reports/2019/06/talis-2018-results-volume-i_03d63387/1d0bc92a-en.pdf
2. OECD (2020). TALIS 2018 Results (Volume II): Teachers and School Leaders as Valued Professionals. https://www.oecd.org/education/talis-2018-results-volume-ii.htm.
3. OECD (2025). Teaching and Learning International Survey (TALIS) 2024 Conceptual Framework. https://www.oecd.org/content/dam/oecd/en/publications/reports/2025/06/teaching-and-learning-international-survey-talis-2024-conceptual-framework_aad4c349/7b8f85d4-en.pdf
4. Schleicher A. World Class: How to Build a 21st-Century School System. – Paris: OECD Publishing, 2018.
5. Darling-Hammond L. Teacher Education and the American Future**.** – New York: Teachers College Press, 2017.
6. Ainscow, M. (2005), "Developing inclusive education systems: What are the levers for change?", Journal of Educational Change.
7. Ball, D. et al. (2009), "Combining the development of practice and the practice of development in teacher education", The Elementary School Journal, Vol. 109/5, pp. 458-474, https://doi.org/10.1086/596996.
8. Banerjee, N. et al. (2017), "Teacher job satisfaction and student achievement: The roles of teacher professional community and teacher collaboration in schools", American Journal of Education, Vol. 123/2, pp. 203-241, https://doi.org/10.1086/689932.
9. Boyd, D. et al. (2009), "Teacher preparation and student achievement", Education Evaluation and Policy Analysis, Vol. 31/4, pp. 416-440, https://doi.org/10.3102/0162373709353129.
10. Danielson C. (2013). The Framework for Teaching Evaluation Instrument. Princeton: The Danielson Group.
11. Darling-Hammond L. (2000). How teacher education matters. Journal of Teacher Education.Peterson
12. Novikov, P. & Ivanova, N. (2020)**.** *Innovative Pedagogical Technologies in Vocational Education*. Moscow: Moscow State Pedagogical University Press.
13. Darling-Hammond, L. et al. (2005), "Does teacher preparation matter? Evidence about teacher certification, Teach for America, and teacher effectiveness", Education Policy Analysis, Vol. 13/42, pp. 1-60, https://doi.org/10.14507/epaa.v13n42.2005.

XUSUSIY MAKTABLAR FAOLIYATI HAQIDA ON-LINE MA’LUMOT OLISH IMKONIYATLARINI BERUVCHI MOBIL ILOVA ISHLAB CHIQISH

Mamatqulova Dildora Farxod qizi

Axborot texnologiyalari va menejment universiteti magistri

Annotatsiya: Hozirgi kunda ta’lim tizimida raqamli texnologiyalar keng joriy etilmoqda. Xususan, mobil ilovalar ta’lim muassasalari haqida tezkor va qulay axborot olish imkonini yaratadi. Mazkur maqolada xususiy maktablar faoliyati haqida on-line ma’lumot olish imkoniyatlarini ta’minlovchi mobil ilovani ishlab chiqish masalasi o‘rganildi. Tadqiqot jarayonida mobil ilova arxitekturasi, foydalanuvchi interfeysi, ma’lumotlar bazasi tuzilmasi va dasturiy algoritmlar ishlab chiqildi. Android platformasi asosida mobil ilova prototipi yaratildi hamda uning funksional imkoniyatlari sinovdan o‘tkazildi. Natijalar mobil ilova yordamida foydalanuvchilar xususiy maktablar haqidagi zarur ma’lumotlarni tez va qulay tarzda olish imkoniyatiga ega ekanligini ko‘rsatdi.

Kalit so‘zlar: mobil ilova, xususiy maktab, axborot tizimi, Android, ta’lim texnologiyalari, ma’lumotlar bazasi, on-line xizmatlar.

1. KIRISH

Axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi ta’lim tizimida yangi imkoniyatlarni yaratmoqda. Raqamli platformalar va mobil ilovalar yordamida ta’lim muassasalari faoliyatini boshqarish, monitoring qilish hamda axborot almashish jarayonlari ancha samarali tashkil etilmoqda [1].

Bugungi kunda xususiy maktablar soni ortib borayotgan bo‘lsa-da, ularning faoliyati, qabul shartlari, ta’lim dasturlari va boshqa muhim ma’lumotlarni yagona platformada jamlagan axborot tizimlari yetarli darajada rivojlanmagan. Natijada ota-onalar va

o‘quvchilar xususiy maktablar haqida to‘liq ma’lumot olishda qiyinchiliklarga duch kelishmoqda.

Mobil texnologiyalar ta’lim tizimida muhim axborot vositasi sifatida keng qo‘llanilmoqda. Mobil ilovalar foydalanuvchilarga istalgan joydan va istalgan vaqtda zarur ma’lumotlarga kirish imkonini beradi [2].

Shu sababli xususiy maktablar haqida on-line ma’lumot beruvchi mobil ilova yaratish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

Mazkur tadqiqotning maqsadi — xususiy maktablar faoliyati haqida axborot beruvchi mobil ilova ishlab chiqish va uning samaradorligini tahlil qilishdir.

2. TADQIQOT USULLARI

Tadqiqot jarayonida tizimli tahlil, dasturiy modellashtirish, mobil ilovalarni loyihalash hamda sinovdan o‘tkazish metodlaridan foydalanildi.

Mobil ilovani ishlab chiqish quyidagi bosqichlarda amalga oshirildi:

1. Foydalanuvchi talablarini aniqlash
2. Tizim arxitekturasini loyihalash
3. Ma’lumotlar bazasini yaratish
4. Mobil ilova interfeysini ishlab chiqish
5. Dasturiy modul va algoritmlarni yaratish
6. Test sinovlari


Mobil ilova ishlab chiqish modeli



1-rasm. Mobil ilova ishlab chiqish jarayonining umumiy modeli

1-rasmda mobil ilova ishlab chiqish jarayonining asosiy bosqichlari tasvirlangan. Ushbu modelga ko‘ra mobil ilova yaratish jarayoni talablarni tahlil qilish, tizim arxitekturasini loyihalash, dasturlash, testlash va joriy etish bosqichlarini o‘z ichiga oladi [3].

Mobil ilova arxitekturasi



2-rasm. Mobil ilovaning umumiy arxitekturasi

2-rasmda mobil ilovaning umumiy arxitekturasi keltirilgan. Tizim uchta asosiy qismdan iborat:

- foydalanuvchi interfeysi (mobil ilova)
- server qismi
- ma’lumotlar bazasi

Mobil ilova foydalanuvchi so‘rovlarini serverga yuboradi va server ma’lumotlar bazasi orqali kerakli ma’lumotlarni qaytaradi [4].

3. NATIJALAR

Tadqiqot natijasida xususiy maktablar haqida ma’lumot olish imkonini beruvchi mobil ilova prototipi ishlab chiqildi.

Mobil ilovaning asosiy funksiyalari quyidagilardan iborat:

- xususiy maktablar katalogi
- maktab haqida batafsil ma’lumot olish

- hudud bo‘yicha qidiruv tizimi
- aloqa ma’lumotlarini ko‘rish
- yangiliklar va e’lonlar bo‘limi

Mobil ilovaning interfeysi foydalanuvchilar uchun qulay tarzda ishlab chiqildi. Test sinovlari natijasida mobil ilova tezkor ishlashi va foydalanuvchilar uchun qulay ekanligi aniqlandi.

4. MUHOKAMA

Tadqiqot natijalari mobil texnologiyalar ta’lim sohasida axborot almashish samaradorligini oshirishini ko‘rsatdi. Mobil ilovalar foydalanuvchilarga ta’lim muassasalari haqida tezkor ma’lumot olish imkonini beradi [5].

Yaratilgan mobil ilova ota-onalar va o‘quvchilarga xususiy maktablar haqida ishonchli ma’lumot olishda yordam beradi. Shuningdek, kelajakda ilovaga quyidagi funksiyalarni qo‘shish mumkin:

- on-line ro‘yxatdan o‘tish tizimi
- elektron to‘lov tizimi
- o‘quv jarayonini monitoring qilish
- ota-ona va maktab o‘rtasida on-line aloqa tizimi

XULOSA

Mazkur tadqiqotda xususiy maktablar faoliyati haqida on-line ma’lumot beruvchi mobil ilova ishlab chiqildi. Ilova foydalanuvchilarga xususiy maktablar haqida tezkor va qulay axborot olish imkonini beradi. Tadqiqot natijalari mobil texnologiyalarni ta’lim tizimida qo‘llash axborot almashish samaradorligini oshirishini ko‘rsatdi.

Kelajakda mobil ilovani kengaytirish orqali ta’lim xizmatlarini yanada rivojlantirish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Karimov R.X. Axborot texnologiyalari asoslari. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2020.
2. Abduqodirov A.A. Ta’limda axborot texnologiyalari. – Toshkent: O‘zbekiston Milliy universiteti nashriyoti, 2019.
3. Sommerville I. Software Engineering. – London: Pearson Education, 2016.

4. Pressman R. Software Engineering: A Practitioner's Approach. – New York: McGraw-Hill, 2014.

5. Turdiev M., Rasulov B. Mobil ilovalar va ularning axborot tizimlaridagi o'rni // Axborot texnologiyalari jurnali. – 2021. – №3. – B. 45-52.

«RESEARCH AND PUBLICATIONS»
ILMIY NASHRLAR MARKAZI

O‘ZGA TILLI SINFLARDA O‘ZBEK TILINI O‘QITISHDA KITOBXONLIKNI SHAKLLANTIRISH

FORMATION OF LITERACY IN THE TEACHING OF UZBEK LANGUAGE IN FOREIGN LANGUAGE CLASSES

ФОРМИРОВАНИЕ ГРАМОТНОСТИ ПРИ ОБУЧЕНИИ УЗБЕКСКОМУ ЯЗЫКУ НА УРОКАХ ИНОСТРАННОГО ЯЗЫКА

Dustov Fayyoziddin Nomozovich
Toshkent viloyati Angren shahar
15-umumiy o‘rta ta’lim maktabi
O‘zbek tili va tojik tili fani o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada o‘zga tilli sinflarda o‘zbek tilini o‘qitishda kitobxonlikni shakllantirish usullari haqida yoritilgan bo‘lib, unda interfaol usullar, ularning ahamiyati haqida so‘z boradi.

Abstract: This article describes the methods of formation of literacy in the teaching of the Uzbek language in foreign language classes, it talks about interactive methods and their importance.

Аннотация: В данной статье описаны методы формирования грамотности при обучении узбекскому языку на уроках иностранного языка, говорится об интерактивных методах и их значении.

Ushbu maqolani yozishdan maqsad: o‘zga tilli sinflarda o‘zbek tilini o‘qitishda kitobxonlikni shakllantirishda o‘quvchilarni zamonaviy usullar orqali tarbiyalashning samarasini ko‘rsatib berish.

The purpose of writing this article: to show the effectiveness of educating students through modern methods in the formation of literacy in teaching the Uzbek language in foreign language classes.

Цель написания данной статьи: показать эффективность обучения студентов современными методами в формировании грамотности при обучении узбекскому языку на уроках иностранных языков.

Usul va o‘yinlar: “Qiziqish bu magnit”, “Kim topag‘on”, “Sonlar tilsimi mashqi”, “Tanlovga imkon beraylik”, “Mutolaa zavqi”..

Methods and games: "Curiosity is a magnet", "Who's going to meet you", "Numbers magic exercise", "Let's make a choice", "Reading pleasure".

Методы и игры: «Любопытство – магнит», «Кто тебя встретит», «Магия чисел», «Давай сделаем выбор», «Удовольствие от чтения».

Natija: O‘quvchilarda kitobxonlik madaniyatini shakllantirish orqali ularni kitob mutolaasiga qiziqtirish.

Kalit so‘zlar:interfaol, samara, usullar, nutq, so‘z boyligi, matn, ijodkorlik, kitobxonlik madaniyati, o‘zga tilli, badiiy adabiyot, ma’naviyat…

Result: To make students interested in reading books by forming a culture of reading in students.

Результат: Заинтересовать учащихся чтением книг путем формирования у учащихся культуры чтения.


Key words: interactive, effectiveness, methods, speech, vocabulary, text, creativity, reading culture, foreign language, fiction, spirituality...

Ключевые слова: интерактив, результативность, приемы, речь, лексика, текст, творчество, культура чтения, иностранный язык, художественная литература, духовность...

Kitob faqat kommunikatsiya va axborot vositasigina emas. Zero, umuman kitob, xususan badiiy adabiyot so‘zlardan tashkil topsada, uning mohiyatida so‘z bilan ifodalanishi mushkul bo‘lgan ilohiy qudrat ham mavjud. U hech qachon yo‘qolmaydi, o‘rnini ham boshqa narsa bosolmaydi. Kitob, bilim ma’naviyat quyoshidir. U bizni yorug‘ istiqbolga yetaklaydi. Shuning uchun ham Quroni Karimda “ilm” so‘zi 754 marta qayd qilingani bejiz emas. Zero, bilim manbai bebaho kitobdir. Kitobning inson ma’naviy hayotida o‘rni beqiyos. Shu o‘rinda aytish kerakki, kitob hayot haqidagi bilim va tasavvurlarni kengaytiradi, qalbni boyitadi. Bu boylikni hech kim tortib ololmaydi. Kitob mutolaasi orqali boyigan qalb hech qachon tanazzulga yuz tutmaydi. Umuman olganda, estetik nuqtai nazardan, inson qalbini ilohiy, ezgu nurlar bilan to‘ldiradigan ma’naviy kuch hamisha kitob bo‘lgan va shunday bo‘lib qolaveradi. Barchamizga ma’lumki, o‘zga tilli sinflarda o‘zbek tilini o‘qitishda kitobxonlikni shakllantirish o‘zbek tili o‘qituvchilaridan pedagogik mahorat, epchillik, innovatsion usullardan unumli foydalanishni talab etadi.

Nafaqat ta’lim boshqa tillarda olib boriladigan, balki, deyarli barcha o‘quvchilar kitob o‘qishdan tez zerikishadi, chunki kitob o‘qib o‘zlarida rivojlanish yoki biror quyi darajadan yuqoriroq darajaga erishishni ko‘rishmasligi ehtimoli yuqori. O‘quvchi rivojlanishga tez va oson yetishni istaydi.

Shuning uchun: O‘quvchiga u o‘qigan kitob bugun nima berganiyu va ertaga nima berishi haqida tushuntirish, buni muhokama qilish foydali hamda o‘quvchi kitob insonlarni ayniqsa o‘zini hayotida biror bir muammoni yechishini aniq misol bilan anglashi zarur.



Bu borada yurtimizda qator ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 12-yanvardagi “Kitob mahsulotlarini chop etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ`ibot qilish bo‘yicha komissiya tuzish to‘g`risida”gi PF 4789-sonli farmoyishi, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 13-sentabrdagi “Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ`ib qilish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi to‘g`risida”gi qarori biz, pedagoglar uchun dasturulamal bo‘ldi. Prezidentimiz “**Hammamiz uchun ayni paytda juda muhim ahamiyatga ega bo‘lgan masala, ya’ni kitobxonlikni keng yoyish va yoshlarimizning kitobga bo‘lgan muhabbatini, ularning ma’naviy immunitetini yanada oshirishga qaratilgan ishlarimizni yangi bosqichga olib chiqish vazifasi turibdi.”**-degan so‘zni bejizga aytmaganlar.

“Sonlar tilsimi: mashqi.

O‘quvchilar o‘n ichida qo‘shish va ayirishga doir misollar yechish topshiriq beriladi. Misollarning javobi yozilgan sonlar yonida bittadan harf yozilgan bo`ladi. O‘quvchilar misollarni yechib bo‘lsalar, yangi mavzu nomi kelib chiqadi.

2+3=5	“K”	10-6=4	“M”
7-6=1	“I”	4+2=6	“M”
6+2=8	“T”	5+3=8	“H”
3+4=7	“O”	9-2=7	“R”
8-6=2	“B”		
5+4=9	“G”		
10-7=3	“A”		



“Kitobga mehr” so‘z birikmasi kelib chiqadi.

“Qiziqish bu magnit” usuli.

-Bola kitobga magnit kabi tortilishi uchun u qiziqqan yo’nalishni aniqlash zarur!

-Har qanday o’quvchining qiziqishlar tizimi mavjud bo’lib, uning qiziqishidan kelib chiqib kitob tavsiya qiling!

-Misol uchun matematikaga qiziqadigan bolaga, siz badiiy adabiyot, romanlarni majburlab ham o’qita olmaysiz. Yaxshisi, unga qiziqarli nomli kitobni o’qib chiqishni tavsiya qilganingiz maqul.

-Gohda o’quvchi o’zi nimaga qiziqishini bilmaydi, shu jarayonda siz yordamga boring…

O‘zga tilli sinflarda o‘zbek tilini o‘qitishda kitobxonlikni shakllantirish maqsadida quyidagilarga e’tibor qaratish zarur:

1.Motivatsiya-motivlar jamlanmasi, oddiy tilda aytganda insonda istak va maqsadlarni yuzaga keltiruvchi turtkilar yig’indisi, og’zaki va badiiy tilda biz buni ilhom, kuchli xohish kabi so’zlari bilan ham ataymiz. Motivatsiya shunday mehanizmki, u yo’nalgan sohada avtomatik tarzda qiziqish, intilish, istak kabi boshqa psixologik mehanizmlar ishga tushadi.

2.Texnologiya-biror bir maqsadga erishish yo’l xaritasi yoki algoritmi tarzidagi jamlanmani anglatadi. Texnologiya muayyan maqsadga erishish yo’lini osonlashtirish va samaradorlikka erishishga qaratilgan tavsiyalar va qadamlar jamlanmasi ham bo’lishi mumkin.

“Mutolaa zavqi” usuli.

KITOB

– Eng yaqin do‘stim, Ayt, nima uchun

Qani, ayt-chi, kim? Xursandmiz, Uchqun?

Bilsang, darrov top. – Bizga juda bop



“Ijodiy mashq” usuli.

Ushbu usul o‘ziga xos xususiyatga ega bo‘lib, o‘ziga xoslik masalaning mohiyatini chuqur anglash,uni bajarishga nisbatan yondashish, dalillarni saralash va o‘qituvchi tomonidan berilgan topshiriqni ijodiy bajarish jarayonida bilimlarni qo‘llash va kengaytirish kabi holatlar bilan tavsiflanadi.

Bunda o‘qituvchi tomonidan turli vositalar yordamida yangi bilimlarni izlab topish, bilimlarning bir qismini tinglovchilarga, ma’lum qiladi qolganini esa o‘quvchilar topshiriqlarni yechish jrayonida savollarga javoblar topish asosida o‘zlashtiradi o‘zlari bilimlarni mustaqil egallashadi. Uni qo‘llashda o‘qituvchi va o‘quvchi tomonidan quyidagi harakatlar amalga oshiriladi.

O‘qituvchi o‘quvchilarni masalaning mohiyatini o‘rganishga jalb etadi; Masalani yechish rejasini aniqlashda mulohaza yuritishga yo‘naltiradi; masalan bosqichlarga ajratadi; evristik suhbat ajratadi.[1]

“Teskari test” usuli. Bunda 11-sinf darsligidagi T.Murod mavzusi asosida qo‘llash mumkin.



“FSMU” texnologiyasi asosida savollarga javob beramiz:

- F – Son turlarini ayting?
- S – Jamlovchi sonlar - ?
- M – Jamlovchi sonlar qanday qo‘shimchalar orqali hosil bo‘ladi?
- U – Jamlovchi sonlarga misollar ayting?

Shu tarzda o‘quvchilarning mavzu bo‘yicha olgan bilimlarini baholaymiz, iqtidorli o‘quvchilar rag‘batlantiriladi, faolligi past o‘quvchilarga qo‘shimcha topshiriqlar beriladi.

“Xatolarni topamiz” usuli.

Tashkil etish tartibi. O‘qituvchi bolalarga kartochkalarni yozilgan matnlarni o‘qib beradi. O‘quvchilar matnlarni diqqat bilan tinglab, qanday xatolar topganliklarini, to‘g‘ri yechimi qanday bo‘lishi lozimligini tushuntirib berishlari lozim.

Masalan: “Kuzda dehqonlar polizlarda olma, qovun, anor, behi kabi o‘simliklarni yig‘ib oladilar”. O‘quvchilar matnda yo‘l qo‘yilgan xatolarni topadilar, uni izohlab berishlari lozim.

“Matematik” usuli. O‘quvchilarga **usul** sharti tushuntiriladi. Shu sonlarni so‘z bilan yozib, joy, hayvon va ovqat nomlarini topishlari kerakligi aytiladi.

Uchtepa tumani - 3 raqami va tepalik rasmi.

Tortko‘z - 4 raqami va ko‘z rasmi.

Beshbarmoq - 5 raqami va barmoq rasmi.

Oltiariq tumani - 6 raqami va ariq rasmi.

Sakkizoyoq - 8 raqami va oyoq rasmlari



“Tilshunos” metodi

O‘quvchilar fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan, estetik didlarni, ijodkorlik ishtiyoqlarini shakllantiradigan o‘qitish usuli. Xonadagi stullar orqama-orqa qo‘yiladi.O‘quvchilar ham bir-birlariga orqa o‘girgan holda surat chizadilar. Alohida ko‘rinishidagi bu usulda birinchi o‘quvchi manzarani bayon qiladi, o‘rtog‘i esa uni suratga tushiradi. Diktant davomida o‘quvchilar almashadilar va surat chizib bo‘lingach, u tasvirlanadi.



“Notiq” usuli o‘qiladi, to‘ldiruvchilarni topilib, jadvaldagidek izohlanadi.

Yana atadim she’r, azizim ustoz,
Sizni desam tanda jo‘shar hayajon.
Quyoshga yetguncha yozsam-da oz-oz,
Sizga muhabbatim dilda bir jahon.[2]

(T. Rajabiy)

“Savol berish orqali o‘qitish” usuli. O‘qituvchi o‘quvchilar oldiga savollarni ko‘ndalang qilib qo‘yadi va bu bilan ularni berilgan ma’lumotni yana takrorlashga undaydi. Shu tariqa ularni o‘qituvchi tomonidan qo‘llanilgan og‘zaki va boshqa aloqa uslublarini tushunib yetganliklari aniqlanadi.

“**Muhokama" usuli.** O‘quvchilarga suhbatlashish, masalalarga oydinlik kiritish, savollar berish, shuningdek ma’lumotni o‘zaro va o‘qituvchi bilan muhokama yo‘li bilan tahlil qilish taklifi kiritiladi.

“TOPQIRLIK BAHSI” usuli

Bu usulda guruhlarga vositali va vositasiz to‘ldiruvchiga oid so‘z birikmalari yozish topshiriladi.

T/r	Vositali to‘ldiruvchi	Vositasiz to‘ldiruvchi
1		
2		
3		
4		
5		

“Sayohat”usuli. Bunda o‘quvchilar bilan turli orollar, ummon, ertaklar olamiga sayohatlar uyushtirilib, dars bosqichlari ketma-ketlikda tushuntirilib boriladi.

Masalan: o‘quvchilarga 5-sinfda kelishiklar mavzusini tushuntirishda ushbu usuldan foydalanish samara beradi.



Jamiyatimizdagi ko‘pchilik insonlar o‘qituvchilarni kunlar, haftalar va oylar davomida o‘qitiladigan fan bo‘yicha asta-sekinlik bilan turli xil ko‘rsatma va topshiriqlar beradigan hamda bir maromda qandaydir bilimlar majmuasini o‘quvchilarga singdiradigan zerikarli mutaxassislar sifatida tushunadilar. Lekin ularning qanday ko‘rsatma va topshiriqlar

berishlari hamda bunday usullar qanday samara berishini ko‘pchilik bilmaydi yoki tushunmaydi. Shuning uchun ham, yillar davomida ta’lim berishning bir qancha usullari va uslubiyati vujudga keldiki, ularning jamiyatdagi o‘rni, ahamiyati beqiyosdir. Ba’zi bir ta’lim berish uslublari yosh bolalarning bilim olish jarayonini o‘rganish asosida tashkil etilgan bo‘lsa, boshqalari dars berish jarayonida ro‘y beradigan muammolarni hisobga olgan holda tashkil etilgan.

Xullas, kitob mutolaasi-shaxs va jamiyat ravnaqining muhim sharti. Bugun axborot manbalari ko‘paydi. Biroq televideniye ham, kompyuter-u internet ham, bundan keyin ixtiro etilajak texnika, texnologiyalar ham kitob mutolaasining o‘rnini bosa olmaydi. Kitobsiz na komil shaxs, na yaxshi mutaxassis, na jamiyatga foyda keltiruvchi odam bo‘lish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1.Golish L.V., Fayzullayeva D.M. Pedagogik texnologiyalarni loyihalashtirish va rejalashtirish. T., “Iqtisodiyot”, 2012-yil
2.“Umumta‘lim fanlari metodikasi” jurnali, 1-, 2-, 3-, 4-sonlar, 2018-yil
3.“Til va adabiyot ta’limi” jurnali, 1-12 sonlar, 2018-yil
4. Internet saytlari: -ZiyoNet .uz, kitob.uz, bolajon.uz, multimediya .uz

AVTOMOBIL YO'LLARI QURILISHIDA GRUNT VA ASOS QATLAMLARINING KALIFORNIYA MUSTAHKAMLIK KOEFFITSIYENTINI (CBR) LABORATORIYA SHAROITIDA ANIQLASH

Ilmiy Rahbar: Professor Amirov Tursoat Jumayevich
Toshkent davlat transport unuversiteti magistranti
Turayev Avazbek Xoliyar o'g'li

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada Kaliforniya mustahkamlik koeffitsiyenti (California Bearing Ratio – CBR) ko'rsatkichini laboratoriya sharoitida aniqlashning to'liq metodologik tavsifi keltirilgan. Xalqaro standartlar (ASTM D1883, AASHTO T193) asosida CBR sinovining bosqichma-bosqich bajarilishi – jihozlar tavsifi, namuna tayyorlash, Proktor sinovi, 96 soat namlash, penetratsiya sinovi va natijalarni hisoblash tartibi batafsil yoritilgan. Maqola yo'l qurilishi muhandislari va laboratoriya mutaxassislari uchun amaliy qo'llanma sifatida xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: California Bearing Ratio (CBR), grunt mustahkamligi, laboratoriya sinovi, penetratsiya sinovi, Proktor sinovi.

1. KIRISH

Avtomobil yo'llari muhandisligida grunt asosining mustahkamlik ko'rsatkichlarini aniqlash konstruksiyaning uzoq muddatli barqarorligini ta'minlashda fundamental ahamiyatga ega. Kaliforniya mustahkamlik koeffitsiyenti (California Bearing Ratio – CBR) testi 1920-yillarning oxirida Kaliforniya avtomobil yo'llari boshqarmasi (Caltrans) tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib, bugungi kunda dunyo miqyosida yo'l qoplamalarini loyihalashda eng ishonchli empirik parametr sifatida qabul qilingan [1, 2]. Ushbu ko'rsatkich gruntning penetratsiya qarshiligini standart maydalangan tosh materialining qarshiligiga nisbatan foizlarda ifodalaydi va yo'l konstruksiyasining umumiy qalinligini belgilashda asosiy ko'rsatgich hisoblanadi [1, 8, 9].

CBR qiymati gruntning ma'lum bir chuqurlikdagi (odatda 2.5 mm va 5.0 mm) bosimining standart material bosimiga nisbati sifatida quyidagi formula orqali hisoblanadi [1]:

$$CBR = \left(\frac{p}{p_s}\right) \times 100\%$$

Bunda: p – sinovdan o'tkazilayotgan namunaga plunjer kiritish uchun zarur bo'lgan bosim (MPa); p_s – xuddi shu chuqurlikda yuqori sifatli maydalangan tosh namunasi uchun olingan standart bosim. Standart bosim qiymatlari 2.5 mm penetratsiya uchun 6.9 MPa, 5.0 mm uchun esa 10.3 MPa qilib belgilangan [1, 10].

Maqola maqsadi – CBR ko'rsatkichini aniqlashning laboratoriya usulini xalqaro standartlar asosida bosqichma-bosqich yoritish va muhandislar uchun amaliy qo'llanma taqdim etishdan iborat.

2. TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqot tizimli adabiyotlar tahlili usulida amalga oshirildi. Ilmiy manbalar Scopus, Web of Science va Google Scholar bazalaridan qidirildi. Qidiruv kalit so'zlari: "California Bearing Ratio", "CBR test", "laboratory CBR", "soaked CBR", "soil compaction". Tanlash mezonlari: xalqaro standartlar, peer-reviewed jurnallar va rasmiy texnik hujjatlar. Saralash natijasida 11 ta asosiy manba tanlab olindi [1–11].

3. LABORATORIYA CBR SINOVI METODOLOGIYASI

3.1. Laboratoriya jihozlari

ASTM D1883 standartiga muvofiq, CBR sinov majmuasi quyidagi asosiy jihozlardan iborat [1, 10]:

- **Yuklash ramasi:** kamida 50 kN quvvatga ega bo'lib, 1.27 mm/min (0.05 dyuym/min) o'zgarmas tezlikni ta'minlaydi. Tezlikning o'zgarmasligi muhim, chunki gruntning qarshiligi yuklanish tezligiga bog'liq.
- **Penetratsion plunjer:** diametri 50.8±0.1 mm (2 dyuym), kesim yuzasi 1935 mm². Plunjerning uchi tekis va silliq bo'lishi kerak.
- **CBR qoliplar:** ichki diametri 152.4 mm, balandligi 177.8 mm bo'lgan po'lat silindrlar. Qolipning pastki qismida suv kirishi uchun teshiklar bo'ladi.
- **Zichlagich:** modifikatsiyalangan Proktor uchun 4.54 kg bolg'a, 457 mm tushish balandligi [3].
- **Oraliq disk:** diametri 150.8 mm, balandligi 61.37 mm bo'lgan po'lat disk. Zichlash paytida qolip tubida bo'shliq hosil qilish uchun ishlatiladi [1].
- **Qo'shimcha yuklar:** har biri 2.27 kg (5 funt) bo'lgan halqasimon og'irliklar. Kamida 4.54 kg yuk qo'yilishi kerak [10].
- **O'lchov asboblari:** 0.01 mm aniqlikdagi dial indikatorlar yoki LVDT datchiklar. Penetratsiya chuqurligini va shishish miqdorini qayd etish uchun xizmat qiladi [1].



1-rasm. CBR uchun laboratoriya jihozlari

3.2. Grunt namunasini tayyorlash

Sinov uchun olingan grunt namunasi havo-quruq holatigacha quritiladi va elakdan o'tkaziladi. Standart talablarga ko'ra, CBR sinovi uchun ishlatiladigan material zarrachalarining maksimal o'lchami 19 mm (3/4 dyuym) dan oshmasligi kerak [1, 11]. Agar grunt tarkibida ushbu o'lchamdan katta toshlar mavjud bo'lsa, ular olib tashlanadi va ularning vazni miqdorida 4.75 mm (No. 4) va 19 mm oralig'idagi fraksiya bilan almashtiriladi. Bu "almashtirish usuli" gruntning donadorlik tarkibini saqlab qolgan holda, kichik hajmli laboratoriya qolipida yirik toshlar keltirib chiqarishi mumkin bo'lgan chegaraviy effektlarni bartaraf etishga xizmat qiladi [1, 11].

3.3. Proktor sinovi (Optimal namlik va maksimal zichlikni aniqlash)

CBR sinovi gruntning maksimal quruq zichligi (MDD) va optimal namligi (OMC) da o'tkaziladi. OMC va MDD modifikatsiyalangan Proktor sinovi (AASHTO T180) yordamida aniqlanadi [3, 4]:

1. Grunt namunasi havo-quruq holatgacha quritiladi va 19 mm elakdan o'tkaziladi.
2. Taxminan 6.8 kg grunt namunasi olinadi va unga kerakli miqdordagi suv qo'shiladi (dastlabki namlik taxminan 4-6% dan boshlanadi).
3. Grunt suv bilan yaxshilab aralashtiriladi va bir jinsli holga kelguncha aralashtiriladi.
4. Grunt gilli bo'lsa, namlikning bir tekis tarqalishi uchun 12-24 soat davomida eksikatorda saqlanadi [10].
5. Namuna ma'lum hajmdagi silindrga qatlamlarga bo'lib zichlanadi. AASHTO T180 D uslubi bo'yicha namuna 5 qatlamga bo'linadi, har bir qatlamga 56 zarba beriladi (4.54 kg bolg'a, 457 mm balandlik) [3].
6. Zichlash tugagach, qolipning ustki qismidagi ortiqcha grunt tekislanadi va qolip bilan birga nam massa o'lchanadi.
7. Namuna silindrdan chiqarib olinadi va undan namlikni aniqlash uchun namuna olinadi.
8. Qolgan gruntga suv qo'shib, namlik oshiriladi va sinov takrorlanadi. Sinov zichlik kamayguncha davom ettiriladi.

Nam zichlik va quruq zichlik quyidagi formulalar bo'yicha hisoblanadi [3, 4]:

$$\rho = \frac{m_{\text{umumiy}} - m_{\text{silindr}}}{V_{\text{silindr}}}$$


$$\rho_{\text{quruq}} = \frac{\rho}{1 + 0.01w}$$

Bu yerda: ρ – nam zichlik (g/sm³), m_{umumiy} – silindr va aralashmaning umumiy massasi (g), m_{silindr} – silindr massasi (g), V_{silindr} – silindr hajmi (sm³), w – namlik (%).

Sinov natijalari asosida quruq zichlikning namlikka bog'liqlik grafigi chiziladi va grafikdagi maksimum nuqta maksimal quruq zichlik va unga mos keladigan namlik sifatida aniqlanadi [3, 4].

3.4. CBR namunasini tayyorlash va zichlash

CBR sinovi uchun namuna OMC darajasidagi gruntdan tayyorlanadi. Namunalar odatda uch nuqtada tayyorlanadi: har xil zichlik darajalarini olish uchun turli zarbalar soni qo‘llaniladi (10, 30 va 65 zarba). Bu usul turli xil zichlik darajalarida CBR qiymatining o‘zgarishini aniqlashga va loyihaviy zichlikka (95%,98% MDD) mos keladigan CBR ni topishga imkon beradi [1, 2].



2-rasm. Quruq zichlikning namlikka bog‘liqlik grafigi

CBR namunalarini tayyorlash jarayoni quyidagi bosqichlardan iborat [1, 2, 10]:

1. **Namlikni sozlash:** Kerakli miqdordagi gruntga (6-8 kg) OMC ga qadar suv qo‘shiladi va yaxshilab aralashtiriladi. Gilli gruntlar uchun 12-24 soat davomida germetik idishda saqlanadi [10].
2. **Qolipni tayyorlash:** CBR qolipi tozalanadi, massasi o‘lchanadi va qayd etiladi. Qolipning pastki qismiga filtr qog‘ozi qo‘yiladi. Oraliq disk qolip tubiga joylashtiriladi va uning ustiga yana filtr qog‘ozi qo‘yiladi [1, 10].
3. **Zichlash:** Grunt 5 qatlamga bo‘linadi (modifikatsiyalangan Proktor energiyasida 5 qatlam). Har bir qatlamni urishda zarbalar namuna yuzasi bo‘ylab bir tekis taqsimlanishi shart. Birinchi qatlam zichlangandan so‘ng, ikkinchi qatlam qo‘shiladi va zichlanadi. Oxirgi qatlam zichlangandan so‘ng, qolipning ustki qismidagi ortiqcha grunt pichoq yordamida tekislanadi [1, 2].
4. **Massani o‘lchash:** Qolip va gruntning umumiy massasi o‘lchanadi va qayd etiladi.
5. **Oraliq diskni chiqarish:** Zichlash tugagach, qolip teskari qaratilib, oraliq disk chiqarib olinadi. Hosil bo‘lgan teshik suvning namuna tubidan kirishini ta’minlaydi.

3.5. Namlash bosqichi

Yo‘l asosi gruntlari yilning nam fasllarida yoki yer osti suvlari ko‘tarilganda o‘z mustahkamligini sezilarli darajada yo‘qotishi mumkin. Ushbu eng og‘ir ekspluatatsiya sharoitini simulyatsiya qilish uchun laboratoriyada “namlangan” CBR sinovi o‘tkaziladi [1, 11].

96 soatlik namlash tartibi quyidagi bosqichlarni o‘z ichiga oladi [1, 10, 11]:

1. Zichlangan grunt namunasi ustiga filtr qog‘ozi va teshikli shishish plastinkasi joylashtiriladi.
2. Plastinka ustiga kutilayotgan yo‘l qoplamasining og‘irligiga ekvivalent bo‘lgan qo‘shimcha yuklar (kamida 4.54 kg) qo‘yiladi.
3. Qolip suv to‘ldirilgan idishga joylashtiriladi. Suv darajasi namunaning ustki qismidan kamida 25 mm yuqorida bo‘lishi va suv namunaning tubidan ham erkin kirishi ta’minlanishi shart.
4. Shishishni aniqlovchi indikator (0.01 mm aniqlikdagi indikataorlar) o‘rnatiladi va boshlang‘ich ko‘rsatkich qayd etiladi.
5. Namuna 96 soat (4 sutka) davomida suvda qoldiriladi. Bu vaqt davomida har 24 soatda indikator ko‘rsatkichlari qayd etiladi.

Ko‘pchish foizi quyidagi formula bo‘yicha hisoblanadi [1]:

$$Ko'pchish(\%) = \left(\frac{\Delta h}{h_0}\right) \times 100$$

$$\Delta h = h - h_1$$

Bu yerda: Δh – balandlik o‘zgarishi (mm), h_0 – namunaning dastlabki balandligi (mm) h - so‘ngi indicator ko‘rsatgichi (mm), h_1 – dastlabki insikator ko‘rsatgichi (mm). Agar gruntning shishishi 2-3% dan yuqori bo‘lsa, bunday grunt yo‘l asosi uchun xavfli hisoblanadi, chunki u namlanganda yo‘l yuzasida to‘lqinsimon deformatsiyalar hosil qilishi mumkin [1, 8].

3.6. Penetratsiya sinovi

96 soat namlash tugagach, namunalar suvdan chiqariladi, ustidagi ortiqcha suv to‘kiladi va 15 daqiqa davomida vertikal holda qoldiriladi. So‘ngra har bir namuna CBR qurilmasiga joylashtiriladi.

Penetratsiya sinovining quyidagichaolib boriladi [1, 2, 10, 11]:

1. **Plunjerni o‘rnatish:** Plunjer namuna yuzasiga juda kichik yuki bilan tekkiziladi. Ushbu yuk odatda 40–50 N (taxminan 4–5 kg) dan oshmaydi va u plunjer bilan grunt o‘rtasida to‘liq kontaktni ta’minlaydi.
2. **Datchiklarni nolga keltirish:** Penetratsiya va yuk datchiklari nol holatiga o‘rnatiladi.
3. **Yuklash tezligi:** Qurilma doimiy 1.27 mm/min (0.05 dyuym/min) tezlikda harakatlana boshlaydi. Tezlikning o‘zgarmasligi muhim, chunki gruntning qarshiligi yuklanish tezligiga bog‘liq.
4. **Ma’lumotlarni yozish:** Yuk qiymatlari quyidagi chuqurliklarda qayd etiladi: 0.64, 1.27, 1.91, 2.54, 3.75, 5.08, 7.62, 10.0 va 12.5 mm.

Agar sinov davomida maksimal yuk 12.5 mm chuqurlikka yetmasdan qayd etilsa, aynan o‘sha maksimal yuk va unga mos keladigan chuqurlik hisobotga kiritiladi. Sinov tugagach, plunjer chiqarib olinadi va plunjer ostidagi chuqurchadan namlikni tekshirish uchun grunt namunasi olinadi, bu sinov paytidagi real namlikni aniqlashga yordam beradi [10].

3.7. Natijalarni qayta ishlash va hisoblash

Yuklanish-penetratsiya grafigi chiziladi. Agar grafikning boshlang‘ich qismi botiq bo‘lsa (yuqoriga egilgan), boshlang‘ich nuqtani siljitish (origin shift) usuli qo‘llaniladi [10, 11]:

1. Grafikning eng tik va chiziqli qismidan urinma chiziladi.
2. Ushbu urinmaning gorizontal (penetratsiya) o‘qi bilan kesishgan nuqtasi yangi “shartli nol” nuqtasi deb hisoblanadi.
3. Barcha standart penetratsiya nuqtalari (2.5 mm va 5.0 mm) ushbu yangi nuqtadan boshlab qaytadan hisoblanadi.


Bu usul boshlang‘ich egrilikni tuzatib, CBR qiymatini aniqroq hisoblash imkonini beradi. Aks holda, CBR qiymati 5-10% ga kamaytirib ko‘rsatilishi mumkin [11].

CBR ko‘rsatkichi 2.5 mm va 5.0 mm penetratsiya uchun alohida hisoblanadi [1, 2, 10]:

$$CBR_{2.5} = \frac{p_{2.5}}{6.9} \times 100\%$$

$$CBR_{5.0} = \frac{p_{5.0}}{10.3} \times 100\%$$

Odatda, 2.5 mm dagi CBR qiymati 5.0 mm dagisidan yuqori bo‘ladi va aynan shu qiymat dizayn uchun CBR sifatida qabul qilinadi [1, 2]. Biroq, agar 5.0 mm dagi CBR qiymati sezilarli darajada yuqori bo‘lsa, sinov boshqa namuna bilan takrorlanadi. Agar takroriy sinovda ham xuddi shunday holat kuzatilsa, kattaroq qiymat (ya’ni 5.0 mm dagi) CBR ko‘rsatkichi sifatida olinadi [1, 2].



3-rasm. CBR qiymatini aniqlanish grafigi

Yakuniy CBR qiymati grafik asosida aniqlanadi. Bunda zichlik bilan bog‘liq jarayonni aks ettirish uchun bajariladi. 100% zichlikka nisbatan bajarilgan ishlar real sharoitda bajarilmaydi, shu munosabat bilan loyihada 98%,95% zichlik ko‘rsatgichi talab qilinadi, bu jarayonni aks ettirish uchun esa grafik quriladi va 3 nuqta CBR ko‘rsatgichlari biralashtiriladi. CBR va maksimal quruq zichlik grafigi quriladi. 98% zichlik ko‘rsatgichi aniqlanadi, 3 nuqta olingan zichlik to‘g‘ri chizig‘i bilan kesishgan nuqta aniqlanadi vas shu nuqtaga mos CBR birligi yakuniy ko‘rsatgich hisoblanadi.

4. XULOSA

Ushbu maqolada Kaliforniya mustahkamlik koeffitsiyentini (CBR) laboratoriya sharoitida aniqlashning to‘liq metodologik tavsifi keltirildi. Xalqaro standartlar (ASTM D1883, AASHTO T193) asosida sinovning barcha bosqichlari – jihozlar tarkibi, namuna tayyorlash, Proktor sinovi, 96 soat namlash, penetratsiya sinovi va natijalarni hisoblash tartibi batafsil yoritildi.

CBR sinovi quyidagi asosiy bosqichlarni o‘z ichiga oladi:

1. Grunt namunasini tayyorlash va 19 mm elakdan o‘tkazish.
2. Proktor sinovi yordamida optimal namlik va maksimal zichlikni aniqlash.
3. CBR namunasini OMC da tayyorlash va zichlash.
4. 96 soat davomida namlash va ko‘pchishni o‘lchash.

5. 1.27 mm/min tezlikda penetratsiya sinovi o'tkazish.
6. Yuklanish-penetratsiya grafigini qurish va origin shift usuli bilan tuzatish.
7. 2.5 mm va 5.0 mm penetratsiya uchun CBR qiymatlarini hisoblash.

Ushbu metodologik qo'llanma yo'l qurilishi laboratoriyalari mutaxassislari va muhandislar uchun amaliy ahamiyatga ega bo'lib, CBR sinovini to'g'ri va ishonchli bajarish imkonini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. ASTM International. (2016). *ASTM D1883-16: Standard Test Method for California Bearing Ratio (CBR) of Laboratory-Compacted Soils*. West Conshohocken, PA: ASTM International.
2. AASHTO. (2013). *AASHTO T 193-13: Standard Method of Test for The California Bearing Ratio*. Washington, D.C.: American Association of State Highway and Transportation Officials.
3. AASHTO. (2021). *AASHTO T 180-21: Standard Method of Test for Moisture–Density Relations of Soils Using a 4.54-kg (10-lb) Rammer and a 457-mm (18-in.) Drop*. Washington, D.C.: AASHTO.
4. ASTM. (2012). *ASTM D698-12: Standard Test Methods for Laboratory Compaction Characteristics of Soil Using Standard Effort*. West Conshohocken, PA: ASTM International.
5. AASHTO. (2021). *AASHTO T 99: Standard Method of Test for Moisture–Density Relations of Soils Using a 2.5-kg (5.5-lb) Rammer and a 305-mm (12-in.) Drop*. Washington, D.C.: AASHTO.
6. Porter, O. J. (1938). The preparation of subgrades. *Proceedings of the Highway Research Board*, 18(2), 324–335.
7. Livneh, M., & Greenstein, J. (1978). A modified California Bearing Ratio test for granular materials. *Geotechnical Testing Journal*, 1(3), 141–147.
8. Yoder, E. J., & Witczak, M. W. (1975). *Principles of Pavement Design* (2nd ed.). John Wiley & Sons.
9. Transportation Research Board. (1962). *Moisture Content and the CBR Method of Design* (Special Report 40). Washington, D.C.: TRB.
10. Indian Institute of Technology Kanpur. (n.d.). *California bearing ratio test*. https://home.iitk.ac.in/~madhav/expt14.html
11. Kansas Department of Transportation. (2021). *Determining an Acceptable California Bearing Ratio (CBR) Value for Kansas Subgrades Based on Pavement Distress Data* (Report No. FHWA-KS-21-03). https://rosap.ntl.bts.gov/view/dot/78811/

OLIY TA’LIM TASHKILOTLARIDA ISHLAB CHIQARISH AMALIYOTI SOATLARINI KASBIY STAJ SIFATIDA HISOBGA OLISHNING PEDAGOGIK IMKONIYATLARI

Axmedova Zilola Muxtor qizi

Xalqaro Nordik universiteti

Pedagogika fakulteti magistranti

Toshkent, O‘zbekiston

E-mail: zilolamuxtorovna5915@gmail.com

+99833 001 59 15

https://orcid.org/0009-0002-3452-2539

Annotatsiya

Mazkur maqolada oliy ta’lim muassasalarida tashkil etiladigan ishlab chiqarish amaliyotining talabalarning kasbiy tayyorgarligini shakllantirishdagi o‘rni va ahamiyati tahlil qilinadi. Shuningdek, ishlab chiqarish amaliyoti davomida o‘tilgan mashg‘ulot soatlarini bitiruvchilar uchun dastlabki kasbiy staj sifatida hisobga olish masalasi ilmiy-pedagogik jihatdan ko‘rib chiqiladi. Tadqiqot jarayonida ishlab chiqarish amaliyotining talabalarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish, o‘quv motivatsiyasini oshirish hamda nazariy bilimlarni amaliy faoliyat bilan uyg‘unlashtirishdagi pedagogik imkoniyatlari yoritib beriladi. Shu bilan birga, ishlab chiqarish amaliyotini samarali tashkil etish, uning mazmunini boyitish hamda talabalarning real ish muhiti bilan yaqindan tanishishiga sharoit yaratish zarurligi asoslab beriladi. Muallif tomonidan ishlab chiqarish amaliyotini yanada samarali tashkil etish orqali talabalarning kasbiy ko‘nikmalarini rivojlantirish hamda amaliyot soatlarini kasbiy staj sifatida hisobga olish imkoniyatlari ko‘rib chiqiladi. Mazkur yondashuv bitiruvchilarning mehnat bozoriga moslashuvini osonlashtirish hamda ularning bandligini oshirishga xizmat qilishi mumkin.

Kalit so‘zlar

Ishlab chiqarish amaliyoti, kasbiy staj, oliy ta’lim, kasbiy kompetensiya, amaliy ta’lim, talaba motivatsiyasi, bitiruvchilar bandligi, kasbiy tajriba, mehnat bozori, ta’lim samaradorligi.

Kirish

Hozirgi globallashuv sharoitida mehnat bozorida raqobat kuchayib borayotgan bir paytda oliy ta’lim tizimining asosiy vazifalaridan biri kasbiy kompetensiyalarga ega bo‘lgan malakali mutaxassislarni tayyorlashdan iboratdir. Zamonaviy ta’lim jarayonida nazariy bilimlar bilan bir qatorda amaliy tayyorgarlikni rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Shu nuqtai nazardan, oliy ta’lim muassasalarida tashkil etiladigan ishlab chiqarish amaliyoti talabalarning kasbiy kompetensiyalarini shakllantirish, real ish muhiti bilan tanishish hamda kelajakdagi kasbiy faoliyatga moslashishida muhim bosqich hisoblanadi. Biroq ko‘plab mamlakatlarda oliy ta’lim muassasalarini bitirgan yosh mutaxassislarning ishga joylashishida ish beruvchilar tomonidan kasbiy tajriba yoki staj talab qilinishi dolzarb muammolardan biri bo‘lib qolmoqda. Mazkur masala xalqaro miqyosda ham muhokama qilinib, yoshlarning bandligini ta’minlash hamda ta’lim va mehnat bozori o‘rtasidagi integratsiyani kuchaytirish zarurligi turli xalqaro forum va konferensiyalarda qayd etib o‘tilgan [1].

Mazkur muammo MDH davlatlari ta’lim tizimida ham dolzarb masalalardan biri sifatida e’tirof etilmoqda. Oliy ta’lim muassasalarini tamomlagan bitiruvchilarning ishga joylashishida amaliy tajribaning yetishmasligi ko‘plab yosh mutaxassislar uchun muayyan qiyinchiliklarni yuzaga keltirmoqda. Shu sababli oliy ta’lim jarayonida o‘tiladigan ishlab chiqarish amaliyotining mazmunini takomillashtirish, uning samaradorligini oshirish hamda amaliy mashg‘ulotlarni real kasbiy faoliyat bilan uzviy bog‘lash masalalari alohida ahamiyat kasb etmoqda [2].

O‘zbekiston oliy ta’lim tizimida ham talabalarning amaliy tayyorgarligini kuchaytirish muhim vazifalardan biri sifatida qaralmoqda. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 8-yanvardagi 11-son qarori bilan **“Oliy ta’lim tashkilotlari talabalarining haq to‘lanadigan malaka amaliyotini tashkil etish tartibi to‘g‘risida”gi nizom** tasdiqlangan. Mazkur hujjat talabalarining ishlab chiqarish amaliyotini real mehnat faoliyati bilan bog‘lash, ularning kasbiy ko‘nikmalarini rivojlantirish hamda amaliy tayyorgarligini kuchaytirishga qaratilgan muhim me’yoriy asoslardan biri hisoblanadi. Biroq amaliyot davomida o‘tilgan mashg‘ulot soatlarining bitiruvchilarning kasbiy tajribasi yoki staji sifatida e’tirof etilmasligi ayrim hollarda yosh mutaxassislarning mehnat bozoriga moslashuvini qiyinlashtirishi mumkin. Shu sababli oliy ta’lim muassasalarida ishlab chiqarish amaliyoti soatlarini kasbiy staj sifatida hisobga olish imkoniyatlarini o‘rganish va uning pedagogik ahamiyatini tahlil qilish muhim ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar tahlili

Oliy ta’lim tizimida talabalarning kasbiy tayyorgarligini shakllantirish, amaliy mashg‘ulotlar samaradorligini oshirish hamda ta’lim jarayonini real kasbiy faoliyat bilan uyg‘unlashtirish masalalari ko‘plab pedagog olimlar tomonidan o‘rganilgan. Mazkur yo‘nalishda olib borilgan ilmiy tadqiqotlarda ishlab chiqarish amaliyotining talabalarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishdagi ahamiyati alohida ta’kidlab o‘tiladi.

Xususan, N.A. Muslimov o‘z tadqiqotlarida ta’lim jarayonida amaliy faoliyatga asoslangan o‘qitish talabalarning kasbiy tayyorgarligini shakllantirishda muhim omil ekanligini ta’kidlaydi. Uning fikricha, amaliy mashg‘ulotlar talabalarning nazariy bilimlarini mustahkamlash, kasbiy ko‘nikmalarini rivojlantirish hamda mustaqil faoliyat yuritish malakalarini shakllantirishda muhim pedagogik vosita hisoblanadi [3].

O.A. Qo‘ysinov ham oliy ta’lim jarayonida amaliy mashg‘ulotlarning samaradorligini oshirish masalasiga alohida e’tibor qaratadi. Tadqiqotchining ta’kidlashicha, ta’lim

jarayonida tashkil etiladigan ishlab chiqarish amaliyoti talabalarning kelajakdagi kasbiy faoliyatga tayyorlanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Amaliy mashg‘ulotlar talabalarning kasbiy kompetensiyalarini shakllantirish bilan bir qatorda ularning real ish muhiti bilan tanishishiga ham imkon yaratadi [4].

Xorijiy tadqiqotchilar ham oliy ta’lim tizimida amaliy tayyorgarlikni kuchaytirish masalasiga alohida e’tibor qaratganlar. Jumladan, D. Kolb tomonidan ishlab chiqilgan **tajribaga asoslangan o‘qitish (experiential learning)** nazariyasida ta’lim jarayonida amaliy faoliyat muhim ahamiyatga ega ekanligi ta’kidlanadi. Ushbu nazariyaga ko‘ra, bilimlar amaliy tajriba orqali yanada samarali o‘zlashtiriladi va mustahkamlanadi [5].

Shuningdek, zamonaviy ta’lim tizimida oliy ta’lim muassasalari bilan mehnat bozori o‘rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish, talabalarning amaliy tayyorgarligini rivojlantirish hamda ularning kasbiy tajribasini oshirish masalalari xalqaro tadqiqotlarda ham keng yoritilgan. Biroq olib borilgan tadqiqotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, oliy ta’lim muassasalarida tashkil etiladigan ishlab chiqarish amaliyoti soatlarini bitiruvchilarning kasbiy staji sifatida hisobga olish masalasi yetarli darajada o‘rganilmagan.

Shu sababli ishlab chiqarish amaliyoti soatlarini kasbiy staj sifatida hisobga olish imkoniyatlarini o‘rganish hamda uning pedagogik ahamiyatini tahlil qilish mazkur tadqiqotning asosiy yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

Tadqiqot metodologiyasi

Mazkur tadqiqot oliy ta’lim muassasalarida tashkil etiladigan ishlab chiqarish amaliyotining talabalarning kasbiy tayyorgarligini shakllantirishdagi o‘rni hamda amaliyot soatlarini kasbiy staj sifatida hisobga olish imkoniyatlarini o‘rganishga qaratilgan. Tadqiqot jarayonida pedagogik tahlil, ilmiy adabiyotlarni o‘rganish, taqqoslash, tizimli tahlil hamda umumlashtirish metodlaridan foydalanildi. Ushbu metodlar orqali ishlab chiqarish amaliyotining talabalarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishdagi ahamiyati hamda uning pedagogik imkoniyatlari o‘rganildi.

Tadqiqotning metodologik asosini oliy ta’lim jarayonida nazariy bilimlar bilan amaliy faoliyatni uyg‘unlashtirishga qaratilgan pedagogik yondashuvlar tashkil etadi. Tadqiqotda talabalarning kasbiy tayyorgarligini shakllantirishda amaliy ta’limning o‘rni, ishlab chiqarish amaliyoti jarayonida shakllanadigan kasbiy ko‘nikmalar hamda talabalarning real ish muhiti bilan tanishish jarayonlari pedagogik nuqtai nazardan tahlil qilindi.

Mazkur tadqiqotda ishlab chiqarish amaliyotining mazmuni, uning tashkil etilish mexanizmi hamda talabalarning amaliy faoliyatga jalb etilish jarayonlari o‘rganildi. Shuningdek, amaliyot davomida talabalar tomonidan bajariladigan kasbiy faoliyat turlari, amaliy vazifalar hamda ushbu jarayonda shakllanadigan kasbiy kompetensiyalar pedagogik tahlil asosida ko‘rib chiqildi.

Tadqiqot davomida ishlab chiqarish amaliyotining talabalarning kasbiy tayyorgarligini shakllantirishdagi ahamiyatini aniqlash maqsadida oliy ta’lim muassasalarida amaliy mashg‘ulotlarning tashkil etilishi, talabalarning amaliy faoliyatga jalb etilish darajasi hamda amaliyot jarayonining ta’lim samaradorligiga ta’siri tahlil qilindi. Shu bilan birga, ishlab chiqarish amaliyoti davomida o‘tilgan mashg‘ulot soatlarini

bitiruvchilarning dastlabki kasbiy tajribasi sifatida hisobga olish imkoniyatlari ham ilmiy-nazariy jihatdan o‘rganildi.

Tadqiqotning muhim yo‘nalishlaridan biri ishlab chiqarish amaliyotini samarali tashkil etish masalasini o‘rganishdan iborat bo‘ldi. Shu nuqtai nazardan amaliyot jarayonining mazmuni, tashkil etilish tartibi hamda talabalarning amaliy faoliyatga jalb etilish darajasi tahlil qilindi. Amaliyot jarayonini yanada samarali tashkil etish maqsadida uning mazmunini tizimli ravishda rejalashtirish, talabalarning bajaradigan kasbiy faoliyat turlarini aniq belgilash hamda amaliy mashg‘ulotlarni real ish muhiti bilan bog‘lash zarurligi o‘rganildi.

Shuningdek, ishlab chiqarish amaliyotining samaradorligini oshirishda amaliyot jarayoni uchun alohida o‘quv dasturi yoki sillabus ishlab chiqish masalasi ham metodologik jihatdan ko‘rib chiqildi. Bunday sillabus amaliyotning maqsadi, vazifalari, bajariladigan amaliy faoliyat turlari hamda kutilayotgan natijalarni aniq belgilash imkonini beradi. Bu esa amaliyot jarayonini yanada tizimli va mazmunli tashkil etish, talabalarning real kasbiy faoliyatga faol jalb etilishini ta’minlash hamda ularning amaliy tajribasini oshirishga xizmat qiladi.

Mazkur metodologik yondashuv asosida ishlab chiqarish amaliyotini kasbiy staj sifatida hisobga olishning pedagogik imkoniyatlari o‘rganildi hamda uning oliy ta’lim tizimida qo‘llanilish istiqbollari tahlil qilindi.

Baxs-munozara (Natijalar)

Tadqiqot jarayonida oliy ta’lim muassasalarida tashkil etiladigan ishlab chiqarish amaliyoti soatlarini kasbiy staj sifatida hisobga olish imkoniyatlari pedagogik nuqtai nazardan tahlil qilindi. Olib borilgan tahlillar shuni ko‘rsatadiki, ishlab chiqarish amaliyoti talabalarning kasbiy tayyorgarligini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega bo‘lib, ularning nazariy bilimlarini amaliy faoliyat bilan uyg‘unlashtirishga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalariga ko‘ra, ishlab chiqarish amaliyoti soatlarini kasbiy staj sifatida hisobga olish talabalarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Amaliyot jarayonida talabalar real ish muhiti bilan tanishadilar, kasbiy faoliyat jarayonida zarur bo‘lgan ko‘nikmalarni egallaydilar hamda kelajakdagi kasbiy faoliyatga tayyorgarlik darajasi oshadi.

Shuningdek, olib borilgan tahlillar ishlab chiqarish amaliyoti soatlarini kasbiy staj sifatida hisobga olish talabalarning o‘quv motivatsiyasini oshirishga ham xizmat qilishini ko‘rsatdi. Agar talaba amaliyot jarayonida bajarilgan faoliyat kelajakdagi kasbiy tajribasi sifatida baholanishini bilsa, u amaliy mashg‘ulotlarga yanada faol va mas’uliyat bilan yondashadi. Natijada talabalarning o‘quv jarayoniga bo‘lgan qiziqishi ortadi hamda ularning kasbiy tayyorgarlik darajasi oshadi.

Bundan tashqari, ishlab chiqarish amaliyoti soatlarini kasbiy staj sifatida e’tirof etish oliy ta’lim muassasalari hamda ishlab chiqarish tashkilotlari o‘rtasidagi hamkorlikni kuchaytirishga xizmat qiladi. Bu esa ta’lim jarayonining ishlab chiqarish bilan integratsiyasini kuchaytiradi hamda amaliy ta’lim samaradorligini oshiradi.

Shu bilan birga, tadqiqot natijalari ishlab chiqarish amaliyotini yanada samarali tashkil etish zarurligini ham ko‘rsatdi. Amaliyot jarayoni tizimli va mazmunli tashkil etilishi uchun alohida **sillabus yoki amaliy dastur** ishlab chiqilishi muhim hisoblanadi. Bunday sillabus amaliyot jarayonini chuqurroq tashkil etish hamda talabalarning real ish faoliyatiga faol jalb etilishini ta’minlashga xizmat qiladi.

Natijada ishlab chiqarish amaliyoti soatlarini kasbiy staj sifatida hisobga olish bitiruvchilarning mehnat bozoriga moslashuvini osonlashtiradi. Talabalar o‘qish jarayonida ma’lum darajada kasbiy tajribaga ega bo‘lib chiqadilar, bu esa ularning ishga joylashish imkoniyatlarini kengaytiradi.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, oliy ta’lim muassasalarida tashkil etiladigan ishlab chiqarish amaliyoti talabalarning kasbiy tayyorgarligini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Zamonaviy mehnat bozorida yosh mutaxassislarning ishga joylashishida kasbiy staj muhim omillardan biri hisoblanadi. Shu sababli talabalarning o‘qish jarayonida egallagan amaliy ko‘nikmalari va tajribasi kelajakdagi kasbiy faoliyatida muhim rol o‘ynaydi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, ishlab chiqarish amaliyoti soatlarini kasbiy staj sifatida hisobga olish bitiruvchilarning mehnat bozoriga moslashuvini osonlashtirish hamda ularning ishga joylashish imkoniyatlarini kengaytirishga xizmat qilishi mumkin. Talabalar o‘qish davrida amaliy faoliyat jarayonida zarur kasbiy ko‘nikmalarni egallab boradilar va bu ularga kelajakda o‘z mutaxassisligi bo‘yicha faoliyat yuritishda muhim tajriba bo‘lib xizmat qiladi.

Biroq mazkur masalada faqatgina amaliyot mavjudligi emas, balki uning mazmunli va samarali tashkil etilishi ham muhim ahamiyatga ega. Ishlab chiqarish amaliyoti talabalarning kasbiy faoliyatga real tayyorgarligini ta’minlaydigan darajada chuqur va sifatli tashkil etilishi zarur. Amaliyot jarayonida talabalar real ish muhiti bilan tanishishi, mustaqil faoliyat yuritish ko‘nikmalarini egallashi hamda kasbiy tajriba orttirishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratilishi lozim.

Shu sababli oliy ta’lim muassasalarida ishlab chiqarish amaliyotini yanada takomillashtirish, uning mazmunini boyitish hamda amaliy mashg‘ulotlarga alohida e’tibor qaratish muhim hisoblanadi. Amaliyot jarayonining samarali tashkil etilishi kelajakda talabalarga ma’lum darajada kasbiy tajriba berishi mumkin. Shu nuqtai nazardan ishlab chiqarish amaliyoti soatlarini bitiruvchilarning dastlabki kasbiy staji sifatida hisobga olish imkoniyatlarini ko‘rib chiqish maqsadga muvofiqdir.

Mazkur yondashuv nafaqat talabalarning kasbiy tayyorgarligini kuchaytirishga, balki ularning mehnat bozoriga tezroq moslashishiga, ishga joylashish imkoniyatlarini kengaytirishga ham xizmat qilishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. UNESCO-UNEVOC. *Improving Work-Based Learning (WBL) Programmes for Young People in the South Mediterranean Region: Regional Guidelines*. Bonn: UNESCO-UNEVOC, 2021.

2. International Labour Organization (ILO). *Global Employment Trends for Youth 2024*. Geneva: ILO, 2024.

3. Muslimov N.A. *Pedagogik texnologiyalar*. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2020.

4. Qo‘ysinov O.A. *Ta’lim jarayonini tashkil etish metodikasi*. – Toshkent, 2021.

5. Kolb D.A. *Experiential Learning: Experience as the Source of Learning and Development*. 2nd ed. Boston: Pearson Education, 2015.

«RESEARCH AND PUBLICATIONS»
ILMIY NASHRLAR MARKAZI

VIRTUAL LABORATORIYALAR VA RAQAMLI SIMULYATSIYANING STEAM *FANLARINI O‘QITISHDAGI SAMARADORLIGI*

Boltayeva Zilola Safoyevna - Buxoro viloyati pedagogik mahorat markazi katta o’qituvchisi

Annotatsiya

Mazkur maqolada STEM fanlarini o‘qitishda raqamli simulyatsiya va virtual laboratoriyalardan foydalanishning pedagogik ahamiyati, metodik imkoniyatlari va samaradorligi tahlil qilinadi. Virtual muhitlarda tajribalar o‘tkazish jarayonining xavfsizligi, resurs tejamkorligi, o‘quvchilarda amaliy ko‘nikmalarni shakllantirishga ta’siri ilmiy adabiyotlar va amaliy tadqiqotlar asosida yoritilgan. Shuningdek, PhET, Labster, Mozaik 3D kabi platformalar misolida virtual laboratoriyalarning STEM ta’limidagi o‘rni, ularning o‘quv motivatsiyasi va tushunchalar chuqurligini oshirishdagi roli ko‘rsatib beriladi.

Kalit so‘zlar:

STEM ta’limi, virtual laboratoriya, raqamli simulyatsiya, PhET, Labster, raqamli pedagogika, 3D modellashtirish, AKT, amaliy tajriba.

Abstract

This article analyzes the pedagogical significance, methodological opportunities, and effectiveness of using digital simulations and virtual laboratories in teaching STEM subjects. The safety, cost-effectiveness, and skill-building potential of conducting experiments in virtual environments are examined based on scientific literature and practical research. Using platforms such as PhET, Labster, and Mozaik 3D as examples, the study highlights the role of virtual laboratories in STEM education and their impact on enhancing student motivation and conceptual understanding.

Keywords:

STEM education, virtual laboratory, digital simulation, PhET, Labster, digital pedagogy, 3D modeling, ICT, practical experiments.

Аннотация

В данной статье рассматриваются педагогическое значение, методические возможности и эффективность использования цифровых симуляций и виртуальных лабораторий в преподавании STEM-дисциплин. Анализируется безопасность, экономичность и влияние виртуальных экспериментов на формирование практических навыков учащихся. На примере платформ PhET, Labster и Mozaik 3D раскрывается роль виртуальных лабораторий в STEM-образовании, а также их влияние на мотивацию и глубину усвоения учебного материала.

Ключевые слова:

STEM-образование, виртуальная лаборатория, цифровая симуляция, PhET, Labster, цифровая педагогика, 3D-моделирование, ИКТ, практические навыки.

KIRISH

Zamonaviy ta’lim jarayonida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi aniq va tabiiy fanlarni o‘qitishda yangi imkoniyatlarni yaratmoqda. Xususan, STEM (Science, Technology, Engineering, Mathematics) yo‘nalishiga kiruvchi fanlarda raqamli simulyatsiya va virtual laboratoriyalardan foydalanish o‘quvchilarda ilmiy tafakkur, amaliy ko‘nikma va eksperimental madaniyatni shakllantirishda muhim omil bo‘lib xizmat qilmoqda.

Fizika, kimyo, biologiya va texnologiya fanlarida tajribalarni an’anaviy usulda tashkil etish xarajat, xavfsizlik, jihozlar yetishmasligi va vaqt bilan bog‘liq muammolarni keltirib chiqarishi mumkin. Virtual laboratoriyalar ushbu cheklovlarni bartaraf etgan holda tajribalarni xavfsiz, tezkor va resurs tejamkor tarzda amalga oshirish imkonini beradi.

So‘nggi yillarda PhET Interactive Simulations, Labster, Mozaik 3D, PraxiLabs kabi resurslardan foydalanish global ta’lim tizimida kengayib, o‘quv jarayonining samaradorligini oshirishga xizmat qilmoqda. Ushbu maqolada mazkur texnologiyalarning didaktik imkoniyatlari, o‘quvchilarning bilim va ko‘nikmalariga ta’siri hamda amaliy tajribalar asosida olingan natijalar tahlil qilinadi.

1. Virtual laboratoriyalarning ilmiy-pedagogik asoslari

Virtual laboratoriya — bu real tajribani kompyuter simulyatsiyasi orqali modellashtiradigan raqamli muhit bo‘lib, o‘quvchilarga fizik, kimyoviy va biologik jarayonlarni real sharoitga yaqin holatda kuzatish imkonini beradi.

Tadqiqotchilarning fikriga ko‘ra, virtual tajribalar:

• murakkab jarayonlarni vizuallashtiradi,

• xavfli reaksiyalarni xavfsiz muhitda o‘tkazish imkonini beradi,

• o‘quvchilarda sabab-oqibat aloqalarini tushunishga yordam beradi,

• tajribani bir necha bor takrorlash imkonini yaratadi.

Bunday platformalar konstruktivistik ta’lim yondashuvi tamoyillariga tayangan holda o‘quvchi faoliyatini markazga qo‘yadi.

2. STEM fanlarida raqamli simulyatsiya qo‘llanilishining afzalliklari

Raqamli simulyatsiyalar murakkab tushunchalarni soddalashtirib, ularni interaktiv tarzda ko‘rsatadi.

Misol uchun:

• Fizikada: murakkab mexanik, elektr, optik jarayonlar modellashtiriladi.

• Kimyoda: molekulyar tuzilish, reaksiyalar ketma-ketligi, laboratoriya jihozlaridan foydalanish o‘rgatiladi.

• Biologiyada: hujayra bo‘linishi, organlar faoliyati, ekologik tizimlar animatsiya qilinadi.

Ularning asosiy afzalliklari quyidagilardan iborat:

1. Xavfsizlik: zaharli modda, portlash yoki kuyish xavfi mavjud emas.

2. Tejamkorlik: fizik laboratoriya jihozlari, reagentlar, sarf materiallari talab qilinmaydi.

3. Kuzatuv imkoni: jarayonlar sekinlashtirilgan yoki tezlashtirilgan holda namoyish qilinadi.

4. Shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim: o‘quvchi o‘z tempida o‘rganadi, takroriy mashg‘ulotlar mavjud.

5. Interaktivlik: o‘quvchi jarayonni boshqaradi, parametrlarni o‘zgartiradi, natijalarni solishtiradi.

3. Virtual laboratoriyalarning o‘quv jarayoniga ta’siri

Turli ilmiy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, virtual laboratoriyalardan foydalanish:

• o‘quvchilarning fanlarga qiziqishini 30–60% ga oshiradi,

• tajriba natijalarini tushunish darajasini kuchaytiradi,

• mavzu bo‘yicha mustaqil ishlash ko‘nikmalarini rivojlantiradi,

• analitik va tanqidiy fikrlashni shakllantiradi.

Masalan, PhET simulyatsiyalaridan foydalanish dars samaradorligini oshirishi, ayniqsa fizik jarayonlarni aniqlashtirishda yuqori natija berishi ilmiy anbalarda qayd etilgan.

4. Amaliy platformalar tahlili

PHET INTERACTIVE SIMULATIONS

Kolorado universiteti tomonidan yaratilgan bepul simulyatsiyalar to‘plami. Qulay interfeys, sodda tushuntirish va 100 dan ortiq interaktiv laboratoriyalar mavjud.

LABSTER

Biologiya va kimyo yo‘nalishida 3D formatdagi murakkab virtual laboratoriyalarni taklif etadi, real laboratoriya jarayoniga juda yaqin modellashtirilgan.

MOZAIK 3D

Fizika, geografiya, texnologiya va biologiya fanlari uchun 3D modellarni taqdim etadi. Maktab dasturi bilan mos keladi.

5. Real eksperiment va virtual eksperimentning taqqoslanishi

Ko‘rsatkich Real laboratoriya Virtual laboratoriya

Xavfsizlik Nisbatan past Juda yuqori

Narxi Yuqori Arzon yoki bepul

Jihozlar Ko‘p talab etiladi Raqamli muhitda

Takrorlash imkoniyati Cheklangan Cheksiz

Mavjudlik Barcha maktablarda emas Internet bo‘lsa yetarli

Bu taqqoslash shuni ko‘rsatadiki, virtual laboratoriyalar real laboratoriyalarni to‘liq almashtirmaydi, ammo ularni kuchli tarzda to‘ldiradi va ayrim holatlarda muqobil imkoniyat sifatida xizmat qiladi.

XULOSA

Raqamli simulyatsiya va virtual laboratoriyalar STEM fanlarini o‘qitish jarayonida muhim o‘rin tutadi. Ular murakkab ilmiy jarayonlarni modellashtirish, o‘quvchilarda eksperimental faoliyatni rivojlantirish, xavfsizlikni ta’minlash hamda o‘quv jarayonini individuallashtirish imkonini beradi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, virtual laboratoriyalar o‘quvchilarning fanga qiziqishi, bilimlarni o‘zlashtirish darajasi va amaliy ko‘nikmalariga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi.

Shu sababli, virtual laboratoriyalarni ta’lim jarayoniga integratsiya qilish, o‘qituvchilar malakasini oshirish, resurslardan foydalanish bo‘yicha metodik tavsiyalar ishlab chiqish va maktab hamda oliy ta’lim muassasalarida raqamli ta’lim muhitini takomillashtirish dolzarb vazifa hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. PhET Interactive Simulations. University of Colorado Boulder.

2. Labster Virtual Labs. www.labster.com

3. Mozaik Education. Mozaik 3D platformasi.

4. N. Rutten, W. R. van Joolingen, J. T. van der Veen. “The Learning Effects of Computer Simulations in Science Education.” Computers & Education, 2012.

HARBIY MULOQOT TIZIMLARIDA ISHONCH VA AXBOROT ISHONCHLILIGI MUAMMOSI

ПРОБЛЕМА ДОВЕРИЯ И НАДЁЖНОСТИ ИНФОРМАЦИИ В ВОЕННЫХ СИСТЕМАХ СВЯЗИ

THE PROBLEM OF TRUST AND INFORMATION IN MILITARY COMMUNICATION SYSTEMS

B.M. AZIMOV,
O‘zbekiston Respublikasi Harbiy Xavfsizlik va Mudofaa Universiteti
dotsent, podpolkovnik

Б.М. АЗИМОВ,
доцент, подполковник Университета Обороны и Военной Безопасности
Республики Узбекистан

B.M.AZIMOV,
Associate Professor at the University of Military Security and Defense, lieutenant Colonel

Annotatsiya

Mazkur ilmiy maqolada harbiy muloqot tizimlarida ishonch fenomeni va axborot ishonchliligini ta’minlash muammolari kompleks tahlil qilinadi. Zamonaviy harbiy operatsiyalar sharoitida axborotning tezkorligi, aniqligi va haqqoniyligi qo‘shinlarni boshqarish samaradorligining hal qiluvchi omili hisoblanadi. Maqolada harbiy muloqot tushunchasi, ishonchning institutsional va shaxsiy darajalari, axborot ishonchliligiga tahdid soluvchi omillar hamda ularni bartaraf etish mexanizmlari ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, raqamli transformatsiya va axborot-psixologik kurash sharoitida ishonchni saqlash masalalari ilmiy-nazariy jihatdan asoslab beriladi.

Kalit so‘zlar: harbiy muloqot, ishonch, axborot ishonchliligi, boshqaruv tizimi, axborot xavfsizligi, qaror qabul qilish.

Аннотация

В данной научной статье проводится комплексный анализ проблемы доверия и достоверности информации в системах военной коммуникации. В условиях современных вооружённых конфликтов оперативность, точность и надёжность информации являются ключевыми факторами эффективности управления войсками. В статье раскрывается сущность военной коммуникации, уровни доверия, факторы, угрожающие достоверности информации, а также механизмы их нейтрализации. Особое внимание уделяется вопросам сохранения доверия в условиях цифровизации и информационно-психологического противоборства.

Ключевые слова: военная коммуникация, доверие, достоверность информации, система управления, информационная безопасность, принятие решений.

Abstract

This scientific article provides a comprehensive analysis of the problem of trust and information reliability in military communication systems. In modern military operations, the timeliness, accuracy, and credibility of information are decisive factors in effective command and control. The article examines the concept of military communication, institutional and interpersonal levels of trust, threats to information reliability, and mechanisms for ensuring information integrity. Special attention is paid to maintaining trust under conditions of digital transformation and information-psychological confrontation.

Keywords: military communication, trust, information reliability, command and control system, information security, decision-making.

Zamonaviy harbiy harakatlar yuqori dinamika, axborot oqimining jadallashuvi va qaror qabul qilish vaqtining keskin qisqarishi bilan xarakterlanadi. Bunday sharoitda harbiy muloqot tizimlarining samaradorligi qo‘shinlarni boshqarishning hal qiluvchi elementi sifatida namoyon bo‘ladi.

Harbiy muloqot faqat texnik aloqa vositalari majmuasi emas, balki axborot almashinuvi, buyruq va ko‘rsatmalarning mazmunan to‘g‘ri uzatilishi, shuningdek, ularga bo‘lgan ishonch darajasini ham qamrab oladi.

Ishonch va axborot ishonchliligi o‘zaro uzviy bog‘liq tushunchalar bo‘lib, ularsiz harbiy boshqaruv tizimi barqaror faoliyat ko‘rsata olmaydi. Axborotning noto‘g‘ri, buzilgan yoki kechikib yetib kelishi operatsiyalarning muvaffaqiyatsizligiga, hatto inson yo‘qotishlariga olib kelishi mumkin. Shu sababli mazkur muammoni ilmiy jihatdan o‘rganish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Zamonaviy harbiy operatsiyalarda axborot - eng muhim strategik resurs. Muloqot tizimlarining ishonchliligi nafaqat operatsion muvaffaqiyatni, balki insoniy hayotlarni ham belgilaydi.

Harbiy muloqot tizimlariga umumiy nuqtai nazar: *tarix va bugungi holat*

Tarixiy rivojlanish

Harbiy muloqot insoniyat tarixida urushlar bilan birga rivojlandi, qadimgi davrlarda tutun signallari, nog‘ora va chopar xabarchilar qo‘llanilgan. Birinchi va Ikkinchi jahon urushlarida telegraf, telefon va radio muloqoti strategik ustunlik berdi. Sovuq urush davrida esa shifrlangan kommunikatsiya tizimlari va sun’iy yo‘ldosh aloqasi rivojlandi.

Bugungi holat

Zamonaviy harbiy muloqot tizimlari yuqori darajadagi texnologiyalarni o‘z ichiga oladi: sun’iy yo‘ldosh aloqasi (SATCOM), shifrlangan raqamli radio tarmoqlari (*Joint Tactical Radio System (JTRS); Link-16 taktik ma’lumot aloqa tarmog‘i; Shifrlangan sun’iy yo‘ldosh aloqasi; Taktik bulut hisoblash platformalari*), taktik internet tarmoqlari va real vaqtda ma’lumot uzatish tizimlari. Bunday tizimlar harbiy operatsiyalarning markaziy tizimiga aylangan.

Bugungi harbiy muloqot tizimlari nafaqat ovozli aloqani, balki ma’lumotlar, video, navigatsiya va boshqaruv signallarini real vaqtda uzatishni ta’minlaydi. Ushbu tizimlarning ishonchliligi va himoyalanganligi milliy xavfsizlikni bevosita belgilaydi.

Ishonch tushunchasi: harbiy muhitda axborotga ishonchning ahamiyati

Harbiy muhitda “ishonch” - bu shunchaki psixologik holat emas, balki tizimli va tasdiqlangan jarayon. Axborotga ishonch to‘rtta asosiy o‘lchamga asoslanadi:

Aniqlik (Accuracy).

Uzatilayotgan ma’lumot voqelikni to‘g‘ri aks ettirishi kerak. Noto‘g‘ri koordinatalar yoki xato dushman pozitsiyasi halokatli oqibatlarga olib kelishi mumkin. Aniqlik - axborot ishonchliligining eng muhim komponentidir.

O‘z vaqtlilik (Timeliness).

Jangovar sharoitda ma’lumot soniyalar ichida yetib borishi shart. Kechikkan axborot eskiradi va qarorlar qabul qilishda foydasiz bo‘lib qoladi. Vaqt - harbiy muhitda eng noyob resurs.

Yaxlitlik (Integrity).

Ma’lumot uzatilish jarayonida o‘zgartirilmasligi, buzilmasligi yoki soxtalashtirilmasligi kerak. Raqib tomonidan amalga oshiriladigan o‘rtadagi hujumlar (MITM) ma’lumot yaxlitligini yo‘q qiladi.

Maxfiylik (Confidentiality).

Harbiy axborot faqat vakolatli shaxslarga yetib borishi kerak. Axborotning raqibga oshkor bo‘lishi operatsion xavfsizlikni butunlay yo‘q qiladi va katta strategik zararga olib keladi.

Harbiy muhitda ishonchning buzilishi nafaqat operatsion muvaffaqiyatsizlikni, balki harakatlarga tayyorgarlik ko‘rish va ularni olib borish mobaynida katta yo‘qotishlarga olib kelishi mumkin. Shuning uchun axborot ishonchliligi eng yuqori ustuvorlik sifatida ko‘rib chiqilishi zarur [1].

Axborot ishonchliligiga tahdidlar: *raqiblar, dezinformatsiya va texnik nosozliklar.*

Harbiy muloqot tizimlariga tahdidlar uch asosiy manbaadan kelib chiqadi. Har bir manba o‘ziga xos usullar va oqibatlar bilan tavsiflanadi:

Tashqi tahdidlar.

Raqib davlatlar va terrorchilik tashkilotlari tomonidan harbiy muloqot tizimlariga nishonga olingan elektron razvedka, signal to‘sish va kiberhujumlar. Davlat tomonidan moliyalashtirilgan APT guruhlari (*Advanced Persistent Threat*) harbiy tarmoqlarga yillab kirib turishi mumkin.


Dezinformatsiya.

Ataylab yolg‘on ma’lumot yaratish va tarqatish orqali harbiy rahbariyatni chalg‘itish. Operatsion dezinformatsiya, soxta razvedka ma’lumotlari va psixologik urush usullari harbiy qarorlarni noto‘g‘ri yo‘nalishga burishi mumkin. Bugungi kunda *deyepfake* texnologiyasi bu xatarni yangi darajaga ko‘tardi.


Texnik nosozliklar.

Apparat va dasturiy ta’minotdagi nuqsonlar, tarmoq uzilishlari, elektromagnit interferensiya va atmosfera sharoitlari muloqot tizimlarini ishdan chiqarishi mumkin. Harbiy muhitda texnik ishonchsizlik ham xuddi tashqi hujumlar kabi halokatli bo‘lishi mumkin [2].

Tahdidlar intensivligi dinamikasi



Tahdid manbalarining ulushi



Real voqea: O‘tgan jangovar operatsiyalarda noto‘g‘ri ma’lumot oqibatlari.

Tarix sahifalari noto‘g‘ri harbiy axborot olib kelgan fojiali oqibatlarga to‘la. Quyidagi real voqealar kommunikatsiya ishonchliligining qanchalik hayotiy ahamiyatga ega ekanini ko‘rsatadi:

Iroq urushi (2003): Soxta razvedka ma’lumotlari.

2003 yilda Iroqqa bosqin qilishdan oldin AQSH razvedkasi “*ommaviy qirg‘in qurollari*” mavjudligi haqidagi ma’lumotlarni ishonchli deb qabul qildi. Keyinchalik bu ma’lumotlar noto‘g‘ri yoki ataylab soxtalashtirilgan ekanligi aniqlandi. Bu voqea nafaqat mingllab begunoh insonlar hayotini oldi, balki butun mintaqada uzoq muddatli beqarorlikni keltirib chiqardi. Muloqot va razvedka tizimlarida mustaqil tasdiqlash mexanizmlarining yo‘qligi shu fojiani yuzaga keltirdi.

Rossiya-Ukraina qurolli mojarosi (2022): Ma’lumot urushi.

2022 yildagi harbiy operatsiyalar davomida har ikki tomon ham axborot urushini faol olib bordi. Soxta ma’lumotlar, fabricatsiya qilingan video va rasm materiallari tarqatildi. Jangovar bo‘linmalar ba’zan eskirgan yoki ataylab soxtalashtirilgan koordinatalar asosida harakat qilishga majbur bo‘ldi. Bu esa jangovar samaradorlikni sezilarli darajada pasaytirdi va o‘z kuchlariga nisbatan do‘stona o‘t (*friendly fire*) holatlarini keltirib chiqardi.

Falkland urushi (1982): Muloqot uzilishlari.

Britaniya va Argentina o‘rtasidagi Falkland urushida muloqot tizimlarining ishdan chiqishi va noto‘g‘ri axborot bir necha halokatli hujumlarning sababi bo‘ldi. HMS Sheffield kema raketa hujumiga duchor bo‘lishidan oldin muloqot uzilishi ogohlantirishlar o‘z vaqtida

yetib bormasligi natijasida sodir bo‘ldi. Bu voqea mudofaa tizimlarida zaxira muloqot kanallarining zarurligini yaqqol ko‘rsatdi.

Asosiy xulosa: Har uchala voqeada ham muammo texnologiyaning o‘zida emas, balki axborotni tasdiqlash va tekshirish jarayonlarining yo‘qligi yoki zaifligida edi. Protokol va madaniyat texnologiyadan ham muhimroq bo‘lishi mumkin.

Kiberhujumlar va harbiy kommunikatsiya: *zamonaviy tahdidlar tahlili.*

Kiberfazo harbiy operatsiyalarning beshinchi o‘lchamiga aylangan. Harbiy muloqot tizimlariga yo‘naltirilgan kiberhujumlar tobora murakkablashib, strategik ahamiyat kasb etmoqda.

Signal to‘sish va buzish (Jamming & Spoofing).

Elektron urush vositalari yordamida harbiy radio signallari to‘sib qo‘yiladi yoki soxta signallar kiritiladi. “*GPS spoofing*” hujumlari harbiy vositalarni noto‘g‘ri yo‘nalishga yo‘naltirishi mumkin. Suriyada va Ukrainada bu usullardan samarali foydalanilganligi qayd etilgan, bu hujumlarga ayniqsa zamonaviy GPS-ga bog‘liq qurollar tizimi zaif.

Tarmoqqa kirib olish (Network Intrusion).

Harbiy tarmoqlarga nishonga olingan APT hujumlar ma’lumotlarni o‘g‘irlash, buyruq-boshqaruv kanallarini buzish va zararli kod kiritish uchun amalga oshiriladi. 2015 yilda Germaniya Bundestag tarmog‘iga kirib olinishi va 2020 yildagi “*SolarWinds*” hujumi harbiy infratuzilmaga ham ta’sir ko‘rsatdi.

Xizmatdan mahrum qilish (DDoS).

Keng ko‘lamli “*DdoS*” hujumlari harbiy muloqot infratuzilmasini ishdan chiqirishi va tanqidiy operatsiyalar paytida aloqa yo‘qotilishiga olib kelishi mumkin. 2007 yilda Estoniya harbiy va hukumat tarmoqlariga nisbatan amalga oshirilgan hujum bu xatarni birinchi bor yaqqol namoyon etdi.

Ta’minot zanjiriga hujum (Supply Chain Attack).

Harbiy asbob-uskunalarning ishlab chiqarish jarayoniga, dasturiy ta’minot yangilanishlariga yoki uchinchi tomon provayderlari orqali kirib olish. Apparatga kiritilgan yashirin eshiklar (*hardware backdoor*) va zararli “*firmware*” o‘nlab yillar davomida faoliyat ko‘rsatishi mumkin [3].

Dezinformatsiyani aniqlash usullari: *texnologik va protsessual yondashuvlar.*

Harbiy muhitda dezinformatsiyani aniqlash hayot va o‘lim masalasiga tenglashadi. Samarali aniqlash strategiyasi texnologik va protsessual yondashuvlarni birlashtiradi:

Manbani tekshirish (OSINT).

Ochiq manba razvedkasi (OSINT) usullari yordamida axborot manbaini chuqur tekshirish. Qayerdan kelganini, kim tarqatganini, qachon paydo bo‘lganini va qanday o‘zgartirilganini kuzatish. “*Metadata*” tahlili hujjatlar va tasvirlarning kelib chiqish vaqti, joyi va qurilmasi haqida yashirin ma’lumot beradi.

AI-boshqariladigan tahlil.

Kompyuter ko‘rishi algoritmlari “*deyepfake*” tasvirlar va videolarni piksel darajasida tahlil qilish orqali aniqlay oladi. Matn tahlil tizimlari bot tomonidan yaratilgan kontent va inson tomonidan yozilgan matnni ajrata oladi. Ovoz tahlili sintetik nutqni haqiqiy ovozdan farqlaydi.

Ko‘p manbali tasdiqlash.

Har qanday kritik ma’lumot kamida uchta mustaqil manbadan tasdiqlangan bo‘lishi shart. Manbalar bir-biridan mustaqil bo‘lib, bir-birini ko‘chirib olmagan bo‘lishi kerak. Bu “*tasdiqlash uchburchagi*” tamoyili harbiy razvedkaning asosiy qoidalaridan biri.

Operatsion protokollar.

Standart operatsion protseduralar (*SOP*) axborot qabul qilinishidan harakat amalga oshirilishigacha bo‘lgan har bir qadamni tartibga soladi. “*Ikki kishi tamoyili*” - muhim qarorlar hech qachon bir kishi tomonidan yolg‘iz qabul qilinmasligi - dezinformatsiyaning ta’sirini sezilarli kamaytiradi [2].

Inson omili: *xato, soxtakorlik va ichki tahdidlar*.

Statistikaga ko‘ra, axborot xavfsizligi buzilishlarining 85% ga yaqinida inson omili asosiy rol o‘ynaydi. Eng ilg‘or texnologik himoya ham zararlangan yoki xato yo‘l tutgan xodim oldida kuchsiz bo‘ladi.

Beixtiyor xatolar (Human Error).

Harbiy xodimlar charchoq, stress, noto‘g‘ri o‘qitish yoki diqqatsizlik natijasida jiddiy xatolar qilishi mumkin. Noto‘g‘ri qabul qiluvchiga yuborilgan shifrlangan xabar, noto‘g‘ri koordinatalar kiritmoq yoki xavfsiz aloqa o‘rniga ochiq kanaldan muloqot qilish - bular beixtiyor, ammo halokatli xatolar demakdir. Harbiy operatsiyalarda faoliyat yurituvchi xodimlarning yuqori stress va charchoq darajasi bu xatarni yanada oshiradi.

Sotsial muhandislik (Social Engineering).

Raqib razvedkasi psixologik manipulyatsiya orqali harbiy xodimlardan maxfiy ma’lumot olishga harakat qiladi. “*Fishing electron*” xatlari, soxta shaxslar, tanish ovoz bilan qo‘ng‘iroqlar va “*honeypot*” usullari eng ko‘p qo‘llaniladigan sotsial muhandislik uslublaridir. Harbiy muhitda avtoritarga bo‘ysunish tendensiyasi sotsial muhandislikni yanada samaraliroq qiladi.

Ichki tahdidlar (Insider Threats).

Ataylab zararli faoliyat yurituvchi xodimlar - ular mafkuraviy sabab, moliyaviy manfaat yoki majburlash natijasida ish tutishlari mumkin. *Chelsea Manning* va *Edward Snowden* misollari ichki tahdidlarning qanchalik ulkan oqibatlarga olib kelishi mumkinligini yaqqol ko‘rsatadi. “*Principle of Least Privilege*” - har bir xodimga faqat zarur minimal ruxsatlarni berish - bu xatarni kamaytiradi [4].

Axborot ishonchliligi bo‘yicha milliy yondashuv: *O‘zbekiston mudofaa tizimi.*

O‘zbekiston mustaqillik yillarida o‘z mudofaa va harbiy muloqot tizimlarini modernizatsiya qilish yo‘lida izchil qadamlar qo‘ymoqda. Milliy xavfsizlik kontsepsiyasi va mudofaa strategiyasi axborot xavfsizligiga alohida e’tibor qaratadi:

Qonuniy-meyoriy asos.

“Axborot xavfsizligi to‘g‘risida”gi Qonun (2022); “Kiberxavfsizlik to‘g‘risida”gi Qonun; Milliy Kiberxavfsizlik Markazi (O‘zCERT); Milliy Axborot Xavfsizligi Strategiyasi; Harbiy sirni saqlash bo‘yicha maxsus nizomlar.

Texnologik salohiyat.

O‘zbekiston Qurolli Kuchlari o‘z muloqot tizimlarini modernizatsiya qilish doirasida mahalliy ishlab chiqarish va xalqaro hamkorlikni uyg‘unlashtirmoqda. “*ICS*” va “*SCADA*” tizimlarining xavfsizligini ta’minlash, ma’lumotlarni shifrlash va xavfsiz harbiy tarmoqlarni joriy etish asosiy yo‘nalishlar sifatida belgilangan.

Xalqaro hamkorlik.

MDH davlatlari bilan mudofaa hamkorligi, “*SCO*” doirasidagi xavfsizlik aloqalari va bir qator g‘arb davlatlari bilan texnik hamkorlik O‘zbekiston harbiy muloqot tizimlarini rivojlantirishning muhim omillari hisoblanadi. AQSH, Germaniya va Turkiya bilan harbiy-texnik hamkorlik shartnomalar asosida amalga oshirilmoqda.

O‘zbekiston uchun asosiy vazifa - import qilinadigan harbiy texnologiyalarga haddan tashqari bog‘liqlikni kamaytirish va strategik muloqot infratuzilmasini o‘z kadrlar va texnologiyalar asosida qurishdir. Bu milliy xavfsizlik suvereniteti uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Boshqaruv va nazorat: *zanjir bo‘ylab axborot sifatini ta’minlash*.

Harbiy muloqotda axborot sifatini ta’minlash - bu faqat texnologik muammo emas, balki tashkiliy va boshqaruv masalasidir. Ma’lumot generatsiyalanganidan qaror qabul qiluvchiga yetib borgunga qadar har bir bosqichda sifat nazorati amalga oshirilishi lozim:



Ma’lumot to‘plash | Tahlil va tasdiqlash | Shifrlash va uzatish | Qabul va dekodlash | Qaror qabul qilish

Preschool education (kindergartens): Expenditures are planned to double in 5 years (from 13 to 26).

Higher and vocational education: Although it receives the least funding compared to other sectors, it is also projected to grow from 10 trillion to 19 trillion. A slight decrease in higher education spending is projected for the transition from 2025 (15 trillion) to 2026 (14 trillion), but we can see that growth will resume later on.

5.2 Energy and Social Subsidies

The government is strategically reducing energy subsidies to optimize the budget. Natural gas subsidies are projected to fall as the market transitions toward cost-recovery pricing.

[Fiscal Strategy 2026-2028,2024/63]




Diagram 2 shows the dynamics of subsidies allocated to cover the costs of energy resources and public transportation for the population from 2023 to 2028 (projected figures for 2026–2028).

We can analyze this data along several key dimensions:

1. The sharp reduction in natural gas subsidies (The main trend) means,

The most notable aspect of the chart is the reduction of natural gas subsidies (blue bars) from 18 trillion soums in 2023 to 5 trillion soums by 2028 (a decrease of nearly 72%). This indicates the government's strategy to liberalize the energy market and gradually transition to market prices. The nearly halving of expenditures in 2024 (from 18 to 9.5) signals the start of tariff reforms. In the following years, we can see this figure decreasing to 2.5-0.5 trillion soms per year.

2. Growth of public transport subsidies

In contrast to natural gas subsidies, subsidies for public transport (yellow column) are steadily increasing: they are expected to rise from 1.1 trillion soums in 2023 to 4 trillion soums in 2027. This indicates that the government is shifting its social focus. Direct subsidies for energy resources are being reduced, with greater emphasis placed on ensuring public mobility and improving the quality of public transportation.

3. Heat Supply


Heat Supply (gray): Expenditures, which were 1.7 trillion soums in 2023, are expected to rise to 4.8 trillion soums in 2025, and then stabilize around 3.3 trillion soums. This may be related to the costs of modernizing the thermal systems.

4. Electricity (orange)

Electricity (orange): The amount of subsidies is very low (a maximum of 0.5 trillion soums) and is projected to be zero starting in 2026. This means a full transition to a self-sustaining system in the electricity sector.

The indicators suggest that the total subsidies of 20.8 trillion soums in 2023 will decrease to 11.9 trillion soums by 2028. This represents a savings of nearly 43% for the state budget. And I might add that the reduction in natural gas subsidies will compel consumers to conserve energy and use energy-efficient technologies.

Diagram 3: Year-over-year decline in government subsidies.




5.3 Economic and Infrastructure Expenditures

Major investments in water management (12.4 trillion UZS by 2028) and the "Initiative Budget" reflect a decentralized spending model.

[Fiscal Strategy 2026-2028,2024/63]

DIAGRAM 3: Large expenditures in the economy sector, trln soums



As the diagram shows, expenses in all major areas are increasing year over year. The total budget is expected to be significantly higher by 2028 than it was in 2023.
We will conduct a detailed analysis by sector.

1. Water Management Costs (Largest Share):

This sector remains the most heavily funded area throughout all years.
Expenditures are expected to increase from 8.7 trillion won in 2023 to 12.4 trillion won in 2028 (an approximately 42% increase). This indicates the growing strategic importance of water resource management and irrigation issues in the country.

2. Beautification and Greening:

Expenditures are growing steadily: from 5 trillion sou in 2023, they are projected to reach 7 trillion sou in 2028. This indicates that the focus on improving urban infrastructure and environmental conditions will be maintained.

3. Participatory Budgeting (Open Budget):

This area is projected to see a sharp increase in 2025 (6.7 trillion). By 2028, this figure will reach 7 trillion soums. This indicates that the scope of funding for projects proposed by the public is expanding.

4. Regional and Sectoral Development Based on Presidential Decrees:

Although a decrease (2.3 trillion) was observed in this area in 2024, a growth trend began in 2025. Expenditures are expected to stabilize at the 5 trillion sou level in 2027-2028.

5. "From Poverty to Prosperity" National Program:

The most significant aspect of the chart is the program's implementation starting in 2025. At the start of the program (2025), 4.8 trillion soums will be allocated, and in subsequent years (2026-2028), 3.6 trillion soums per year are planned to be allocated.

Based on the above indicators, we can conclude that water security is one of the top priorities. The size of the funds allocated to the water sector indicates that reforms in this area are the backbone of the economy. The next major area of spending is social orientation: funds allocated to participatory budgeting and poverty reduction programs constitute a significant portion of total expenditures.
It is particularly important to emphasize the stability of the forecast: the indicators for 2026-2028 show a relatively stable growth rate, which indicates the presence of long-term economic planning.

5. INSTITUTIONAL EVOLUTION AND CURRENT STATUS

Uzbekistan has effectively built a strong institutional structure for internal audit. So far, over ten laws have been passed, establishing the national norms, responsibilities, and certification procedures for auditors. The certification of about 800 experts who now possess the national internal audit certificate is a major accomplishment [4].
A risk-based evaluation of internal audit services was carried out in 15 chosen ministries and organizations in 2024 [3]. To ensure compliance with industry regulations, this assessment gave methodological and practical assistance. The Ministry of Economy and Finance (2024) reported the results to the Cabinet of Ministers, noting the necessity for a

change from "compliance checking" to "risk management." The "Public Internal Audit" site [3], which makes auditor registries and international cooperation data available to the public, was established to encourage transparency.

6. STRATEGIC ROADMAP FOR 2026–2028

The following stage of reforms centers on four fundamental systemic pillars:

1. Legislative Basis: Creating the "Law on State Internal Control and Internal Audit" in order to integrate and codify all current regulations.
2. Digitization Concept: Putting the "Concept for Digitizing Internal Audit Service Activities" into practice, which includes automated risk scoring and AI helpers for auditors.
3. Outsourcing Methods: Creating a framework for audit outsourcing in smaller state agencies where internal units are not viable.
4. International Harmonization: Modifying the certification system to comply with the IIA's Global Internal Audit Standards.

7. DISCUSSION: THE IMPACT OF AI AND FINTECH

By integrating AI into the framework created by the 2026–2028 Fiscal Strategy, the audit will be converted from a "post-facto" inspection to a "real-time" prevention system. The state can identify potentially fraudulent transactions in the 171.4 trillion UZS social payment budget before they happen by using "Fraud Detection" algorithms [1]. Additionally, using Cloud Data Warehousing (based on UK NAO experience) [12] will cut audit time by 60% [7], enabling auditors to concentrate on strategic, high-level risks rather than mundane data input.

8. CONCLUSION

Based on the information and figures provided above, I must conclude that Uzbekistan is developing year after year, dedicating special attention and substantial funds to each sector. This indicates that these allocated funds must certainly be placed under oversight. The Fiscal Strategy for 2026–2028 strongly supports Uzbekistan's move toward a "Digital Audit." The aggressive adoption of AI and FinTech, along with the legal codification of internal audit, are necessary for the shift from a B+ PEFA rating to becoming an international leader in fiscal transparency [2]. By 2028, these reforms will not only protect 532.9 trillion UZS of public funds [1], but they will also guarantee that all expenditures support the nation's socio-economic well-being.

REFERENCES (Harvard Style)

1. **Ministry of Economy and Finance of the Republic of Uzbekistan.** (2024). *Fiscal Strategy for 2025–2027 and Budget Outlook for 2028*. Tashkent: MEF. (Byudjet xarajatlari prognozi 484.7 trln so'm ko'rsatilgan rasmiy hujjat).
2. **World Bank & PEFA Secretariat.** (2022/2023). *Public Expenditure and Financial Accountability (PEFA) Assessment Report for Uzbekistan*. (O'zbekistonning "B+" reytingi qayd etilgan xalqaro hisobot).

3. **Department of Internal Audit, Ministry of Economy and Finance.** (2024). *Report on the Risk-Based Assessment of Internal Audit Services in 15 Line Ministries*. Official Publication. (Vazirliklar tahlili va metodologik qo'llab-quvvatlash hisoboti).
4. **Legislative Chamber of the Oliy Majlis.** (2024-2025). *Draft Concept for the Law on State Internal Control and Internal Audit*. (Yangi qonun loyihasi va tizimlashtirish zarurati haqidagi strategik reja).
5. **Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan.** (2024, March). *Concept for Digitizing Internal Audit Service Activities in Public Sector Organizations*. Decree No. 128/416. (Raqamlashtirish va AI yordamchilarini joriy etish bo'yicha normativ asos).
6. **Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan** (2024) *Development Strategy for 2025–2030: Enhancing Transparency and Accountability in Public Finance Management*. Tashkent: Government Publishing House.
7. **International Institute of Internal Auditors (IIA) & IMF Study.** (2023). *Impact of Digital Transformation on Public Expenditure Efficiency*. (Raqamli integratsiya hisobiga 25-30% samaradorlik oshishi bo'yicha xalqaro qiyosiy tahlil ma'lumotlari).
8. **Department of Internal Audit** (2024) *Report on the Risk-Based Performance Assessment of Internal Audit Services in 15 Line Ministries and Agencies*. Tashkent: Ministry of Economy and Finance.
9. **Appelbaum, D., Kogan, A. and Vasarhelyi, M. A.** (2018) 'Analytical procedures in external auditing: A comprehensive literature review', *Journal of Accounting Literature*, 40(1), pp. 56-81.
10. **Heald, D.** (2023) 'Digitalization and Public Sector Transparency: Reducing Information Asymmetry', *International Review of Administrative Sciences*, 89(2), pp. 112-129.
11. **Issa, H. and Kogan, A.** (2021) 'Artificial Intelligence in Audit: Current Trends and the Implementation of Fraud Detection Models', *Journal of Emerging Technologies in Accounting*, 18(2), pp. 45-63.
12. **UK NAO (Buyuk Britaniya Milliy Audit Ofisi) tajribasi va Cloud Data uchun:** (National Audit Office, 2023).

ЎЗБЕКИСТОНДА САЙЛОВ ТИЗИМИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШНИНГ КОНЦЕПТУАЛ АСОСЛАРИ: МИЛЛИЙ МОДЕЛ ВА ХАЛҚАРО СТАНДАРТЛАР УЙҒУНЛИГИ

Муаллиф: **Абдусатторов Фахриддин Абдукаххорович**
Сирдарё вилояти Ҳудудий сайлов комиссияси раиси ўринбосари
99-474-07-57

Аннотация

Ўзбекистонда замонавий сайлов тизимини яратиш, сайлов қонунчилигини такомиллаштириш, сайловларни умумэътироф этилган халқаро тамойилларга мослаштириш, имплементация қилиш борасида мунтазам изчил изланишлар олиб борилмоқда. Бунда сайлов жараёнларини тартибга солиш, мавжуд муаммоларни бартараф этиш, фуқароларнинг ўз хоҳиш-иродаларини эркин билдиришларини кафолатлаш, ҳар бир фуқаронинг давлат ҳокимияти вакиллик органларига эркин сайлаш ва сайланиш ҳуқуқини тўлиқ таъминлайдиган демократик қонунчиликни ривожлантириш ҳамда мамлакатимизда сайловларга тайёргарлик ва ўтказиш жараёнлари миллий модулини халқаро андозалар асосида хорижий энг илғор сайлов қонунчилиги даражасига етказиш ҳамда амалга ошириш асосий талаб бўлиб, шу мақсадда қатор халқаро ҳужжатларда белгиланган принципларни миллий қонунчилигимизда жорий этиш асосий таомил сифатида амалга оширилмоқда.

Калит сўзлар: сайлов тизими, қонунийлик, имплементация, демократия, миллий модел, халқаро стандартлар.

Шуни алоҳида таъкидлаш жоизки, Ўзбекистон Республикасида мустақиллик йилларидан буён сайлов тизими мунтазам равишда босқичма-босқич такомиллаштирилиб келинмоқда. Жумладан, 2019 йил 25 июнда “Ўзбекистон Республикаси Сайлов кодекси”нинг қабул қилиниши ҳамда халқаро сайлов стандартлари асосида янада такомиллаштириб борилиши, янги таҳрирдаги Конституция ва унга асосан мазкур кодексга 2023 йил 18 декабрда киритилган қатор ўзгаришлар миллий сайлов моделининг янги сифат босқичига кўтарилишига муҳим омил бўлди.

Маълумки, сайлов институти демократик давлатчиликнинг энг асосий устунларидан биридир. У орқали халқ суверенитети амалга оширилади ва

фуқароларнинг сиёсий ҳуқуқлари рўёбга чиқарилади, давлат ҳокимияти органларининг легитимлиги таъминланади. Шу боис, сайлов тизимининг ҳуқуқий жиҳатдан мукаммаллиги, ташкилий жиҳатдан шаффофлиги ва институционал жиҳатдан барқарорлиги давлат бошқаруви самарадорлигига бевосита боғлиқдир.

Юқоридагилардан келиб чиқиб, шуни таъкидлаш жоизки, бугунги кунда миллий моделни халқаро сайлов стандартлари билан уйғунлаштириш масаласи ниҳоятда долзарб, муҳим ва бу алоҳида илмий-амалий аҳамият касб этади. Ушбу масаланинг аҳамияти ва долзарблигининг яна бир ёркин мисоли Халқаро сайловларни кузатиш миссиясининг Ўзбекистондаги Парламент сайловлари 2024 йил 27 октябрь "Дастлабки натижалар ва хулосалар тўғрисидаги баёнот"и ҳамда Ўзбекистон Республикаси Парламент сайловлари 2024 йил 27 октябрь "ДИИҲБ Сайловни кузатиш миссиясининг якуний ҳисоботи"да: (Варшава 2024-йил 26-февраль) "Сайлов тизими босқичма-босқич ривожланиб, сайловларга техник жиҳатдан пухта тайёргарлик кўрилган бўлса-да, сиёсий партияларни рўйхатга олиш, сайланиш ҳуқуқи, сайловолди кампаниясини молиялаштиришнинг шаффофлиги, сайловнинг фуқаролар томонидан кузатилиши ва сайлов участкаси натижаларини эълон қилиш каби соҳаларда демократик сайловларнинг халқаро стандартларига жавоб бериш билан боғлиқ жиддий муаммолар сақланиб қолмоқда" – деб фикр билдирилганлиги мамлакатимизда сайлов тизимини такомиллаштиришнинг концептуал асослари: миллий модул ва халқаро стандартларнинг уйғунлаштирилиши қанчалик муҳим эканлигини кўрсатмоқда.

Давлат ҳокимияти органларини шакллантиришга қаратилган ҳуқуқий нормалар, институтлар ва амалий жараёнлар мажмуаси - Ўзбекистон сайлов тизимининг назарий-ҳуқуқий асослари ҳисобланади. Бу эса демократик жамиятда халқ ҳокимиятчилигининг институционал ифодаси сифатида намоён бўлади. Халқаро ҳуқуқда муҳим бўлган сайлов ҳуқуқининг умумэътироф этилган принциплари: умумийлик, тенглик, тўғридан-тўғрилик, яширин овоз бериш ва ихтиёрий иштирок миллий қонунчиликда ҳам устувор аҳамиятга эга.

Сайлов тизими ҳақида сўз юритилганда унинг ҳуқуқий, сиёсий ва ижтимоий функциялари ҳақида фикр юритиш алоҳида аҳамият касб этади. Сайлов жараёнларида ҳуқуқий жиҳат қонунийликни таъминлашга хизмат қилади, сиёсий функция эса халқ иродасини шакллантириш ва ифода этишни таъминлайди. Ижтимоий функция фуқароларнинг давлат бошқарувидаги иштирокини кучайтиришда муҳимдир.

Ўзбекистонда сайлов тизимининг миллий модели Конституция ва Сайлов кодекси асосида шакллантирилган бўлиб, у миллий давлатчиликнинг ўзига хос анъаналари ҳамда замонавий халқаро демократик талабларни уйғунлаштирган ҳолда мунтазам такомиллаштирилмоқда. Миллий моделнинг асосий хусусиятлари: сайлов органларининг мустақиллиги, ошкоралик ва очиқлик, фуқароларнинг сайлов ҳуқуқлари кафолатланганлиги, жамоатчилик назорати механизмлари мавжудлиги, сайлов жараёнларига рақамли технологияларнинг жорий этилаётганлигида намоён бўлмоқда.

Шу ўринда таъкидлаш жоизки Марказий сайлов комиссиясининг бугунги кундаги конституцион мақоми миллий моделнинг ҳуқуқий барқарорлигини ва сайлов жараёнларида сиёсий бетарафлик ва институционал мустақилликни тўлиқ таъминлашда муҳим омил бўлмоқда.

Халқаро сайлов стандартлари ҳақида тўхталар эканмиз, мазкур стандартлар “Инсон ҳуқуқлари умумжаҳон декларацияси”, “Фуқаролик ва сиёсий ҳуқуқлар тўғрисида”ги халқаро пакт ҳамда ЕХҲТ стандартларида белгиланган инсон ҳуқуқлари соҳасидаги умумэътироф этилган нормаларга асосланган бўлиб: эркин, адолатли сайловларни ҳамда сайлов жараёнларининг шаффофлигини таъминлаш, сиёсий плюрализмни ривожлантириш каби қатор муҳим талабларни ифода этади.

Халқаро сайлов стандартларини имплементация қилиш бўйича Ўзбекистон тажрибаси шуни кўрсатадики бу жараён миллий ҳуқуқий тизим ва ижтимоий-сиёсий шарт-шароитларни ҳисобга олган, миллий қадриятлар ва давлат суверенитети тамойилларини сақлаган ҳолда изчил жорий этилмоқда. Уйғунликнинг энг асосий йўналишлари: қонунчиликни халқаро нормаларга мувофиқлаштириш, институционал мустақилликни кучайтириш, рақамли сайлов инфратузилмасини ривожлантириш, сайловчиларнинг ҳуқуқий маданиятини оширишдан иборат бўлмоқда.

Бу эса энг аввало сайлов қонунчилигининг такомиллашишига, демократик институтларнинг мустаҳкамланишига, фуқароларнинг сиёсий фаоллигини ошишига ва давлат бошқарувининг легитимлигини таъминлашга хизмат қилмоқда. Шунингдек, миллий сайлов моделининг изчил ривожланиши ва халқаро стандартларнинг босқичма-босқич татбиқ этилиши мамлакатда барқарор демократик тараққиётни таъминловчи муҳим омил ҳисобланади.

Шу билан биргаликда бугунги кунда Ўзбекистон сайлов тизимини янада ривожлантириш учун: сайлов қонунчилигини янада такомиллаштириш ва умумэътироф этилган халқаро тамойилларга мослаштириш, рақамли технологияларни янада кенг жорий этиш, ҳуқуқий таълим ва тарғибот ишларини кучайтириш, халқаро ҳамкорликни чуқурлаштириш, жамоатчилик иштирокини кенгайтириш каби йўналишлар устувор аҳамият касб этади.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ

1. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси.
2. Ўзбекистон Республикасининг Сайлов кодекси.
3. Инсон ҳуқуқлари умумжаҳон декларацияси.
4. Фуқаролик ва сиёсий ҳуқуқлар тўғрисидаги халқаро пакт.
5. Халқаро сайловларни кузатиш миссиясининг Ўзбекистондаги Парламент сайловлари 2024 йил 27 октябрь “Дастлабки натижалар ва хулосалар тўғрисидаги баёнот” Ўзбекистон Республикаси, Ле Гранде Плаза Ҳотел меҳмонхонаси, Ўзбекистон овози кўчаси, 2-уй, 4-қават.
6.Ўзбекистон Республикаси Парламент сайловлари 2024 йил 27 октябрь “ДИИҲБ Сайловни кузатиш миссиясининг якуний ҳисоботи” Варшава 2024-йил 26-февраль.
7. ЕХҲТ/ДИИҲБ сайлов бўйича тавсиялари.
8. Ўзбекистон Республикаси Марказий сайлов комиссияси материаллари.
9. Илмий мақолалар ва ҳуқуқий тадқиқотлар тўплами.

HARBIY KONTENTLARDA AXBOROT XAVFSIZLIGI MASALASI

Sulaymonova Umida Pulat qizi
Zulfiya nomidagi Davlat mukofoti sohibasi
Andijon davlat tibbiyot instituti Davolash fakulteti tyutori

Annotatsiya. Maqolada harbiy kontentlarda axborot xavfsizligini ta’minlash muammolari tahlil qilingan. o‘zbekiston qonunchilik bazasi, xorijiy tajribalar va zamonaviy tahdidlar kontekstida tahliliy yondashuv asosida mavjud tizimning zaif jihatlari aniqlangan. kontent-tahlil, solishtirma tahlil va ekspert so‘rovnomalari asosida axborot sizintilari, normativ bo‘shliqlar va regulyatsiya mexanizmlari ko‘rib chiqilgan. muallif tomonidan o‘zbekiston sharoitida axborot xavfsizligini kuchaytirish bo‘yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.
Kalit so‘zlar: Axborot xavfsizligi, harbiy kontent, davlat siri, senzura, regulyatsiya, jurnalistika, normativ baza, raqamli tahdid.

KIRISH

Bugungi globallashuv va raqamli transformatsiya davrida axborot xavfsizligi masalasi harbiy sohaga bevosita taalluqli eng muhim strategik muammolardan biriga aylangan. Harbiy kontentlar – bu davlat mudofaa siyosati, harbiy operatsiyalar, maxfiy missiyalar, texnologik yangiliklar hamda milliy xavfsizlikka oid ma’lumotlarni o‘z ichiga olgan maxsus axborot maydonidir. Mazkur kontentlar bilan ishlashda xavfsizlik choralarining yetarli darajada bo‘lmasligi natijasida ichki va tashqi tahdidlar keskin ortmoqda, xususan, kiberhujumlar, axborotni noqonuniy tarqatish, manipulyativ ta’sir va feyk ma’lumotlar tarqalishi hollari ko‘paymoqda.

O‘zbekistonda harbiy sohaga oid axborotlar muhofazasi "Davlat sirlari to‘g‘risida"gi Qonun, “Axborot xavfsizligi konsepsiyasi” kabi hujjatlar orqali huquqiy jihatdan tartibga solingan bo‘lsa-da, zamonaviy raqamli tahdidlar fonida bu tizim doimiy ravishda yangilanib borishni talab qilmoqda. Harbiy kontentlarning davlat axborot resurslarida joylashtirilishi, OAVda yoritilishi yoki ijtimoiy tarmoqlarda muhokama qilinishi bir qarashda fuqarolik jamiyatining ochiqligiga xizmat qilgandek ko‘rinsa-da, aynan shunday ochiqlik nazorat qilinmasa, milliy xavfsizlikka putur yetkazishi mumkin. Ayniqsa, noan’anaviy urushlar (axborot urushi, kiberurush) fonida har qanday harbiy axborot – potentsial hujum vositasi yoki nishoni bo‘lishi mumkin.

Shu boisdan, harbiy kontentlarda axborot xavfsizligini ta’minlash masalasi nafaqat texnik, balki strategik va ijtimoiy siyosiy yondashuvni ham talab etadi. Harbiy jurnalistikaning axborot siyosatidagi o‘rni, sensor siyosatlar, tahririy javobgarlik, shuningdek, razvedka va kontrrazvedka tuzilmalari faoliyati bilan uzviy bog‘liq holda ko‘rib chiqilishi zarur. Harbiy kontentlar jamiyatga qanday ta’sir ko‘rsatishini tahlil qilish, shu asosda ishonchli, lekin xavfsiz axborot oqimini ta’minlash bu boradagi dolzarb ilmiy masalalardan hisoblanadi.

ADABIYOTLAR SHARHI

Harbiy kontentlarda axborot xavfsizligi masalasini o‘rganishda ilgari o‘tkazilgan ilmiy tadqiqotlar tahlili ushbu yo‘nalishdagi yondashuvlarning ko‘lamini aniqlash imkonini beradi. Jumladan, Z.X.Xasanova o‘zining "Raqamli transformatsiya sharoitida axborot xavfsizligini ta’minlashning nazariy va amaliy asoslari" nomli doktorlik dissertatsiyasida zamonaviy axborot makonida harbiy kontentlarga tahdid soluvchi asosiy xavf manbalarini

tahlil qilgan. U harbiy axborotning sızib chiqishi natijasida yuzaga keluvchi milliy xavfsizlikka tahdid holatlarini sistematik tahlil asosida ochib bergan.

J.B.Tursunov tomonidan tayyorlangan “O‘zbekiston axborot siyosatida axborot xavfsizligi masalalari” mavzusidagi ilmiy maqolada harbiy kontentlarni yuritishda OAV faoliyatining chegaralari, axborot sirlarini muhofaza qilishda mavjud huquqiy bo‘shliqlar, shuningdek, senzura va tahririy siyosat muammolari ochib berilgan. U ayniqsa, ijtimoiy tarmoqlardagi harbiy ma’lumotlarning tarqalish tezligi va bu boradagi regulyatsiya mexanizmlarining sustligini tanqidiy baholagan.

Xalqaro tajriba jihatidan esa, G‘arb davlatlarining axborot xavfsizligi bo‘yicha amaliyotlari, xususan, AQShning “Department of Defense Information Assurance Certification and Accreditation Process” (DIACAP) tizimi tahlil etilgan ilmiy manbalarda bu model harbiy kontentni yuritishda qat’iy standartlar va xavfsizlik protokollarini belgilab bergani ko‘rsatiladi. Bunday tizimlar O‘zbekiston sharoitida ham tatbiq qilinishi mumkinligi dissertatsiyalarda taklif sifatida ilgari surilgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Axborot xavfsizligiga doir muammolarni harbiy kontent kontekstida tahlil qilish uchun kompleks yondashuv qo‘llanildi. Baza — O‘zbekiston Respublikasining "Davlat siri to‘g‘risida"gi Qonuni, "Axborot xavfsizligi konsepsiyasi", shuningdek, tegishli Prezident farmonlari va Hukumat qarorlarining mazmuni sistemali ravishda o‘rganildi. Bu jarayonda normativ hujjatlar huquqiy-himoya mezonlari nuqtayi nazaridan saralandi va harbiy axborot tarqatilishi bilan bog‘liq real regulyativ imkoniyatlar baholandi.

Ikkinchi bosqichda kontent-tahlil usulidan foydalanilib, so‘nggi uch yil ichida internet va OAV orqali tarqalgan harbiy xarakterdagi ochiq axborot materiallari tematik, semantik va strukturaviy mezonlar asosida tasniflandi. Maqsad — axborot tarqatilishidagi xavf zonalarini aniqlash va ularning xavfsizlik siyosati bilan uzviy bog‘liqligini asoslashdir. Kontentlar ijtimoiy tarmoqlar (Telegram, X) va rasmiy davlat axborot resurslari asosida tanlab olindi.

Uchinchi metod sifatida solishtirma tahlil usuli joriy etilib, AQSh, Rossiya Federatsiyasi, Isroil va Xitoy kabi davlatlarning harbiy axborot siyosati va xavfsizlik protokollari O‘zbekiston amaliyoti bilan qiyoslandi. Bu asosda xavfsizlikni boshqarishdagi institutsional va texnologik tafovutlar aniqlab borildi.

Tizimli yondashuv asosida harbiy kontentlar bilan ishlovchi jurnalistlar, OAV tahririyati xodimlari hamda axborot xavfsizligi mutaxassislari o‘rtasida ixtisoslashtirilgan so‘rovnoma o‘tkazildi. So‘rovnoma orqali harbiy axborotlarni e’lon qilishdagi professional yondashuvlar, axloqiy mezonlar va tahririyatsiz filtrlash darajalari aniqlandi. Natijalar statistik jihatdan kodlashtirilib, ularning xavfsizlik siyosatiga ta’siri tahlil qilindi. Tanlangan metodlar yordamida harbiy kontent bilan ishlashda mavjud axborot xavfsizligi muammolarining xarakteri, omillari va ularni bartaraf etish yo‘nalishlari nazariy va amaliy asoslarda aniqlab berildi.

NATIJALAR VA MUHOKAMALAR

O‘tkazilgan normativ-huquqiy tahlil natijalariga ko‘ra, O‘zbekiston Respublikasining axborot xavfsizligiga oid qonunchilik tizimi umumiy axborot maydoni uchun yetarli asoslarni belgilagan bo‘lsa-da, harbiy kontentlarga oid maxsus regulyatsiyalar aniq va tizimli shakllantirilmagan. “Davlat siri to‘g‘risida”gi Qonun, 2004-yilda tasdiqlangan maxfiylik toifalari ro‘yxati, shuningdek, “Axborotlashtirish to‘g‘risida”gi Qonun kabi

hujjatlarda harbiy kontent bilan ishlashdagi xavfsizlik standartlari umumiy formulalar orqali ifodalangan, bu esa real axborot oqimi va zamonaviy raqamli muhit talablariga mos kelmasligini ko‘rsatadi.

Kontent-tahlil usuli asosida tahlil qilingan 80 ta harbiy axborot namunalaridan 27 tasi (33.7%) ijtimoiy tarmoqlarda davlat sirlariga yaqin bo‘lgan, senzurasiz va tekshirilmagan shaklda e’lon qilingan. Ayniqsa, Qoraqalpog‘iston va Surxondaryo viloyatlaridagi harbiy harakatlar haqida tarqatilgan ayrim tasvirlar xorijiy kanallar tomonidan qayta ishlanib, geosiyosiy manipulyatsiyalarda foydalanilgan. Bu holat xavfsizlikka xavf tug‘diruvchi axborot sızıntilarining internet muhitida nazoratsiz tarqalishini ko‘rsatdi.

Solishtirma tahlil natijalariga ko‘ra, AQSh Mudofaa vazirligi (DoD) tomonidan ishlab chiqilgan DIACAP tizimi, Isroilning harbiy axborot senzura markazi, Rossiyaning FSB nazorat tizimi O‘zbekistonga nisbatan ancha mukammal va qat’iy standartlarga ega ekani aniqlangan. Jumladan, AQShda harbiy kontentni e’lon qilish uchun besh bosqichli verifikatsiya va ruxsatlash protokoli joriy etilgan, bunda jurnalist va davlat organlari o‘rtasida bevosita axborot muvofiqlashtirish mexanizmi mavjud. O‘zbekistonda esa bu jarayon rasmiy axborot agentliklari bilan cheklangan bo‘lib, nodavlat yoki mustaqil jurnalistlar uchun aniq yo‘riqnoma ishlab chiqilmagan.

XULOSA VA TAVSIYALAR

Harbiy kontentlar bilan ishlashda axborot xavfsizligini ta’minlash davlat axborot siyosatining muhim tarkibiy qismidir. O‘zbekistonda mavjud qonunchilik umumiy tamoyillarni belgilasa-da, harbiy axborotning ochiqligi va himoyasi masalasida alohida normativ tizimga ehtiyoj mavjud. Tahlillar xorijiy tajribalar asosida tizimli va qat’iy yondashuvlarni joriy etish zarurligini ko‘rsatadi.

Quyidagi takliflar ilgari suriladi:

1. Harbiy kontent bilan ishlovchi jurnalistlar uchun alohida axborot xavfsizligi reglamenti ishlab chiqilishi lozim.
2. Raqamli tahdidlarga mos huquqiy va texnik vositalar modernizatsiya qilinishi zarur.
3. Axborotni rasmiy tasdiqlovchi institutsional tizimni kuchaytirish lozim.

ADABIYOTLAR

1. З.Х.Ҳасанова Информационная безопасность в условиях цифровизации. – Ташкент: Fan, 2021. – 174 с.
2. Ж.Б.Турсунов Медиабезопасность и национальные интересы. – Т.: Yangi asr avlodi, 2020. – 208 с.
3. Ш.Р.Касымов Информационная политика и безопасность: правовые аспекты. // Журнал «Социальные исследования». – 2022. – №4. – С. 58–64.
4. Z.X.Xasanova Raqamli transformatsiya sharoitida axborot xavfsizligini ta’minlashning nazariy va amaliy asoslari: DSc dissertatsiyasi. – Toshkent: TATU, 2022. – 215 b.

1. J.B.Tursunov O‘zbekiston axborot siyosatida axborot xavfsizligi muammolari // Ilmiy axborotlar. – 2021. – №2. – B. 45–50.
2. A.A.Karimov Harbiy jurnalistikada axborot manbalarining ishonchliligi va ularni qonuniy himoyalash usullari: Magistrlik dissertatsiyasi. – T.: O‘zDJTU, 2023. – 98 b.
3. U.S. Department of Defense. Department of Defense Information Assurance Certification and Accreditation Process (DIACAP). – Washington, D.C.: DoD Publications, 2020. – 132 p.

«RESEARCH AND PUBLICATIONS»
ILMIY NASHRLAR MARKAZI

AVTOMOBILLAR HARAKAT SHAROITIGA HAVO-IQLIM OMILLARINING TA'SIRI (QAMCHIQ DOVONI MISOLIDA)

Xushboqov Sardor
Toshkent davlat transport universiteti

Ilmiy rahbar: O'roqov Asliddin

ANNOTATSIYA

Mazkur tadqiqot O'zbekiston Respublikasi A373 yolining Qamchiq davoni kesimida transportlar harakat sharoitiga havo-iqlim omillarining ta'sirini o'rganishga bag'ishlangan.Tadqiqotda 2024-2025 yillar davomida Qamchiq davonining 130-140 km lar oralig'ida turli ob-havo sharoitlarida tezlik o'zgarishini aniqlash uchun tadqiqotlar olib borilgan,o'rttacha va chastost tezliklar aniqlanib natijalar tahlil qilingan va grafiklar shaklida tuzilgan.

Natijalar shuni ko'rsatdiki,yomg'ir**12,5%**,tuman **35%,** kuchli qor**39%**,gacha tezlik korsatgichini pasayishiga sabab bo'larkan.

Kalit so'zlar: Qamchiq dovoni,iqlim omillari,tezlik,harakat xavfsizligi, muzlama, tuman,qor,yomg'ir.

1. KIRISH

Qamchiq davonida 2000 yillarda A-373 "M 39-Guliston-Buka-Angren-Qo'qon va Andijon orqali-O'sh" avtomobil yo'lining "Qamchiq" dovonidan o'tgan tog'li uchastkalarida (94-195km) yiliga 16.2 mln tonna miqdorida yuk tashish amalga oshirilgan. 2009 yil boshida yo'lning ushbu uchastkalarida transport vositalari harakat jadalligi kuniga 10415 avto/sutkani, yil o'rtalarida esa kuniga 15851 avto/sutkani tashkil etgan, oktyabr oyida transport vositalari harakat jadalligi kuniga 18250 avto/sutkani tashkil etgan.Hozirgi kunda A-373 "M 39-Guliston-Buka-Angren-Qo'qon va Andijon orqali-O'sh" avtomobil yo'lining "Qamchiq" dovonidan o'tgan tog'li uchastkalarida harakat jadalliklari yillar davomida o'sib borish natijasida hozirgi kunga kelib harakat jadalligi 35000-40000(avto/sutkani)tashkil qilmoqda.Buning natijasida davondan o'tayotgan transport vositalarining harrakat sharoitiga ta'sir etuvchi turli omillar,yani ob-havo,yolning eksplatatsion ko'rsatgichlari kabi ta'sir etuvchi omillarni urganish muhum masala bolib qolmoqda.Ushbu maqolada ob-havo omillari natijasida harakat tezligining uzgarishi urganildi.

2. ADABIYOTLAR SHARHI

Tadqiqotlarda qayd etilishicha, noqulay ob-havo sharoitlari (yomg'ir, qor, tuman) haydovchilarning psixologik,fiziologik holatiga va avtomobilning yo'l bilan tishlashish xususiyatlariga bevosita ta'sir ko'rsatib, harakat xavfsizligi va samaradorligini pasaytiradi. Bu holat ayniqsa o'tkazish qobiliyati chegarasiga yaqin ishlayotgan tartibga solinadigan chorrahalarda transport navbatlarining keskin ortishiga olib keladi.Qishki sharoitda o'rtacha tezlik boshqa fasllarga nisbatan taxminan 15% ga pasayishi kuzatilgan.Qamchiq dovoni sharoitida ob-havo o'zgaruvchanligi yuqori bo'lgani sababli, yo'lning o'tkazish qobiliyatini iqlimiy koeffitsientlar bilan tuzatish tavsiya etiladi. Bu esa harakatni boshqarish tizimlarini (ITS) ob-havoga mos ravishda adaptatsiya qilish imkonini beradi.[1]

Ob-havo sharoiti yo‘lning samarali kengligi, ko‘rinish masofasi va shinalarning qoplama bilan tishlashish koeffitsienti kamayishiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi.Tadqiqotlarga ko‘ra, qoplama holatiga qarab tishlashish koeffitsienti quyidagicha o‘zgaradi:

Quruq va toza holatda 0,45 dan yuqori;

Nam holatda: 0,35 - 0,45 oralig’ida;

Qor yoki suv qatlami bo‘lganda: 0,2 - 0,35;

Muzlamada: 0,1 gacha pasayadi.

Harakat tezligi ortishi bilan tishlashish koeffitsienti quruq yo‘lda sekin, ho‘l qoplamada esa tez sur’atlarda kamayadi. Qishki sirpanchiq yo‘llarda esa bu jarayon o‘ziga xos tarzda kechadi.Qish mavsumida loy, qor yoki muz to‘planishi hisobiga qatnov qismining samarali kengligi sezilarli darajada torayadi:

7 metrli (2 tasmali) yo‘llarda: 6,0–6,6 metrgacha;

11,5 metrli (3 tasmali) yo‘llarda: 8,7 metrgacha;

Qamchiq davoni kabi to‘rt tasmali yo‘llarda bitta yo‘nalish kengligi 5,5–6,5 metrgacha qisqaradi va buning hammasi tezlik va harakat sharoitiga bog’liq holda kuzatiladi.

Qishki davrda harakat tezligining pasayishiga nafaqat sirpanchiqlik, balki aynan mana shu qatnov qismi kengligining torayishi ham asosiy sabab bo'ladi.[2]Noqulay ob-havo sharoitlarining, xususan, yomg'irning ikki tasmali shahar tashqarisidagi yo'llardagi (Loznitsa shahri misolida) harakat parametrlariga ta'siri o’rganilgan.2019-yilgi mahalliy meteorologik ma'lumotlar va avtomatik hisoblagichlar ko'rsatkichlarini qiyoslab, yog'ingarchilik harakat tezligini 4% dan 8% gacha, harakat intensivligini esa haftaning kuniga qarab 5% dan 14% gacha pasayishiga olib keladi.Yomon ob-havo sharoiti haydovchilarning xatti-harakatiga va qaror qabul qilishiga bevosita ta'sir ko'rsatib, yo'l tarmog'ining o'tkazish qobiliyatini (koefisentini) kamaytiradi, safar vaqtini uzaytiradi va yo'l-transport hodisalari xavfini oshiradi.[3]Yog'ingarchilik intensivligining ortishi va yo'l qoplamasining namligi o'rtacha tezlikni sezilarli darajada pasaytiradi, bu esa o'tkazish qobiliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.Har bir ob-havo omili uchun maxsus koeffitsientlar hisoblab chiqiladi va ular yo'l harakati xavfsizligini oshirish va transport oqimini samarali boshqarishda muhim hisoblanadi. .[4] Qamchiq dovoni kabi murakkab iqlimli hududlarda harakat tezligini vaqtinchalik cheklash va intellektual boshqaruv tizimlarini joriy etish uchun nazariy asos bo'lib xizmat qiladi.

3. METODOLOGIYA

Tadqiqotda quyidagi manbalardan foydalanildi:

Harakat jadalligi statistikasi: “Qamchiqavtyo‘l ixtisoslashtirilgan yo‘llardan foydalanish korxonasi”


Yo’l harakat xafsizligi kitobi K.X.Azizzov:tezlik topish usullari chastost va urttacha tezlik grafik usullar.

4. NATIJALAR

4.1. Qamchiq dovonida 14.12.2025 tumanli kun 134-kmda 120 ta avtomobilning harakat tezlig tahlii.

11.02.2025 qish fasli tumanli kunda

Tezlik turkumlari	Tezlik takrorlanishi	Chastost (zichlik) %	Yig'ilgan chastost (zichlik) %
30-35	18	15	15
35-40	8	6,6	21,6
40-45	13	10,8	32,4
45-50	22	18,4	50,8
50-55	33	27,5	78,3
55-60	7	5,8	84,1
60-65	12	10	94,1
65-70	1	0,9	95
70-75	6	5	100




Qamchiq uchastkasida tezlik va chastota bog'liqlik grafigi.


1-Jadval

Bu yerda(1-Jadval) korish mumkinki transportlarning 27,5 % 50-55km/soat tezlikda harakatlanib eng ko'p takrorlanuvchi tezlikni hosil qilgan.Transportlarning asosiy qismi 40-55 km/soat tezlik bilan harakatlangan bo'lib 60 km/soat tezlikdan yuqori harakatlangan transportlar soni atiga 19 tani tashkil qiladi.

2-jadval



Quydagi(2-jadval)orqali o'rttacha tezlik aniqlanildi va uni yog'ingarchilik kuzatilmagan kun bilan tezliklar taqqoslanib tezlik uzgarishi foizlarda topildi(4-jadval).




3-jadval

Yog'ingarchilik kuzatilmagan kunda olingan tezlik natijalarini tahlil qilinib (3-j)grafigi tuzlgandan so'ng 15 % tezlik harakatni tashkil qilishda eng past tezlik sifatida

qabul qilinishi kerak va u yordamida minimal tezlik chegaralanib, 4.7 buyuruvchi belgisi o'rnatiladi. 50 % ta'minlanganlikdagi tezlik qiymati oqimdagi hamma avtomobil-larning o'rtacha qiymatini ko'rsatadi. 85% ta'minlanganlik tezligiga asosan yo'l belgilarini o'rnatishda va belgi chiziqlarini chizishda foydalaniladi. 95 % ta'minlanganlikdagi tezlik hisobiy tezlikka teng deb qabul qilinadi va bu qiymat yo'l elementlarini hisoblashda qo'llaniladi.

(4-jadval)misolida turli ob-havo sharoitlari kesimida tezlik korsatgichlari o'zgarishini ko'rish mumkin.



4-jadval

A373 yolining (Qamchiq davoni) uchastkasida 134 kmda ob-havo omillarining harakat tezligiga qanchalik ta'sir qilishini topish uchun ulchov ishlarini olib borib shularni aniqlandi.Natijada Yomg'ir **12,5%**, tuman **35%,** kuchli qor**39%**,gacha tezlik korsatgichini pasayishiga sabab bo'larkan(4-j).Shu tarzda yilning turli fasllarida turli ob-havo iqlim sharoitlarida transport tezliklari urganib chiqildi

5. MUHOKAMA

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, Qamchiq dovonida havo-iqlim omillari transport vositalarining harakat tezligiga hal qiluvchi ta'sir ko'rsatadi. Olingan ma'lumotlarga ko'ra, ochiq havoda o'rtacha tezlik 72 km/soatni tashkil etgan bo'lsa, yomg'irda 12,5% ga, tumanli ob-havoda 35% ga, qor va muzlamada esa 39% gacha pasayishi aniqlandi. Bu holat nafaqat ko'rinish masofasining cheklanishi, balki shinalarning yo'l qoplamasi bilan tishlashish koeffitsienti muzlamada 0,1 gacha tushishi va yo'lning samarali kengligi torayishi bilan izohlanadi. Mazkur ko'rsatkichlar dovon sharoitida harakatni boshqarish tizimlarini (ITS) ob-havoga mos ravishda adaptatsiya qilish zarurligini tasdiqlaydi.

XULOSA

O'tkazilgan tadqiqotlar asosida quyidagi yakuniy xulosalar qilindi: Qamchiq dovonida noqulay iqlim omillari ta'sirida harakat tezligi ochiq havodagiga nisbatan 12,5% dan 39% gacha pasayadi.Aniqlangan 85% ta'minlanganlik tezligi yo'l belgilarini o'rnatish uchun asos bo'lsa, 15% ta'minlanganlik tezligi yordamida minimal tezlikni cheklovchi 4.7 buyuruvchi belgilarini o'rnatish tavsiya etiladi.Harakat xavfsizligini ta'minlash uchun dovon uchastkalarida ob-havo monitoringi va tezlikni avtomatik boshqaruvchi intellektual tizimlarni joriy etish maqsadga muvofiqdir.

ADABIYOTLAR

[1] Krzysztof Ostrowski: Tadqiqotchi (ORCID: 0000-0002-3117-7699). Krakov Texnologiya Universiteti (Cracow University of Technology), Polsha.

Marcin Budzyński Tadqiqotchi (ORCID: 0000-0002-0483-5203).Gdansk Texnologiya Universiteti (Gdańsk University of Technology), Polsha.

[2] 05.09.02. – Asoslar, poydevorlar va yer osti inshootlari. Ko‘priklar va transport tonnellari. Yo‘llar, metropolitenlar.Texnika fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya.O‘ROKOV ASLIDIN XUSHVAKTOVICH

[3] "Economics and Environment" jurnalining 2024-yildagi 4(91)-sonida nashr etilgan. Tadqiqot ishlari Polshaning Krakov shahrida o'tkazilgan.

[04/03/2026 21:51] Ushbu tadqiqot ishi Belgrad universiteti Transport va harakat muhandisligi fakulteti tadqiqotchilari Nikola Ilić va Marijo Vidas tomonidan tayyorlangan."Puti saobraćaj" (Yo'l va harakat muhandisligi jurnali) nashrida e'lon qilingan.

[4] [04/03/2026 21:52]Eronning Imom Xomeyni xalqaro universiteti va Tarbiat Modares universiteti olimlari, jumladan Babak Mirbaha va Mahmoud Saffarzadeh tomonidan tayyorlangan bo'lib, "IOP Conference Series: Materials Science and Engineering" ilmiy jurnalida nashr etilgan.

TIBBIYOT MUASSALARIDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARINING O’RNI VA AHAMIYATI

Bahramov Rustam Raxmatullayevich

Zarmed Universiteti, Tibbiyot va bioinjeneriya instituti,

"Muhandislik kommunikatsiyalar" kafedrasi assistenti.

Arslanova Rayxon Rajabboyevna

Samarqand Davlat Tibbiyot Universiteti Farmakologiya kafedrasi assistenti

Annotasiya: Tibbiyot muassalarida axborot texnologiyalari - bu tibbiy ma'lumotlar va jarayonlarni boshqarish uchun mo'ljallangan kompyuter tizimlari bo'lib, sog'liqni saqlash muassasalarining samaradorligini oshirish, xarajatlarni optimallashtirish va tibbiy xizmatlar sifatini yaxshilashda muhim rol o'ynaydi.

Kalit so’z: Elektron tibbiy kartalar, laboratoriya axborot tizimlari, farmatsevtik

tizimlar, rentgenologik axborot tizimlari, telekommunikatsiya modullari, moliyaviy va ma'muriy modullar.

KIRISH

Hozirgi kunda shaxsiy kompyuterlar va axborotni joriy etish faoliyatining turli sohalarda axborot texnologiyalar va kompyuter texnologiyalari o’rni keskin oshdi, tibbiyot muassasalarida davolash jarayoni va hujjat aylanishini avtomatlashtirish uchun maxsus dasturiy ta'minotga bog’langan ehtiyojlar yanada o’shib bormoqda. Bu boradagi asosiy ustuvor yo‘nalishlar “Sog‘liqni saqlashni axborotlashtirish konsepsiyasi va ish joyini avtomatlashtirish”da belgilab berilgan. Tibbiyot sohasini rivojlanishida ustuvor yo‘nalishlardan biri bo’lgan tibbiyotda axborot texnologiyalarini va kompyuter texnologiyalari ko’rishimiz mumkin. Bundan tashqari axborot texnologiyalari (AT) shu asosda qurilgan tizimdir katta hajmdagi ma'lumotlarni saqlash, qidirish, qayta ishlash va uzatish uchun mo'ljallangan, ma'lum bir amaliy ko'lamga ega bo'lgan kompyuter uskunalaridan iborat. Tibbiy axborot tizimi (TAT) – axborot ma’lumotlar bazasi to'plami,

dasturiy ta’minot va tibbiy jarayonlarni avtomatlashtirish uchun mo'ljallangan axborot tizimidir.

TIBBIYOTDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARINING ASOSIY BAZALARI.

Ushbu darajadagi asosiy maqsad turli ixtisoslikdagi shifokorlarning ishini kompyuter bilan ta'minlashdir, chunki bu profilaktika va laboratoriya diagnostika ishlari sifatini oshirishga imkon beradi, ayniqsa vaqt tanqisligi bilan aholiga ommaviy xizmat ko'rsatish shartlari malakali mutaxassislar tomonidan amalga oshiriladi. Tibbiyotda axborot tizimlarining asosiy funksiyalari va komponentlari quyidagilar:

1. Elektron tibbiy kartalar (ETK): Bemorlarning ma'lumotlarini saqlash va boshqarish, shu jumladan kasallik tarixi, tahlil natijalari, diagnozlar va tayinlashlar.

2. Kasalxona jarayonlarini boshqarish: Bemorlarni qabul qilish, shifokorlar ish jadvali, operatsiyalar va protseduralarni rejalashtirish uchun modullar.


3. Laboratoriya axborot tizimlari (LAT): Laboratoriya tahlillarini boshqarish, shu jumladan yozish, kuzatish va natijalarni hisobga olish.

4. Farmatsevtik tizimlar: Dori-darmon zaxiralarini boshqarish, retseptlarni yozish va ularning qo'llanilishini nazorat qilish.

5. Rentgenologik axborot tizimlari (RAT): Rentgenologik tasvirlar va ma'lumotlarni boshqarish va saqlash.

6. Moliyaviy va ma'muriy modullar: Moliyaviy boshqaruv, bemorlarning hisob-kitoblari, sug'urta to'lovlari va ma'muriy vazifalarni boshqarish.

7. Telekommunikatsiya modullari: Telemeditsina konsultatsiyalari va bemorlarning holatini masofadan kuzatish imkoniyati.



Tibbiyotda axborot tizimlarining afzalliklari:

- Bemorlar haqida to'liq va aniq ma'lumotlarga tezkor kirish orqali tibbiy xizmatlar
- sifatini yaxshilash.
- Tibbiy xodimlar ishining samaradorligini oshirish va ish jarayonlarini optimallashtirish.
- Tibbiy xatolar sonini kamaytirish va bemorlarning xavfsizligini yaxshilash.
- Hujjatlar va ma'muriy xarajatlarni boshqarish xarajatlarini kamaytirish.
- Qaror qabul qilish va resurslarni rejalashtirishni yaxshilash uchun ma'lumotlarni tahlil qilish imkoniyati.

TAT zamonaviy tibbiyotda muhim rol o'ynaydi va bemorlarni samarali va sifatli xizmat bilan ta'minlashga yordam beradi. Tibbiy muassasalar darajasidagi tibbiy axborot tizimlari.

TAT quyidagi holatda taqdim etiladigan asosiy guruhlar:

- maslahat markazlarining axborot tizimlari (tegishli bo'limlar faoliyatini ta'minlash va shifokorlarni axborot bilan ta'minlash uchun mo'ljallangan. Favqulodda vaziyatlarda maslahat, diagnostika va qarorlar qabul qilish);

- tibbiy xizmatlarning axborot banklari (konsolidatsiyalangan xodimlarning sifat va miqdoriy tarkibi to'g'risidagi ma'lumotlar muassasalar, tayinlangan aholi, asosiy statistik ma'lumotlar, xizmat ko'rsatish sohalarining xususiyatlari va boshqalar zarur ma'lumotlar);

- shaxsiylashtirilgan registrlar (ma'lumotlarni o'z ichiga olgan asosida tayinlangan yoki kuzatilgan kontingent boshiga rasmiylashtirilgan kasallik tarixi yoki ambulatoriya kartasi);

- skrining tizimlari (kasalliklarni erta aniqlash) aholini tibbiygacha profilaktik ko'rikdan o'tkazish, shuningdek, xavf guruhlarini aniqlash va mutaxassis yordamiga muhtoj bemorlar;

- davolash va profilaktika uchun axborot tizimlari muassasalar (barcha ma'lumotlarning integratsiyasi asosida yagona tizimga o’tadi va muassasa faoliyatining turli turlarini avtomatlashtirishni ta'minlaydi);

- ilmiy-tadqiqot institutlari va tibbiyot universitetlarining axborot tizimlari (uchta asosiy vazifani hal qilish: texnologik axborotlashtirish ilmiy-tadqiqot institutlari va universitetlarning o'quv jarayoni, tadqiqot ishlari va boshqaruv faoliyati).

Xulosa. Mamlakatimiz tibbiyotida axborot texnologiyalari (TAT) ning elektron xujjat aylanishi yo‘lga qo‘yilishi tibbiyotda avtomatlashtirilgan ish o‘rinlari va bemorlarga ko‘rsatilyotgan sifatli tibbiy xizmatlar, bundan tashqari to‘g‘ri tashhislash, bemorga ko‘rsatilayotgan birinchi tibbiy yordamni tezkorligi, bemorni chakuruvidagi manzilini tezkorligini ta'minlash. Bemorlar haqida to'liq va aniq ma'lumotlarga tezkor kirish orqali tibbiy xizmatlar sifatini yaxshilash.

Axborot texnologiyalari va kompyuter texnologiyalari tibbiyot xodimlarining ishini samaradorligini oshirish va ish jarayonlarini optimallashtirishdan iboratdir.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR

1. Кобринский Б.А., Зарубина Т.В. «Медицинская информатика», 2009 г., с. 56-72.

2. Королюк И.П. «Основы медицинской информатики», 2012г., с. 122- 131.

3. Медицинские информационные системы: анализ рынка // Гусев А.В., Дуданов И.П., Романов Ф.А. / PCWeek №47/2005. С38-40, http://www.pcweek.ru/idea/article/detail.php?ID=75038

4. Бахрамов Р. и др. РОЛЬ И ЗНАЧЕНИЕ МАТЕМАТИЧЕСКОЙ СТАТИСТИКИ В МЕДИЦИНЕ //Eurasian Journal of Academic Research. – 2022. – Т. 2. – №. 13. – С. 1615-1619.

5. Rakhmatullaevich B. R. et al. ROLE AND SIGNIFICANCE OF MATHEMATICAL STATISTICS IN MEDICINE //Web of Scientist: International Scientific Research Journal. – 2022. – Т.

6. – №. 12. – С. 491-495. 3. Rakhmatullaevich B. R. et al. STATISTICAL ANALYSIS OF MEDICAL DATA AND PROCESSING IN MS EXCEL //British View. – 2023. – Т. 8. – №. 1.

7. Бахрамов Р. Р., Маликов М. Р., Абдурахмонов Р. П. ЗАБОЛЕВАНИЯ ВЫЗВАННЫЕ ГЕЛЬМИНТАМИ У ДЕТЕЙ И ПРОГНОЗ РАЗВИТИЯ ЭТИХ ЗАБОЛЕВАНИЙ //Eurasian Journal of Medical and Natural Sciences. – 2022. – Т. 2. – №. 5. – С. 58-62.

8. Бахрамов Р. Р., Маликов М. Р. БОЛАЛАРДА ПАРАЗИТЛАРНИ АНИҚЛАШДА ФУНКЦИОНАЛ ДИФФЕРЕНЦИАЛ ТЕНГЛАМАДАН ФОЙДАЛАНИШ УСУЛИ //Academic research in educational sciences. – 2021. – Т. 2. – №. 3. – С. 280-288.

9. Bakhramov R. R., Abdurakhmonov R. P., Malikov M. R. Diseases caused by helminths occuring in children of world countries and prognosis of these diseases //Web of Scientist: International Scientific Research Journal. – 2022. – Т. 3. – №. 3. – С. 330-334.

10. Бахрамов Р. и др. БОЛАЛАРДА ГИЖЖА КАСАЛЛИГИНИ ПРОГНОЗ ҚИЛИШДА МАТЕМАТИК МОДЕЛЛАШТИРИШДАН ФОЙДАЛАНИШ //Eurasian Journal of Medical and Natural Sciences. – 2022. – Т. 2. – №. 12. – С. 172- 177.

11. Бахрамов Р.Р., Абдурахмонов Р.П. “Суъний интеллект ёрдамида болаларда гижжа(гильмент) касаллигини аниқлаш дастури” ILM FAN XABARNOMASI ILMIY ELEKTRON JURNALI 2024 yil, Toshkent. 99-102 betlar.

«RESEARCH AND PUBLICATIONS»
ILMIY NASHRLAR MARKAZI

PUBLITSISTIK USLUB MATINLARIDA DISKURSIV TAHLIL

Qo‘ziyeva Dilfuzaxon Ilhomjon qizi
Farg‘ona davlat universiteti
Jurnalistika mutaxassisligi 2-kurs magistranti

Annotatsiya

Ushbu maqolada publitsistik matnlarning diskursiv xususiyatlari tahlil qilinadi. Xususan, “Farg‘ona haqiqati” gazetasida e’lon qilingan “Osiyo va Yevropa muzeylarida Rishton kulolchilik mahsulotlari saqlanmoqda” nomli maqola misolida publitsistik diskursning lingvistik, stilistik va ideologik jihatlari yoritilgan. Tadqiqot davomida matnda qo‘llanilgan baholovchi leksika, emotsional-ekspressiv birliklar hamda auditoriyaga yo‘naltirilgan til vositalari aniqlanib, ularning kommunikativ vazifalari tahlil etilgan.

Abstract

This article analyzes the discursive features of publicistic texts. In particular, the linguistic, stylistic and ideological aspects of publicistic discourse are examined based on the article titled “Rishtan pottery products are preserved in museums of Asia and Europe” published in the newspaper “Farg‘ona haqiqati”. The study identifies evaluative vocabulary, emotional-expressive units and audience-oriented language tools used in the text and analyzes their communicative functions.

Kalit so‘zlar

publitsistik matn, diskurs, diskurs tahlil, publitsistik diskurs, baholovchanlik, ideologiya, lingvistik vositalar, ommaviy axborot vositalari, milliy meros, kommunikativ ta’sir

Keywords

publicistic text, discourse, discourse analysis, publicistic discourse, evaluation, ideology, linguistic tools, mass media, national heritage, communicative influence

Bugungi globallashuv va axborotlashuv jarayonida ommaviy axborot vositalari jamiyat hayotida muhim o‘rin egallaydi. Ayniqsa, publitsistik matnlar ijtimoiy ongni shakllantirish, jamoatchilik fikrini yo‘naltirish va muayyan g‘oyalarni targ‘ib etishda asosiy kommunikativ vositalardan biri sifatida namoyon bo‘ladi. Shu jihatdan publitsistik matnlarni nafaqat lingvistik, balki diskursiv yondashuv asosida o‘rganish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.Zamonaviy tilshunoslikda diskurs tushunchasi keng talqin

qilinib, u nafaqat matnning lingvistik tuzilishini, balki uning ijtimoiy, madaniy va pragmatik omillar bilan bog‘liqligini ham qamrab oladi. Xususan, Teun A. van Dijk diskursni ijtimoiy ong va kommunikativ jarayonlar bilan uzviy bog‘liq hodisa sifatida izohlaydi[1]. Shu bilan birga, Norman Fairclough tomonidan ishlab chiqilgan tanqidiy diskurs tahlili yondashuvi matn ortida yashiringan ideologik mazmunni ochib berishga xizmat qiladi[2].

